

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI

“IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI”

«KASBIY FAOLIYAT PSIXOLOGIYASI»

fanidan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

QARSHI -2022 y

Ushbu o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Davlat ta'lif standarti bo'yicha bakalavrilar tayyorlash saviyasi va mazmuniga majburiy talablar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lif vazirligining 2018 yil 26 sentyabrda tasdiqlangan “Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 3069-sonli buyrug'i hamda ushbu buyruqqa ilova sifatida keltirilgan Yo'riqnomaga muvofiq tuzildi.

Uslubiy qo'llanma Muhandislik texnologiyasi fakultetining 5321000 – 5320400-“Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)” ta'lif yo'nalishi hamda Neft va gaz fakultetining 5321300 – “Neft va neft - gazni qayta ishlash texnologiyasi” ta'lif yo'nalishi 2 kurs talabalariga mo'ljallangan. Bunda talabalar mustaqil ta'limi, mustaqil ishi, uning shakllari, vazifasi va maqsadlari hamda «Kasbiy faoliyat psixologiyasi» fanidan talabalarni seminar mashhg'ulotiga mustaqil tayyorlanish, ijodiy izlanishi uchun ON, YaNar bo'yicha test va yozma ish savollari, zaruriy topshiriqlar, fanni mustaqil o'rganish yuzasidan zarur adabiyotlar va internet saytlari keltirilgan.

Tuzuvchi:

Qar MII «Ijtimoiy fanlar» kafedrasasi
katta o'qituvchisi J.U. Shonazarov

Taqrizchilar:

Qar MII «Ijtimoiy fanlar» kafedrasi

dotsenti Z. T. Raximov,

Qar MII “O'zbek va rus tillari” kafedrasи mudiri, dots. O. Begimov

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Qar MII “Ijtimoiy fanlar”kafedrasining 20__ yil _____dagi ___-sonli, va institut Uslubiy Kengashining 20__ yil _____
_____ dagi ____ - sonli yig'ilishlarida ko'rib chiqilib ma'qullangan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish – zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlari samaradorligini ta'minlovchi kasbiy ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi uzlusiz ta'lim mazmunini yangilash, o'qitishning innovation shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi. Shu asosda, bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishga, ta'lim bosqichlarining o'zaro uzviyligi va uzlusizligini ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga asosan, har tomonlama yetuk muhandis-pedagoglar tayyorlash ishida Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani muhim ahamiyatga egadir. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda pedagogika, psixologiya va ixtisoslik fanlari o'qitish metodikasi fanlarini uzviy aloqada o'rghanishga alohida e'tibor berildi. Shu jihatdan qaralganda bo'lajak mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimidagi asosiy e'tibor ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan sog'lom ruhiy vaziyatni vujudga keltira olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak. Bu esa muhandis-pedagoglar tayyorlash o`quv rejasida Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanini o'rghanishga e'tibor berishni taqazo qiladi.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi kursini o'rghanish uchun, Kasbiy psixologiya, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya, muhandislik-psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, har tomonlama yetuk va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar, O'zbekistonda kasb ta'limining asosiy mazmuni, tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari kabilarni talabalarga o'rgatishda qo'l keladi.

Ushbu uslubiy qo'llanmada fanning maqsad va vazifalari, kasb psixologiyasining predmeti, maqsad, vazifalariga oid ma'lumotlarni talabalar tomonidan mustaqil o'rghanishlari uchun amaliy mashg'ulot topshiriqlari, test savollari, umumiy savollar majmuasi, mustaqil ish topshiriqlari, fanni mustaqil o'rghanish yuzasidan zaruriy nazariy ma'lumotlar berilgan.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

BIRINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

(2 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. Kasbiy psixologik bilimlarning inson uchun ahamiyati.
2. Kasba xos psixologik jarayonlar va ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlar.
3. Kasbiy psixologiya fanining ob'ekti va predmeti. Kasb psixologiyasining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni.
4. Buyuk ajdodlarimiz kasb-hunar to'g'risida.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
7. *A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p*
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O'qituvchi», 1990.
13. *Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.*
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G'oziyev E.G'., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. www.gov.uz.
19. www.edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif

Mavzu: Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Kasbiy psixologik bilimlarning inson uchun ahamiyati.
2. Kasbga xos psixologik jarayonlar va ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlar.
3. Kasbiy psixologiya fanining ob'ekti va predmeti. Kasb psixologiyasining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni.
4. Buyuk ajdodlarimiz kasb-hunar to'g'risida.

Tayanch iboralar: amaliy psixologiya, psixika, psixik jarayonlar, kasbiy bilimlar, kasb tanlash, ehtiyojlar, irodaviy harakatlar, kasbga yo`naltirish, kasbiy shakllanish;

1. Kasbiy psixologik bilimlarning inson uchun ahamiyati.

Ko'plab psixologiyaga tegishli yo'nalishlardan biri bo'lgan kasb psixologiyasi o'z o'zidan paydo bo'lmasdi. Balki u insoniyatni o'z ehtiyojlarini qondirish, yaxshi yashash uchun bo'lgan intilishlari bilan bog'liq holda shakllanib bordi va o'z mehnatini yengillashtirish, ko'proq hayot kechirish uchun imkoniyatlar izlanishining natijasi sifatida rivojlandi.

Respublikamiz o'z mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan davridan boshlab O'zbekistonda psixologiya fani ham keng tarmoqlarda rivojiana boshladи. Psixologiya fanining turli sohalarida olimlarimiz barakali hizmat qila boshladilar. Shuningdek, Kasbiy faoliyat psixologiyasi amaliy psixologiyaning tarmog'i sifatida rivojlanib bormoqda.

Kasb-hunar mohiyatini ochib beruvchi professiogramma, professiografiya assosida qishloq xo'jalik mutaxassislarini tayyorlash uchun agrar oliv o'quv yurtlari intilmoqlari lozim. Zero, yuksak texnologiyani boshqarishga layoqatli, ijodiy, mustaqil fikrlovchi, shaxslararo munosabatlarni tashkil qilishga uquvli mutaxassislar yetishtirishga erishilsa, ezgu niyatlar ijtimoiy hayotda qaror topgan bo'lar edi.

Shaxsning kasbiy kamoloti masalasi uning hayotida muhim o'rin tutadigan faoliyat yo'nalishidir. Bu faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlash va belgilash keng ko'lamdagи shaxsiy muammolarni hal etishga olib keladi. Shunga ko'ra, quyidagi mulohazaga e'tibor qaratish ancha muhimdir. "Kasb tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari ustuvorligiga ko'ra munosibrog'ini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yo'nalganlikka nisbatan bir muncha murakkabroq jarayon. Chunki shaxsda kasbga xos xususiyatlар – muayyan kasbni egallashga tayyorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligini) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi. Kasbiy shakllanish va kasbiy faoliyat muammolarini tadqiq etish dolzarb va keng qamrovli psixologik - pedagogik muammo sifatida baholash uchun barcha asoslar mavjud. Mazkur muammo ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida shaxs oldiga yanada kattaroq talablar qo'yadi.

XXI asrning boshidagi kasb-korlikka doir axborotlar ko'laming ortganligi, inson ehtiyojlarining o'sib borayotganligi, yangi sohalarning paydo bo'layotganligi,

kasb yo'nalishlarining o'zgarib borishi va shaxsning hayotga munosabatining o'zgarayotganligi sifatlari bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'rta maktab o'quvchilarinig hammasi kasb tanlashga kelganda oqilona va to'g'ri yo'l tutadi, deb bo'lmaydi, albatta. Ulardan ba'zilari tavakkaliga ish tutsalar, ayrimlari ota-onasini tanlaydilar yoki ko'zga tashlanib turgan yaqqol namunalarga taqlid qiladilar, goho sevimli kishilari izidan borishni mo'ljallaydilar.

2. Kasbga xos psixologik jarayonlar va ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlar.

O'quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlash umumiyligi ta'lim maktabining, litsey, kasb-hunar kollejlari hisoblanadi. Bu tayyorgarlik ikki faktor (omil)ni o'z ichiga oladi: Jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojini; yoshlarning shaxsiy qobiliyatini hisobga olib amalga oshirishga e'tibor berish va uchinchi shaxsning kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashi bilan bog`liqdir.

Kasbga yo`naltirishning dastlabki bosqichida targ`ibotchilik ishiga o'quvchilarning o'zini faol jalb etish zarur. Bu shubhasiz ularning ishlab chiqarish va undagi kasblar bilan batafsil tanishishlari uchun zamin yaratadi. Maktabda kasblarni targ`ib qilish vositalari sifatida, kasb tanlashga bag`ishlangan ma'ruzalar, suhbatlar, anjumanlar, bahslar, tanlovlari, munozaralar, radio va televideniya orqali maxsus eshittirishlar uyushtirish, devoriy gazetalar chiqarish, maxsus ko`rgazmalar, bezashlardan foydalaniлади. Kasblar tanlashdagi mehnat faoliyati turli axborot manbaiga qarab kasbga yo`naltirish shakl va usullarini uch guruhga ya'ni og`zaki, ko`rgazmali va amaliy usullarga bo`lish mumkin.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi. Yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas, u ma'lum yoshta kelib o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim.

Kasb-hunar kollejiga kirgan yoshtar uchun kasb tanlash muammosi to'liq yechilmagan bo'ladi. Ularning bir qismi tanlovning to'g'riliqiga o'qishning birinchi yilidayoq ikkilanib qolishadi, boshqalari – mustaqil kasbiy faoliyatning boshida, ayrimlari kasb bo'yicha 3-4 yil ishlagandan keyin, yoshlarning ayrimlari kasb maktabini bitirib, egallagan kasbi bo'yicha ish topa olmaydilar va ishsizlar qatoriga qo'shilib qoladi. Demak, ular uchun kasb tanlash muammosi yana dolzarb bo'lib qolaveradi. Psixologik toliqish, xavotirlanish, kelajakka nisbatan ishonchsizlik bilan qarash mehnat olamida o'zini topishida ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar oldida ishga joylashish muammosi paydo bo'ladi. Kishilarning individual-psixologik xususiyatlarini kasb

talablari bo'yicha kasbiy tayyorgarligiga mosligini aniqlash uchun qator mutaxassisliklar bo'yicha kasbi tanlov o'tkaziladi. Uning bajarilishi bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi, ya'ni unga ko'ra kasbning normativ tavsiflarini belgilab olish psixologik xususiyat va sifatlarini aniqlash lozim.

Har bir kishining hayotida kasbiy rivojlanish bo'yicha o'zgartiruvchi normativ vaqtlar mavjud bo'ladi. Masalan: kasb-hunar kollejiga kirish, uni tugatish, ishga kirish, mehnatga bo'lgan layoqatini yo'qotish, majburiy ishdan bo'shash va boshqalar. O'z kasbini ustasi bo'lishga erishish variantlari ko'p bo'lib, bu borada talaygina muammolar paydo bo'ladi. Shaxsning kasbiy rivojlanishi turli xilda namoyon bo'lishini tushunish mumkin, ya'ni ayrim kishilar hayoti davomida ma'lum bir kasbga sodiq qolsa, boshqasi esa yillar davomida mehnat turlarini o'zgartirib turadi. Kasbni o'zgartirish sabablari va kasbdan qoniqish, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi turli omillarga bog'liq bo'ladi.

3. Kasbiy psixologiya fanining ob'ekti va predmeti.

Kasb va kasbiy psixologiya o'zining tadqiqot sohasi bilan eng muhim amaliy ishni hayotga tadbiq etib boradi. Bu yuqorida ta'kidlanganidek, inson va kasb o'rtaсидаги munosabatlarni o'rganish orqali insonni kasbga tayyorlaydi, uning imkoniyatlari va qiziqishlarini o'rganish orqali unga ma'lum bir kasblar haqida bilimlar berib boradi va o'ziga qiziq tuyulgan kasbni egallahga yo'l-yo'riqlar berib boradi. O'sib kelayotgan yosh avlod, uning kasb egallah bilan bog'liq masalalar katta avlodni har doim qiziqtirib kelgan va hozirda ham bu masala dolzarb masalalardan biridir.

Kasbiy psixologiyaning predmeti – shaxsning kasbiy shakllanish mexanizmlari, qonuniyatları hamda psixologik xususiyatlarını o'rganishdir. Bundan kelib chiqqan holda kasb psixologiyasi – bu shaxsda kasbiy maqsadlarni tanlash, kasb egallah, mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga doir qonuniyatlarini, shuningdek, shaxsning mehnatga layoqatlilik darajalarini o'rganuvchi psixologiya fanining sohalaridan biridir.

Kasbiy faoliyat psixologiyasining ob'ekti – shaxsning kasb bilan hamkorligi yoki o'zaro bog'liqligidan iborat. Kasbiy faoliyat psixologiyasi psixologiya fanining mustaqil sohasi bo'lib, u o'zining tadqiqot predmeti va ob'ektiga ega.

Kasbiy faoliyat psixologiya fani kasb doirasidagi munosabatlar, odamlarning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir. Bunda guvohlar, xolislari, jabrlanuvchi, gumonlanuvchilarining ko'rsatmalari hamda so'roq olib borishning psixologik asoslarini o'rganish *maqsad* qilib qo'yilgan.

Kasbiy faoliyat psixologiya fanining maqsadi - kasb xodimlari faoliyatining taraqqiyot qonuniyatları, turli toifadagi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga fan soxasidagi psixologik tushunchalar, kasblar haqida tushuncha, tasavvular zahirasini shakllantirish. Shuningdek, kasb tanlash va kasbga yo'naltirish yuzasidan nazariy, amaliy ma'lumotlar manbaini berish. Kasb psixologiyasi shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishini o'rganadi.

Kasb psixologiyasining metodologik assosi - bu shaxsning kasbiy shakllanish konsepsiyasidir. Mazkur konsepsiyaning asosiy mohiyati shundaki, kasb tanlash jarayonida shaxs miqdor va sifat jihatidan rivojlanib boradi ya‘ni ular o‘z yo‘nalishini boyitib boradi, shu orqali tajriba va salohiyat shakllanadi. Kasbiy shakllanish jarayonida inqirozlar, to‘qnashuvlar, destruktiv o‘zgarishlar bo‘lib o‘tishi mumkin.

4. Buyuk ajdodlarimiz kasb-hunar to'g'risida.

Sharq mutafakkirlari ta'limotida yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o‘rgatish g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Qadimiy an'analarimizga binoan hunarmand va kasb, me'mor va naqqosh, dehqon va chorvador, to'quvchi va nonvoy ustoz - shogird munosabatlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Dono halqimiz «Ustozidan o‘zmagan shogird – shogird emas», «Hunarli kishi aslo xor bo'lmas», «Ustoz otangdek ulug'» singari maqollarni ijod etganlar va farzandlarining barkamol bo‘lib ulg‘ayishini orzu qilganlar.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergen, chunonchi, ta'lim – so‘z va ko‘nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish – harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo‘lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo‘lib kelgan.

Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri – Abu Ali Ibn Sinodir. Uning pedagogik – psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo‘lib, u bolaning fe'l – atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g‘oyalari qo‘llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga uni qattiq tan jazosidan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma‘qulligini ko‘rsatgan. Mutafakkirning «Donishnoma», «Risolai ishq», «Uy xo‘jaligi», «Tib qonunlari» asarlari mamlakatimiz xalqlari odob – axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi.

Hozirgi davrda ham allomaning falsafiy – psixologik qarashlari, ijtimoiy hayotimizda o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Uning tarbiya va mijoz xususidagi fikrlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, shaxslararo munosabatlar etikasiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan. Olimning falsafa, mantiq, psixologiya, siyosiy - ijtimoiy fanlar bo‘yicha bizga meros qilib qoldirgan asarlari bashariyat uchun dasturulamal sifatida xizmat qiladi.

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini tahlil qilgan. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo‘lib voyaga etishi, ajdodi va kelib chiqishiga, hayotda shug‘ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog‘liqligini aytib: «Kimning nasli otadan boshlab toza bo‘lsa, undan elga yaxshilik, ko‘p manfaatlar keladi» deb hisoblaydi.

Iste'dodli shoир, yetuk tarixchi, mohir tarjimon Muhammad Rizo Ogahiy o‘zining ijodiy faoliyatida o‘g‘il va qizlarning aqliy, hissiy va jismoniy imkoniyatlarini g‘oyat ziyraklik bilan kuzatgan holda, ularning fe'l atvorlarini tezroq bilib olish, salbiy va ijobjiy sifatlarini osonroq aniqlash, yoqimsiz xatti – harakatlarini bartaraf etish mumkin, degan xulosaga keladi. Ogahiy o‘z davridagi kasb – hunar sohalari, xalq udum va an'analariga o‘zining qimmatli fikrlarini bildirgan. U xalq an'analari

hamda urf – odatlari to'g'risida izohlar berar ekan, turli kasb ustalarining inson kamolatidagi ahamiyatini birma – bir ta'riflab beradi.

XII-XVI asrlarda yashab ijod etgan mutafakkir allomalardan Jaloliddin Rumiy, Abu Rayhon Beruniy, Mir Alisher Navoiy, Xorazmiy va boshqalarning asarlarida, qo'llanmalarida, falsafiy-psixologik mulohazalarida turli kasblarga oid durga teng bo'lgan fikrlar talaygina.

XX asrning yetuk ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozilgan «Turkiy Guliston yohud ahloq» asarida bola tarbiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati falsafiy – pedagogik jihatdan tushuntirilib berilgan. Olim ta'lim va tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o'rni ularning o'zaro hamkorligini ulug'laydi. Uning talqiniga qaraganda, barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimlarga ega bo'lishi, yaxshi bir kasb – korning sirlarini egallashi ko'p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg'unligiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Sharq mutafakkirlaridan qolgan qimmatli ma'naviy boylikning har bir satrini ochib tahlil qilganimizda ularning inson kamolati, ma'naviyati va mehnatsevarlik xislatlariga, bolalar va yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirish va kasb – hunarga o'rgatishga taalluqli ibratli, qimmatli mulohazalar olsa bo'ladi.

O'z – o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Kasbiy psixologik bilimlarning inson uchun ahamiyatini izohlab bering.
2. Kasbiy faoliyat psixologiyasi faning ob'ekti va predmetini tavsiflab bering.
3. Fanni o'rganishdan maqsad nimalardan iborat?
4. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va o'ta muhim bosqichini tavsiflab bering.
5. Kasbga yo'naltirish deganda nimani tushunasiz?
6. Kasb-hunar egallahning ijtimoiy-tarixiy va metodologik muammolari nimalardan iborat?
7. Yoshlarni kasb tanlashga yo'naltirishning muhim omillarini ayting.
8. Buyuk ajdodlarimizning kasb-hunar to'g'risida pedagogik qarashlarini amaliy ahamiyati nimadan iborat.
9. Nima uchun kasb-hunar egalari qadimdan e'zozlanib kelingan?

III. Amaliy mashg'ulotni o'tkazishda innovatsion ta'lif texnologiyalardan foydalanish

1. TOIFALASH JADVALI

Psixologiyaning asosiy prinsiplari va ularning mazmuni		
Determinizm printsipi	Ong va faoliyat birligi	Psixikaning faoliyatda rivojlanishi printsipi

Toshiriq: «Kasbiy psixologiyaning asosiy prinsiplarini bilishning zaruriyati nimadan iborat.

2. «Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari» mavzusiga oid KEYSLAR

Keys № 1 Pedagogik nizo va uni hal etish yo'llari

Ma'lum muddat tibbiy davolanishda bo'lib, yangi o'quv yilidan yana qaytadan ishga qaytgan «Pedagogika-psixologiya» kafedrasi o'qituvchisi Sh. Aliboyev «Pedagogika va psixologiya» bakalavriat ta'lif yo'nalishi 103 guruhida «Pedagogika nazariyasi» fanidan seminar mashg'ulotini o'tkazayotgan edi. Seminar mashg'ulotida talabalarni kichik guruhlarda ishlashlarini tashkillashtirdi. Talabalar kichik guruhlarda ishlarni davom ettirayotgan bir paytda, mashg'ulot boshlanganiga o'ttiz daqiqa bo'lganida mazkur guruh talabasi Sodiqova G. eshikni ochib, auditoriyaga kirishga ruxsat so'radi. O'qituvchi esa mashg'ulot boshlanganiga ancha vaqt bo'lganini, u bir necha marotaban buyon kechikib kelayotganini aytib, mashg'ulotga kechikib kelgan talaba G. Sodiqovaning auditoriyaga kirishiga ruxsat bermadi.

Talaba esa auditoriyadan chiqib ketishni xoxlamadi. O'qituvchi undan auditoriyadan chiqib ketishni talab etdi va oxir – oqibat xonadan chiqarib yubordi. Ertasi kuni auditoriyaga kiritilmagan qizning onasi nomidan fakultet dekanatiga shikoyat xati kelib tushdi. Shikoyat xatida talabaning onasi qizini homilador ekanligiga qaramasdan va har qanday holatda ham o'qituvchi talabani mashg'ulotga kiritmasdan, uni turtib auditoriyadan chiqarib yuborgani pedagogik etikaga zid ish ekanligini, o'qituvchining kompetentligini aniqlash uchun davlat test markazidan xolis ekspertlar chaqirib, sinovdan o'tkazish va shikoyatga yozma ravishda javob qaytarish, agar kerakli chora ko'rilmasa, yuqori tashkilotlarga murojaat qilishi haqidagi talabni qo'ygan edi. Ertasi kuni fakultet dekani va o'rinosari Sh. Aliboyevni

bu haqida ogohlantirdi. O'qituvchi esa dekanga u hech qanday ortiqcha xarakat qilmagani, talaba qiz hamma vaqt darsga kechikib kelishini aytib qo'pol munosabatda bo'ldi. Bir hafta muddat o'tib, dekan kafedra mudiridan mazkur masalani yig'ilishda muhokama qilib, qaror chiqarib berishni so'radi.

Kafedra majlisida mazkur masala muhokama etildi. Kafedra professor-o'qituvchilari har qanday vaziyatda ham Sh. Aliboyevni qo'llab-quvvatlashlarini bildirdi. Biroq talaba –qizning homilador ekanligini hisobga olib, undan uzr so'rash haqidagi taklifni kiritishdi. Sh. Aliboyevga so'z berilganda esa, u pedagoglik odobiga zid hech qanday xatti-harakat sodir etmaganligini, talaba-qizdan uzr so'ramasligini bildirdi. Oradan bir hafta muddat o'tib, Sh. Aliboyev kafedra mudirining ishdan bo'shamasligi haqidagi iltimosiga qaramasdan, o'z arizasiga ko'ra vazifasidan ozod etildi.

Yuqorida keltirib o'tilgan vaziyatni tahlil eting. Siz Sh. Aliboevning o'mida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz? Sh. Aliboevning ishdan bo'shab ketishi to'g'ri bo'ldimi?

Keys №

№	Muammo	Kelib chiqish sababi	YEchimi

IKKINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari (4 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. Kasbiy psixologiyaning tadqiqot metodlari va ularni tasnifi
2. Kuzatish va psixologik eksperiment metodlari.
3. Test va so'rov metodlari.
4. Biografiya va anketa metodlari
5. Psixologik modellashtirish - amaliy psixologiyaning tadqiqot vositasi ekanligi.
6. "Sotsiometriya metodi". Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodlari

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
7. *A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p*
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O'qituvchi», 1990.
13. *Ivanov R.I. Umumiyy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.*
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G'oziyev E.G., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. www.gov.uz.
19. www.edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif

Mavzu: Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari

Reja:

1. Kasbiy psixologiyaning tadqiqot metodlari va ularni tasnifi
2. Kuzatish va psixologik eksperiment metodlari.
3. Test va so'rov metodlari.
4. Biografiya va anketa metodlari
5. Psixologik modellashtirish - amaliy psixologiyaning tadqiqot vositasi ekanligi.
6. "Sotsiometriya metodi". Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodlari

Tayanch iboralar: amaliy psixologiya, psixika, psixik jarayonlar, psixik holatlar va xususiyatlar, kasbiy faoliyat, tadqiqot metodlar: kuzatish, eksperiment, anketa, test;

1. Kasbiy psixologiyaning tadqiqot metodlari va ularni tasnifi

Kasbiy faoliyat psixologiyasining o'rganish ob'ekti bo'l mish shaxs ruhiyatidagi psixik hodisalarini bevosita qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ilg'ab, qulq bilan sezish qiyin. Lekin juda ko'plab fanlar bilan faol hamkorlik shunga olib kelganki, psixologiyaning har bir tarmog'i o'z vazifalarini yechish va ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ko'plab metodlarni sinovlardan o'tkazib, eng ishonchli va mukammallarini saqlab qolgan.

Kasbiy psixologiyaning metodlari juda turli-tuman bo'lishiga qaramay ularning barchasi umumiyl talablarga va qoidalarga bo'y sunadi. Bular tadqiqotning dialektik metod bilan ob'ektiv ravishda olib borish va genetik printsipiga amal qilishdir. Hozirgi zamon psixologiya fani qancha aniq, tekshirilib, sinovdan o'tkazilgan, samarali metodlarga ega. Ularning asosiyalariga qisqa to'xtalib o'tamiz.

Psixologiya fanining empirik (amaliy) metodlari turkumidan muhim o'rinn egallagan, diagnostik xususiyatlari metodlaridan biri – kuzatish metodidir. Mazkur metod fanimizning eng qadimgi tadqiqot vositasi bo'lib hisoblanib, uzoq o't mish zamondan to hozirgi davrgacha ilmiy izlanuvchilarining asosiy tekshiruv quollaridan biri bo'lib, keng ko'lama foydalanim kelinmoqda. Lekin bugungi kunda uning ob'ekti, ko'lami yanada kengaydi, murakkab psixologik jarayonlar, holatlar, hodisalar, kechinmalar, faoliyat va muomala xususiyatlarini o'rganish imkoniyati tug'ildi, sifat hamda mazmun jihatidan katta o'zgarishlar yuzaga keldi.

2. Kuzatish va psixologik eksperiment metodlari.

Kuzatish metodi psixologiya fanining universal tadqiqot metodlari qatoriga kiritilib, uning barcha sohalarida qo'llanilmoqda, ayniqsa, tatbiqiylit imkoniyatining yuksakligi, statistik hisoblashga beriluvchanlik xususiyati bilan boshqa metodlardan ajralib turadi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda uning yoritilmay qolib ketgan jihatlari, tarkiblari, yordamchi jabhalari yuzasidan mulohaza yuritamiz.

Kuzatish metodining texnologiyasi quyidagilardan tashkil topadi:

- voqelik (atrof – muhit, inson shaxsi)ni kuzatish oqimini muayyan qismlarga, yo'nalishlarga ajratish (nemischa – lotincha «kvantifikasiyalash», ya'ni eng zarur, birinchi darajali jihatlarini saralash);
- kuzatishning ko'lami (hajmi), xususiyati va o'ziga xosligini aniqlash, ya'ni uning nimalarga qaratilganini belgilab olish;
- kuzatish davomida to'plangan omillar, ma'lumotlar, natijalarni matematik statistik metodlar yordami bilan hisoblab chiqish va miqdoriy tahlil yakunlari bo'yicha psixologik sifat talqinini amalga oshirish.

Psixologik kuzatish olib borishdan ko'zlangan maqsad mana bulardan iborat:

- kuzatiluvchi vaziyat, holat va ob'ektni maqsadga muvofiq tanlash, uning oqilona ekanligiga ishonch hosil qilish;
- kuzatishning dasturini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq qilish, chizgi tarzda ifodalanishini yaratish, yig'ilgan natijalarni chizma asosida aks ettirish.

Kuzatishning ob'ekti va predmeti quyidagi tuzilishga ega:

- kuzatishning ob'ekti – inson, guruh, jamoa va shaxslararo munosabatlar, emotsiyalar – hissiy kechinmalar, hayvonot olami, shaxsning faoliyati, ijodiyoti, muomalasi kabilarni o'rganishdan iboratdir;

- kuzatishning predmeti – insonning xilma – xil holati, jarayoni, harakatining kuchi, jadalligi, uzlusizligi, dinamikasi, o'ziga xosligi, uning hamkorlikdagi harakati, undagi onglilik, ongsizlik, ongosti holatlarining kechishi, faoliyat va muomala kabilarni eksteriorizatsiyalashdan tashkil topgandir;

Kuzatishning bosqichma – bosqichliligi, tadrijiyligi (ierarxiyasi) tarkiblari quyidagilardan tashkil topadi:

- kuzatishning maqsadi, vazifalari, dasturi, qaydnomasi: bunda umumiy talablarga rioya qilish, yaxlit qayd qilish, kundalik, texnika vositalari (faktik holatlar), natijalarning tahlili, talqini va g'oyalarni ilgari surish.

Kuzatish yakunida to'plangan ma'lumotlar ilmiy hisobat sifatida muayyan qoidalarga asoslangan holda quyidagi tartibda joylashtiriladi: kirish, metodikalarning tasnifi, natijalarning bosqichma - bosqich tahlili, ularning muhokamasi, izlanishlarning xotimasi va xulosalari, amaliy xususiyatga ega bo'lgan tavsiyalar, ko'rsatmalar berilishi, foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati va nihoyat ilovalar (har bir qism o'ziga xos yakunlangan, tugallangan ma'no anglatishi lozim).

Eksperiment – yangi psixologik faktlarni olishning va ob'ektiv ilmiy bilishning asosiy qurollaridan biri. Eksperiment metodi keyingi yillarda psixologiya fanining eng yetakchi metodlaridan biriga aylandi.

Eksperiment-kishini maxsus jihozlangan laboratoriya sharoitlarida o'rganish. Psixologik eksperiment psixologik faktni aniq namoyon qilishga yordam beradigan sharoitni yuzaga keltirish maqsadida tadqiqotchining tekshiriluvchi faoliyatiga aralashishini taqozo qiladi. Eksperiment metodining ikkita asosiy turi farqlanadi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment. Laboratoriya eksperimenti laboratoriya sharoitida maxsus psixologik apparatlar yordamida o'tkaziladi. Tekshiriluvchi kishining nima qilishlari lozimligi ularga oldindan ogohlantirib qo'yiladi.

Tabiiy eksperiment (1910 yilda A.F. Lazurskiy tomonidan tavsiya qilingan) mohiyatiga ko'ra eksperiment sharoitida tekshiriluvchiga o'zi ustida tajriba olib borilayotganligini bildirmaslikka qaratilgan bo'lib, tadqiqotni odatdag'i tabiiy sharoitga ko'chiriladi.

3. Test va so'rov metodlari.

Testlar oxirgi paytda hayotimizga dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kiradi. Ular yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham mikdor xarakteristiqalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta - qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyasion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin bo'ladi. Ayni testga qo'yilgan talab hech qachon o'zgarmaydi, hattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan holda ishlatilaveradi. Masalan, Ravenning aqliy intellektni ulhash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari shular jumlasidandir.

Test - so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berish so'raladi.

Test - topshiriq odam hulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi - ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni falsifikatsiya qilishi mumkinligidir. Testlar ichida **proaktiv testlar** deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Ya'ni shunday topshiriq beriladiki, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi.

So'rov metodi ham psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi. Og'zaki so'roqni yoki ba'zan uni oddiygina qilib, suhbat metodi deb ataladi, o'tkazadigan shaxs unga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rgach so'roq o'tkazadi. Agar mabodo uning professional mahorati yoki tajribasi bunga etarli bo'lmasa, so'rov o'z natijalarini bermasligi mumkin. Lekin mahoratli so'rovchi ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi.

4. Biografiya (tarjimai hol) va anketa metodlari

Inson psixikasini-ruhiyatini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar odamlarning tarjimai holi, kundaliklari, xatlari, esdaliklari muhim ahamiyatiga ega. Shu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai holga aloqador materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, magniton ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, videokamera tasviri, taqrizlar, tanbehlar ham o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi. Hatto shifokorning kasallik tarixi hujjati ham bolaning tug'ilganidan, to boshlang'ich ma'lumot olgunicha bo'lgan davr oralig'idan salomatlik darajasi qanday bo'lganligi to'g'risidagi omillar bilan tanishish imkonini beradigan material hisoblanadi.

Tarjimai hol metodi inson psixikasini suhbat va tajriba metodlari vositasida o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishda yordam beradi. Mazkur metod orqali, masalan, ijodiy xayol bilan bog'liq jarayonlar: she'reyat, musiqa, nafosat, tasviriy san'at, texnik ijodiyotning nozik turlari va shaxsning ma'naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste'dod, salohiyat kabi fazilatlari kuzatiladi.

Anketa metodi.

Umumiy psixologiyada keng qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, unda odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va hodisalarga nisbatan munosabatlari o'rganiladi.

Anketa odatda 3 xil bo'lib, birinchi xilida anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan iborat bo'ladi, ikkinchi xilida esa faqat bittagina javob tanlash sharti bilan har bir savolga bir nechtadan tayyor javoblar ham beriladi. Uchinchi xil anketa sinaluvchiga havola qilinganda kamida to'rt-besh to'g'ri javoblari ballar yordamida baholanadi. Anketa metodidan odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Anketa orqali shaxslarning xarakter xislatlari, hulq-atvorlarini tekshirish, sirtdan turib baholash mumkin.

Tarqatilgan anketalar yig'ib olinib, elektron hisoblash mashinalari dasturiga muvofiqlashtirib atroflicha amaliy xulosalar chiqariladi. Anketa metodi inson psixikasining ayrim tomonlarini o'rganish uchun boy material to'plash imkonini beradi, lekin unda olinadigan ma'lumotlar doimo xolisona xususiyatga ega bo'lavermaydi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi to'g'ri va qarshi savollarni puxta ishlab chiqish kerak.

5. “Sotsiometriya metodi”. Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodlari

Kuzatish suhbat, pedagogik-psixologik eksperiment, test metodlari yordamida to'plangan tadqiqot natijalari sosiometrik metod yordamida to'ldirilishi mumkin. Sotsiometrik metodni dastavval amerikalik mikrosotsiolog Djon Moreno tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib uni yordamida sinflar va ular o'rtasidagi kichik guruhning bilim darajalarini o'lchashda, ular orasidagi emosional munosabatlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metod yordamida bir guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatida kim bilan qatnashishi, materiallarni qanday qilib o'zlashtirishi kabi savollariga javob so'raladi. Olingan ma'lumotlar matrisa, grafik, chizma, jadval, diagramma shaklida ifodalanadi. Sotsiometrik metoddan turli yoshdagi, qiz va o'g'il bolalar orasidagi, bilim darajasi har xil o'quvchilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatlarini tadbiq etishda unumli foydalanish mumkin. Shaxslararo munosabatlar sinflardagi o'quvchilarning ob'ektiv, o'zaro jiddiy munosabatlarini aks ettiradi. Maktabdagagi jamoatchilik munosabatlari faqat o'quvchilar guruhi o'rtasidagi ilk oddiy o'zaro yordamlashish munosabatlardangina iborat bo'lmay, balki mazkur o'quvchilar guruhidan va umuman maktabdan tashqari chiquvchi biror umumiyl maqsadlar asosida, birgalashib harakat qilishdan iboratdir.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi. Bu metod psixologiyada inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida keng qo'llaniladi. Odam chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, to'qigan narsalar, tikkan qo'g'irchoqlar, to'qib, so'zlab berilgan hikoyalar, texnik konstruksiyalar chizmasini tushunish kabilarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli, texnik ijodi yuzasidan materiallar to'plash mumkin. Mazkur metodda ijod mahsulini yaratgan jismoniy shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Tekshiriluvchi bilan tekshiruvchi o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirtdan muayyan hukm va xulosa chiqariladi. Tekshiruvchi (o'qituvchi, murabbiy, psixolog) ekspert tariqasida shaxslar ijodiyotiga baho beradi, bunda mehnat mahsulining shakli, mazmuni, sifati, originalligi, hajmi, xususiyati bilan keskin tafovut qilishi nazarda tutiladi.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali har xil yoshdagi va kasbdagi odamlarning psixik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin. Faoliyat mahsulotlarini o'rganish inson ruhiyatini o'rganish metodlari ichida o'ziga xos o'rinni tashkil etadi. Xulosa sifatida aytish kerakki, kasbiy faoliyat psixologiyasining bu metodlari orqali shaxsning turli vaziyatlarda hulqini diagnostika qilish mumkin.

O'z –o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Kasbiy faoliyat psixologiyasining o'rganish ob'ektini izohlab bering.
2. Kasbiy psixologiyaning metodlari barchasi nima uchun umumiyl talablarga va qoidalarga bo'ysunadi?
3. Psixik jarayonlar deganda nimani tushunasiz ?
4. Psixologik nazariyalarini asosiy yo'nalishlarini tushuntiring.
5. Psixik hodisalarining shakllarini aytib bering.
6. Kuzatish metodlarini izohlang.
7. Psixologik eksperiment nima ?

III. Amaliy mashg'ulotni o'tkazishda innovatsion ta'lif texnologiyalardan foydalanish

1. «Tushunchalar tahlili» metodi

1 - qisqa muddat ichida bajariladigan standart vazifalardan iborat (4 ta harf)	
3	Ushbu davlatda o'quv yili 240 kun bo'lib, o'quv yili 1 apreldan boshlanadi. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. (7 harf).	
4 - ikki pallaga – nazariya va amaliyatga bo'linadi (6 ta)	
5	Maxsus pedagogikaning yo'nalishi bo'lib bu aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish sohasidir (20 ta)	
6 - bu lotinchadan olingan bo'lib, oldinga harakat qilish tushuniladi (7 ta)	
7	O'quvchining ikkinchi «muallimi», chunki u, avvalo o'quvchi uchun zarur qo'llanma va uning eng muhim quroolidir, bu... (7 ta)	
8	Yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikr. (7 ta)	
9	Bu so'z inglizcha so'zdan olingan bo'lib, sinov, tekshirish, baholash demakdir. (4 ta)	
10	“Turkiy guliston yohud axloq” asarining muallifi (7 ta)	
11	Eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan axloqiy-tarbiyaviy manba (6 ta)	
12bu kishiga ta'sir etadigan tashqi voqeа va hodisalarning yig'indisidir (5 ta harf).	
13	Psixik jarayonlar, psixik xususiyat va psixik holatlar umumiy nom bilan deb ataladi. (15 ta)	
14 tanlash bu murakkab, lekin zaruriy jarayon bo'lib, insonni kelajagini va yaxshi yashash imkoniyatlarini yaratuvchi, jamiyatda unga foyda keltiruvchi mehnat qilish. (4 ta)	
15	Psixologiyada ushu prinsipga ko'ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va yashash sharoiti o'zgarishi bilan o'zgaradi. (11 ta)	
16. deganda, bolaga ota-ona va umuman yaqin ajoddlardan, ya'ni nasldan-naslga o'tadigan biologik xususiyat va o'xshashliklar tushuniladi (7 ta).	
17. - bilimlarimizning haqiqiyligini ko'rsatuvchi mezondir. (8 ta)	
18.	Aniq maqsadga qaratilgan, bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lif mashg'uloti (4 ta)	
19.	Testlar ichida deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Bu qanday testlar hisoblanadi? (12 harf).	
20/	Eksperiment metodining ikkita asosiy turi farqlanadi: laboratoriya eksperimenti va eksperiment (6 ta)	

Ballar: 16-20 tagacha “a'lo”

13-15 tagacha “yaxshi”

10-12 tagacha “qoniqarli”

0-9 gacha “qoniqarsiz”

UCHINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: Kasbiy layoqat tashxisi (2 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar
2. Kasb tanlash motivatsiyasi. Kasbiy layoqatni aniqlovchi testlarning ishonchliligi.
3. O'quv faoliyati va kasb motivatsiyasi. Kasbiy psixodiagnostika.
4. O'quv faoliyati motivlari to'g'risida mulohazalar.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
7. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O'qituvchi», 1990.
13. Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G'oziyev E.G., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. Shonazarov J.U. Kasbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil
19. www. edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif **Mavzu:Kasbiy layoqat tashxisi**

Reja:

1. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar
2. Kasb tanlash motivatsiyasi. Kasbiy layoqatni aniqlovchi testlarning ishonchligi.
3. O'quv faoliyati va kasb motivatsiyasi. Kasbiy psixodiagnostika.
4. O'quv faoliyati motivlari to'g'risida mulohazalar.

Tayanch iboralar: kasb layoqat, kasbiy ehtiyoj, motiv, kasbiy qobiliyat o'quv faoliyati, motivasiya, kasbiy maorif, kasbiy maslahat, kasb tanlash;

1. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Hatto oddiy kasb maorifi ham turlicha yondashuvni talab qiladi, binobarin, uni qondirmasdan turib tub maqsadga erishib bo'lmaydi.

Kasb maorifi – o'quvchilarni kasbning mohiyati bilan, har bir kasbning shaxs oldiga qo'yadigan talablari bilan tanishtirishdan iborat ta'sirchan axborotlar majmuasidir. Ma'lumotlarning aniqligi, to'liqligi, xususiy va ijtimoiy ahamiyati ifodalanganligi bilan boshqa tarkiblardan ajralib turadi.

Kasbiy maslahat – kasbga yo'llashning mohiyatini inson ongiga chuqurroq singdirish uchun, shaxsning ishtiyoqi va qobiliyatlariga mos kasb – hunar (ixtisos) tanlashi uchun muhim ob'ektiv va sub'ektiv shart – sharoit yaratish jarayonidir. Kasb egallovchi (tanlovchi) ehtiyoji, o'qituvchi (murabbiy)ning kasbiy mas'uliyatidan kelib chiqqan holda ilmiy – amaliy xususiyatlari yo'llanmalar berish jarayonidir.

Kasbiy saralash – muayyan kasbni muvaffaqiyatli ravishda egallab, o'z oldiga qo'yan fuqarolik (xususiy) burchini yuqori saviyada ado eta biladigan shaxslarni ajrata olishdan iborat jarayondir. Kasbiy bilimlar, shakllangan ma'lum ko'nikmalar, malakalarga asoslangan holda tekshirish me'zonlariga suyanib, omilkorlik bilan oqilona saralash o'tkaziladi.

Saralash jarayoni o'tkazilgandan keyin kasbiy moslashish davri boshlanadi. Odatda kasbiy moslashish deganda, yosh kasb egalarining va mutaxassislarining kasbiy faoliyatga, uning shart sharoitlariga, talablariga muvaffaqiyatli ravishda moslashish (bir necha bosqichlardan iborat) jarayoni tushuniladi.

Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar mohiyati quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1) Ta'lim – tarbiya tizimida kasbga yo'llash faoliyatining (tadbir va choralarining) mazmuni va metodikalari majmuasi mukammal ravishda mujassamlashganligi.

Maktab (qaysi turdaligidan qat'iy nazar) ma'muriyati, sinf rahbarlari, amaliy psixolog va kasbga yo'lovchi fan o'qituvchilarining ish rejasida mazkur masala joy olganligi.

2) O'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatishda o'qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi.

Alovida olingan fan o'qituvchilari va turdosh fanlarning namoyondalari jamlanmasi hamkorlik ish rejasida kasbga yo'llash masalasining izchil ravishda qo'yilishi, har bir mavzu bo'yicha mulohaza almashishda, qaysi fan bo'lishidan qat'i nazar ixtisosga oid bilimlarga e'tibor berilishi kasbiy tasavvurni vujudga keltiradi.

3) Sinf rahbarining ota – onalar bilan hamkorligi ongli kasb tanlash negizi ekanligi.

4) Kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki.

Yoshlar tashkiloti faoliyatida kasb tanlash masalasining ustuvorligi, o'quvchilarning turli fondlarga jalb qilinishi, iste'dodlarning saralanishi, mukofotga tortilishi, moddiy va ma'naviy taqdirlanishi kabilar.

5) Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alovida ajratilib ko'rsatilishi.

6) Maktablarda, ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko'lamda yo'lga qo'yilishi.

7) Maxsus muassasalar faoliyati.

8) Kasbga oid ko'rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi.

9) Ijodkor, nufuzli, mahoratlari kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazilishi.

10) Kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniyaning ishtiroki.

Kasbga yo'llash umum davlat ahamiyatiga ega muammo hisoblanib, uni bosqichma – bosqich amalga oshirish «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»da alovida o'rinni egallaydi. Yuqorida aytib o'tilgan kasb tanlashga yo'llash omillari faoliyatini hamkorlikka aylantirish yuksak samaralar sari etaklaydi.

2.Kasb tanlash motivatsiyasi. Kasbiy layoqatni aniqlovchi testlarning ishonchliligi.

O'qish motivlari muammosini tadqiqot qilgan jahon psixologlari ularni ikki kategoriya yoki guruhga ajratib tekshirishni lozim topadilar. Birinchi kategoriya taalluqli motivlar o'quv faoliyatining mazmuni, mohiyati hamda uning jarayonlari, sharoitlari bilan bevosita uyg'unlashgandir. Ikkinci kategoriya kiruvchi motivlar tizimi o'quvchilarning atrof – muhit bilan keng ko'lamdagagi o'zaro munosabatlariga ularning begona, o'zga kishilar bilan muomalaga kirishish ehtiyojiga, ijtimoiy turmush vaqeliligiga nisbatan shaxsiy qarashiga bog'liqdir.

O'quv faoliyati mazmuni bilan uzviy bog'liq motivlar tizimini shartli ravishda ikki guruhga ajratib ularni ijobiy (musbat, pozitiv) va salbiy (manfiy, negativ) deb nomlash mumkin. Bunday atamalarni qo'llashdan asosiy maqsad mahalliy an'ana, ijtimoiy tajriba (stereotipizatsiya darajasidagi ta'sirchan kuchli tashqi omil) ekstremal holat ta'sirida keskin ruhiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir. Odatda salbiy (negativ) motivasiya shunday vaziyatda vujudga kelishi mumkinki, qachonki o'quvchi bilimlarni o'zlashtirmasligi oqibatida qanday ko'ngilsiz holatlarga olib kelishini anglab etsa (jazolanish, ota- onalar tanbehi, sinfdoshlar e'tirozi, yomon baho olish, jamoa a'zolari orasida obro'sizlanish va boshqalar) va ana shunga muvofiq sa'y - harakatlarni amalga oshirsa. Salbiy motivasiyaga ega bo'lgan o'quvchi kamroq musibatli (mushkul ahvol) yo'lni tanlab ta'lim jarayonida qatnashishda davom etadi. Bunday o'qish motivasiyasiga aloqador o'quvchilar yuqori ko'rsatkichlarga, muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar, chunki ishtiyoksiz darsga qatnashish tuyg'usi, bilim va o'quv

predmetiga nisbatan qiziqishning mavjud emasligi bunga ma'noviy to'siq bo'lib xizmat qiladi. Buning natijasida o'zlashtirmovchi, bo'sh o'zlashtiruvchi, sust o'quvchilarining safi tabora kengayib boradi, bu narsa kundalik odatga aylana borsa, u stereotip darajasiga o'sib o'tishi mumkin.

O'qishga nisbatan saboq oluvchilar munosabatini aniqlashga harakat qilgan o'qituvchi qanday o'zgarishlar yuz berayotganligini qayd qilish uchun ayrim mezonlarni ta'kidlay boshlaydi: a) xayolparishonlik vujudga keladi; b) vijdonan yondashish yo'qoladi; v) boshqalardan ko'chirib olishni odat qiladi; g) yolg'on so'zlash va bahona qidirishga o'rganadi; d) darslarni qoldiradigan bo'lib qoladi; e) mustaqil topshiriqlarni bajarmay qo'yadi va boshqalar. O'qituvchi yoki o'quvchilar jamoasi yuqorida taxmin qilingan o'quvchilaragi salbiy o'zgarishga nisbatan an'anaviy tartib – intizom metodlarini tatbiq qiladi: a) kundaliklarga ogohlantirish yozish; b) ota-onalarga bu to'g'risida ma'lumot berish; v) sinf rahbari, maktab rahbariyatiga xabar berish; g) darsdan keyin olib qolib qattiq uyaltirish; d) bilim dargohidan haydash masalasini qo'yish va hokazo. Bunday aniq voqelik har qanday maktab, kollej, akademik litsey, oliy ta'lim tizimida yuz berib turadi. Bizningcha, jazo choralarini ko'rishga shoshilishdan ko'ra, mazkur «Muammoni keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar?», «Nega shunday hodisa yuz beradi?» degan savollarga javob qidirish odilona yondoshishdir.

Hozirgi zamон psixologiya fani bilimlarni egallashga nisbatan ichki ehtiyojga katta ahamiyat beradi va bu bilan shaxs xulq-atvorini bir mucha boshqarish imkoniyati mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Shuning bilan birga o'quvchi (talaba)da barqaror bilishga qiziqishni shakllantirish muammosiga alohida e'tibor qilinadi. Darhaqiqat barqaror bilishga qiziqishlar qo'zg'atuvchi turtki (kuch) sifatida o'quv motivlarini vujudga keltiradi, muvaffaqiyatni ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchi yoki talabada bilimlarning muayyan sohasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishning tug'ilishi ko'p jihatdan shaxsni qay tariqa shakllanish imkoniyatini belgilaydi.

3. O'quv faoliyati va kasb motivatsiyasi. Kasbiy psixodiagnostika.

O'quvchi va talabalar o'quv faoliyatining ijtimoiy motivlari ularning boshqa odamlar bilan muomalaga kirish ehtiyoji bilan uзвиy bog'liq bo'lib, ularni baholash, quvvatlash, tengdoshlar jamoasida muayyan joy egallash singari talablarda o'z aksini topadi. Mazkur motivlar o'quv faoliyatining mohiyati bilan bog'liq bo'lmay, balki unga yondosh yordamchi omillarni bildiradi. Ammo ushbu motivlar o'quvchi va talaba o'qishiga jiddiy turtki vazifasini bajaradi.

O'qituvchi mashg'ulotlarda o'quv faoliyatining zarur motivasiyasini shakllantirsa, ularning mavjud ehtiyojlariga tayanib ish tutsa, o'quvchida bilishga qiziqish barqarorlashadi. Shuning uchun qiziqish, motiv, motivatsiya shaxsnинг xatti – harakati ichki regulyasiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojni qondirish, xohish – istak, ezgu niyat, orzu tilakni amaliyotda ruyobga chiqarishning bosh omili bo'lib hisoblanadi.

Maktab o'quvchilarining, kasb – hunar kollejlarining tegishli kasb – hunar tanlashlariga quyidagi omillar ta'sir qilishini xulosa qilib berish mumkin: o'qituvchi, kasb – hunarga yo'naltiruvchi, sinf rahbari, mahalla, mehnat ta'limi o'qituvchisi, fan o'qituvchilari, bolalar etakchisi, to'garak rahbarlari, kutubxona, xududiy mehnat bozori, psixolog, shifokor, ota – onalar, qarindosh – urug'lar, qo'ni - qo'shnilar, ideal

qahramon obrazlari, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari, yaqin korxonalar va hokazolar.

Ma'lumki, shaxsning kasbiy shakllanishi to'rt asosiy bosqichdan iborat bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: a) kasbiy intilishlarning shakllanishi; b) kasbiy ta'llim; v) kasbiy moslashish; g) shaxsning kasbiy faoliyatda qisman va to'liq o'zini-o'zi bag'ishlashi. Mazkur bosqichlarga mos holda kasbiy o'zini o'zi aniqlash jarayoni ham sodir bo'ladi. Kasbiy o'zini o'zi aniqlash jarayoni psixologik adabiyotlarda yetarli darajada chuqur yoritilgan bo'lib, ayniqsa, psixologlar kasbiy intilishning shakllanishi va kasb tanlash bosqichlariga alohida e'tibor qaratganlar.

Kasbiy faoliyatning pedagogik jihatlari esa xodimlar hulqidagi mavjud axloqiy – siyosiy xususiyatlarda aks etib, axloqiy prinsiplar va me'yirlarning shaxs ongida qanday hosil bo'lishi bilan belgilanadi. Kasb tanlash inson hayotidagi muhim bir bosqich hisoblanib, bunda inson hayoti uchun muhim qaror qabul qiladi va u jamiyatda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Bu jarayon inson tomonidan o'z ichki imkoniyatlari tahlil qilish natijasida ma'lum kasbning talablariga uning imkoniyatlarining mos kelishiga qarab sodir bo'ladi. Kasb tanlash ma'lum bir kasbni tanlayotgan inson (tanlov sub'ekti) bilan tanlanayotgan kasb (tanlov ob'ekti) munosabatlarini o'zida aks ettiruvchi faoliyat hisoblanadi. Tanlov sub'ekti va tanlov ob'ekti o'rtasidagi munosabatlar xarakteristikasini o'rganish davrimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kasb tanlash qisqa vaqtida hal etiladigan ish bo'lmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davoimiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash sub'ektining individual xususiyatlariga bog'liq holda kechadi. Shunday qilib, kasbiy jihatdan o'z o'zini aniqlash - shaxs kasbiy faoliyatining barcha davrlarini, ya'ni kasbiy intilishning paydo bo'lishidan tortib to mehnat faoliyatidan butunlay ozod bo'lgungacha bo'lgan davrlarni o'zida mujassamlashtirgan jarayondir.

4. O'quv faoliyati motivlari to'g'risida mulohazalar.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart – sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta'llim jarayonida o'zlashtirish, egallash va o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash uchun o'quvchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart.

Bilish motivlari shaxsning (sub'ektning) gnoseologik maqsad sari, ya'ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko'nikmalarni egallahsga yo'naltiriladi. Odatda bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tashqi va ichki nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi.

Tashqi motivlar jazolash va taqdirlash, xavf – xatar va talab qilish, guruhiy tazyiq, ezgu niyat, orzu – istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadiga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo'lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o'ta muhimroq boshqa, hukmron (yetakchi) maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush, noqulay vaziyatdan qochish, ijtimoiy yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaqqat erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo). Bu turdag'i yoki jinsdagi tashqi motivlar ta'sirida ta'llim jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallah (o'zlashtirish)da qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Masalan, kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning asosiy

maqsadi o'qish emas, balki ko'proq o'yin faoliyatiga moyillikdir. Mazkur vaziyatda o'qituvchining o'qishga ularni jalb qilish niyati o'quvchilarning o'yin maqsadining ushalishiga halaqit berishi mumkin, lekin izoh talab dalillar yetishmaydi.

Ta'lif jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglanilgan motivlar o'quvchilar xulq - atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shaxsini shakllantirishga, ularda maqsad qo'ya olish, qiziqish uyg'otish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi. Aniq narsalar, hodisalar va xatti – harakatlar insonning faolligi muayyan manbalar bilan uzviy bog'lanishga ega bo'lsa, uyg'unlashib borsa faoliyat motivlari darajasiga o'sib o'tadi.

Ijtimoiy turmush sharoitida faollik va informasion taqchillik odamlarni salbiy his-tuyg'u va kechinmalarga olib keladi, faoliyat tuzilishi va uning dinamikasiga putur etkaziladi. Ijtimoiy turmushda shakllanuvchi ehtiyojlar orasida o'quv faoliyatida muhim rol o'ynovchi va uni kuchaytiruvchi ijobjiy xususiyatli ijtimoiy va gnostik ehtiyojlar alohida ahamiyat kasb etadi, shaxsni kamol toptirish jarayonida hukmron voqelikni egallaydi. Ularning turkumiga bilimlarga nisbatan ehtiyoj, jamiyatga foyda keltirishga intilish, umumbashariy yutuqlarga erishishga intilish kabilalar kiritiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillarni sanab o'ting.
2. Motiv nima, motivasiyani tavsiflab bering?
3. Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyati uchun qanday ahamiyatga ega?
4. Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallah uchun zarur bilimlar va ko'nikmalar ko'laming pedagogik tavsifini izohlang?
5. O'quv faoliyati va kasb motivasiyasini tushuntirib bering?
6. O'quv faoliyati motivlari to'g'risida mulohazalaringizni bildiring.
7. Motiv va faoliyatning umumiyligi tavsifi hamda aloqadorligini tavsiflab bering.
8. Kasbiy moslashish bosqichi deganda nimani tushunasiz?

III. AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISHDA INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Mavzuga oid nostandard testlar

1. Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing.

1) _____ – o'quvchilarni kasbning mohiyati bilan, har bir kasbning shaxs oldiga qo'yadigan talablari bilan tanishtirishdan iborat ta'sirchan axborotlar majmuasidir.

2) _____ – kasbga yo'llashning mohiyatini inson ongiga chuqurroq singdirish uchun, shaxsning ishtiyoqi va qobiliyatlariga mos kasb – hunar (ixtisos) tanlashi uchun muhim ob'ektiv va sub'ektiv shart – sharoit yaratish jarayonidir..

2. Mustaqil ishslash uchun test savollari.

1. Testlar ichida deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Bu qanday testlar hisoblanadi?

- A) murakkab testlar;
- B) proaktiv testlar;
- S) yopiq va ochiq testlar;
- D) nostandard testlar.

2. Kasbiy psixologiya fanining empirik (amaliy) metodlari turkumidan muhim o'rinnegallagan, diagnostik xususiyatli metodlaridan biri bu -....?

- A) kuzatish;
- B) biografiya;
- S) tipiklashtirish;
- D) psixologik eksperiment.

3. Kasbiy psixologyaning qanday asosiy metodlarini bilasiz?

- A) analiz, suhbat, matematik, test metodi;
- B) kuzatish, so'hbat, test, eksperiment, faoliyat mahsulotini psixologik tahlil qilish, anketa, biografiya;
- S) kuzatish, idrok qilish, tajriba, trening, test, matematik modellashtirish, izlanish va psixologik korreksiya;
- D) anketa, so'rov, eksperiment, umumlashtirish, tabiiy.

4. Kasb maorifi deganda nimani tushunasiz?

- A) Kasb maorifi - kasblar va ularning bir – biridan farqlanuvchi ixtisoslar tomonidan inson oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi;
- B) Kasb maorifi - soha tizimidan iborat bo'lib inson tomonidan tanlanadi, o'z hayot yo'lining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladigan ta'lim sohasi;
- S) Kasb maorifi - muayyan kasbni muvaffaqiyatl ravishda egallab, o'z oldiga qo'ygan fuqarolik burchini yuqori saviyada ado eta bilish jarayonining optimal tarzda ifodalanishi;
- D) Kasb maorifi – o'quvchilarni kasbning mohiyati bilan, har bir kasbning shaxs oldiga qo'yadigan talablari bilan tanishtirishdan iborat ta'sirchan axborotlar majmuidir.

5. «Motiv» tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?

- A) Xoxish, namuna ko'rsatish, ibrat bo'lish ma'nosini anglatadi;
- B) Ehtiyoj, intilish, mayl, qiziqish kabi ma'nolarni anglatadi;
- S) Istak, xulq-atvor kabi ma'nolarni bildiradi;
- D) bilim-ko'nikma ma'nolarini anglatadi.

TO'RTINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: Professiografiyaning mohiyati, uning yuzaga kelish tarixi (2 soat)

Mashg'ulot rejasি:

- 1. Professiografiyaning mohiyati va uning asosiy tamoyillari
- 2. Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyati uchun ahamiyati.
- 3. Kasbiy shakllanish jarayonida shaxs taraqqiyoti. Turli kasblarning shaxs oldiga qo'yadigan talablari
- 4. Kasblarning klassifikatsiyasi. Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
7. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O'qituvchi», 1990.
13. Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G'oziyev E.G., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. Shonazarov J.U. Kasbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil
19. www.edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif

Mavzu: Professiografiyaning mohiyati, uning yuzaga kelish tarixi

Reja:

- 1. Professiografiyaning mohiyati va uning asosiy tamoyillari
- 2. Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyati uchun ahamiyati.
- 3. Kasbiy shakllanish jarayonida shaxs taraqqiyoti. Turli kasblarning shaxs oldiga qo'yadigan talablari
- 4. Kasblarning klassifikatsiyasi. Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash.

• **Tayanch iboralar:** kasb-hunar, kasbiy shakllanish, professiografiya, ixtisoslik, kasbiy faoliyat, kasbga yo'naltirish, kasbiy ko'nikma, malaka, kasbiy moslashuv.

- **1. Professiografiyaning mohiyati va uning asosiy tamoyillari**

• **Professiografiya** deganda kasblar va ularning bir – biridan farqlanuvchi ixtisoslar tomonidan inson oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi. Kasb-kor (hunar) oldiga qo'yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, quyidagi umumiy hamda xususiy jabhalarni o'zida aks ettiradi:

- 1. Kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi;
- 2. Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyati uchun ahamiyati;
- 3. Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi;
- 4. Kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi; yoshlarda uning ijtimoiy mavqeい (nufuzi), jamoaning o'ziga xos xususiyatlari, vertikal va gorizontal bo'yicha shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari;
- 5. Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko'nikmalar ko'laming pedagogik tavsifi (maxsus mezonlar orqali kasbiy mahorat aniqlanadi);
- 6. Pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir – choralarning umumiy tavsifi;
- 7. Mehnat sharoitining gigienik tavsifnomasi;
- 8. Kasb bo'yicha mehnat qilishga tibbiy jihatdan ta'qiqlanuvchi omillar izchilligi;
- 9. Kasbga psixologik nomutanosiblik, yoki kasbiy yaroqsizlik;
- 10. O'zini o'zi faollashtirish va identifikasiyalash.
- Kasbning inson oldiga qo'yadigan talablari majmuasi psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy va pedagogik jabhalarni qamrab oladi. Kasb va ixtisos asoslarini egallovchi yoshlar shu fanlarning barcha talabalariga moslashishi orqali mutaxassislik layoqatini rivojlantira boradi.
- Kasb tanlashga yo'naltirish davlatning tadbir – choralari tizimidan iborat bo'lib inson tomonidan tanlanadi, o'z hayot yo'lining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi, u turmushda o'z o'rnnini aniqlaydi va quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:
- 1. Maktabda kasbiy ma'lumotlar berish;

- 2. Kasb – hunar maorifi bilan shug'ullanish;
- 3. Radio, televidenie, kino, matbuotda tashviqot qilish;
- 4. Kasb yuzasidan maslahatlar;
- 5. Kasbga saralash (qobiliyatiga binoan);
- 6. Kasbga moslashish (adaptatsiyalash).

Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagini muhim bir tomoni – bu har xil kasb – hunar egasiga nisbatan qo'yiladigan talablar yuzasidan muayyan bilimning mavjudligidir. Uning ikkinchi bir xususiyatlari tomoni shuki, u yoki bu mutaxassislikka nisbatan jamiyat (viloyat, shahar, tuman)ning mehnat imkoniyatiga ehtiyoji bo'yicha bilimlar mujassamlashganligidir. Yana bir o'ziga xos tomoni shundan iboratki, kasbga yo'naltiruvchining qunti, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari bo'yicha bilimlar umumlashtirilgan bo'lib kasbga tanlashga oid barcha jihatlar majmua holiga keltirilgandir. Kasb tanlashga yo'naltirilgan uchburchak shaxsning qiziqishi, mayli, xohishi, o'zini o'zi baholashi, nufuzi kabilarga oid materiallarni o'zida mujassamlashtiradi.

- **2. Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyati uchun ahamiyati.**

Mutaxassislik - kasbiy ta'lif, tayyorgarlik yo'li bilan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko'nikma va malakalar kompleksi bo'lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma'lum faoliyat turini bajarish uchun zaruriy hisoblanadi. Shunday qilib, mutaxassislik - kasb ichidagi kasbiy faoliyat turi bo'lib, u shaxsiy yutuqdarga yoki o'ziga xos vaziyatlar orqali umumiyl natijalarga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Insoniyat rivojlanishida kasbiy faoliyat turlari uning eramizgacha Misrda kadimiya Gresiya (Yunoniston), Rim imperiyasi va boshqa rivojlangan davlatlarda ko'zda tutilgan. Bugungi kunda mehnatning paydo bo'lishi sanoat inqilobi davrida boshlandi. Keyingi, ilmiy-texnik rivojlanish kasblar ruyxatini yangilashga va kengayishiga olib keladi. Xalqaro kasblarni tizimlash stantarti bo'yicha 1988 yilda 9333 kasb ruyxatga olingan. Yagona ta'rif malaka ma'lumotnomasi 7000 ga yakin kasb va mutaxassisliklarni birlashtiradi. Bu maxsus hujjatlar ularning tizimli paytidagi kasbiy vaziyati aks ettiriladi.

Kasb nomi ko'pincha o'tgan yillarda shakllangan mehnat xarakterini aks etadi. Rasmiy ma'lumot nashrlari esa mehnat resurslarining rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Ta'kidlash mumkinki, kasblar va mutaxassisliklar odatda texnologiya va mehnat vositalarining eskirib qolgan holatini aks ettiradi. Boshqa tomonidan, rasmiy nomenklaturasiz ham kadrlar siyosatini amalga oshirib bo'lmaydi, bunda qanday yo'l tutish mumkin.

Kasbiy faoliyatning samaradorligini shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda uning ruhiyati va jismoniy sog'ligi hamda holati, undagi mavjud sifatlarning bajarayotgan faoliyati talablariga mosligi darajasi tushuniladi. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko'p darajali va ko'rinishli tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rinn egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'likni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi.

Hozirgi zamon mutaxassisining kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik mutaxassisda odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o'zaro yaqin aloqalar xodimlar va rahbarlar bilan amaliy va shaxsiy o'zaro munosabatlarga tayyorligi va bunday o'zaro munosabatlarni o'rnata olishga va rivojlantirishga qodirligini ko'zda tutadi. Kasbiy faoliyat jarayonida muvaffaqiyatga erishishda mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari muhim rol o'yndi. Kasblarni psixologik tizimlash kasbga yo'naltirish ishlari uchun mo'ljallangan. Qayd etilganidek, kasblar olami juda keng bo'lib, unda 20 mingdan ortiq kasb va 40 minga yaqin mutaxassisliklar mavjud. Ularning turli belgilariga ko'ra tizimlash mumkin.

Kasbiy ta'lim iqtisodiyotning kasblarga bo'lgan ehtiyoji va tarqalganligi asosida o'quv yurtlarida mutaxassisliklarni tayyorlash uchun mo'ljallangan kasblarni tasniflashga muhtoj. Bu borada quyidagicha ish olib borilmoqda, 1987 yilda kasbiy texnologik ta'lim tizimida ishlarini rivojlantirish uchun navbatdagi kasblar ruyxati tasdiqlangan edi. Unga ko'ra, o'quv kasblarining umumiy soni 1123 tagacha qisqartirilgan edi. O'quv kasblarini loyihalashtirishda shaxs omili muhim hisoblanadi. Hammasi bo'lib 50 ga yaqin asosiy tasniflash ajratiladi. Har bir kasbiy faoliyat odatda 5-7 muhim kasbiy sifatlarni talab etadi.

3. Kasbiy shakllanish jarayonida shaxs taraqqiyoti.

Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. Insonlar orasida qiziqishlari tufayli kasb tanlovchilar ham bo'ladi va bu qiziqish kamdan-kam hollarda romantik xarakter kasb etadi. Tanlangan kasbi o'zi uchun qiyin bo'lib, ko'p hollarda turli to'siqlarni yuzaga keltiradi va ayrim hollarda o'z kasbini o'zgartirishiga to'g'ri keladi. Bunday hollarda kasb tanlash ko'pgina sharoitlarga bog'liq bo'lib qoladi. Lekin hammasidan oldin kasb tanlashga e'tiborni tortish kerak. Ko'pgina, tanlangan faoliyatlar insonning qobiliyat va moyiligiga muvofiq bo'ladi.

Malakali kadrlar tayyorlash tizimini uzlusiz ravishda rivojlantirish ehtiyoji va turli ishlab chiqarish sohalarida ko'p yillik ish stoji bilan faoliyat yuritayotgan shaxsning o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirmasligi shaxsni har tomonlama kasbiy faoliyatda o'zini namoyon qilishi muammosini yuzaga keltirdi. Bu muammolarni hal qilmasdan turib kelgusi kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatli sifatlari ta'limni va rejalashtirishni amalga oshirish mumkin emas. Bu muammoning amaliy ahamiyati uni turli fan doiralar qatorida psixologiya doirasida ham o'rganishni muhimligini ko'rsatib berdi.

Kasbiy shakllanish jarayonini o'rganishdagi qiyinchiliklar qobiliyatlar va kasbiy qobiliyatlarning ishni bajarishning muayyan bir usuliga asoslangan normativ faoliyatga yo'naltirilganligidadir. Shuning uchun ham kasbiy yetuklik darajasi ajratib ko'rsatilmaydi, balki faqatgina yosh xususiyati va mutaxassis sifatida yuritilayotgan vaqt inobatga olinadi. Shaxsning kasbiy shakllanishi masalasi ko'pgina mualliflar tomonidan tadqiq qilingan. Bu inson taraqqiyotida tez-tez uchraydigan jarayondir. Ko'pincha mutaxassis shaxsining to'la tahlil qilish tushib qoladi, shaxsning kasbiy shakllanish bosqichi esa hayot yo'li bosqichi bilan muvofiq tarzda ko'rib chiqiladi. Shuning uchun vaqt doirasida qatiy chegaralanib qoladi.

Shaxsning kasbiy kamoloti masalasi uning hayotida muhim o'rin tutadigan faoliyat yo'nalishidir. Bu faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlash va belgilash keng ko'lardagi shaxsiy muammolarni hal etishga olib keladi. Shunga ko'ra, quyidagi mulohazaga e'tibor qaratish ancha muhimdir.

Kasb tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari ustuvorligiga ko'ra munosibrog'ini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yo'nalganlikka nisbatan bir muncha murakkabroq jarayon. Chunki shaxsda kasbga xos xususiyatlar – muayyan kasbni egallashga tayyorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligini) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi. Shaxsning kasbiy shakllanishini boshqa vektori inson allaqachon o'zini "topganligi", uning o'zini va o'z faoliyatini o'zgartirishni istamasligi bilan yakunlanadi.

- **4. Kasblarning klassifikatsiyasi. Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallah.**

Professiografiyaning asosiy tamoyillaridan biri kasbiy faoliyatni o'rganishda differensial yondashuv tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati professiografiyaning aniq amaliy masalalarini yechishga bo'y sunishidir. Masalan, kasbiy konsultatsiya va kasbiy tanlov uchun shunday kasbiy muhim belgilarni ajratish kerakki, ular sinovdagilarning kasbiy layoqatiga ko'ra farqlanishi lozim. Malaka darajasini aniqlash uchun mehnat vazifalari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikma tavsifi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy toliqishni o'rganish uchun shunday belgilardan foydalanildiki, ular yordamida kasbiy toliqishning keltirib chiqaradigan omillarini aniqlaydi. Shunday qilib, professiografiyaning differensial tamoyili kasbning o'rganish usullarini uning tavsif, mazmuni, shuningdek, qo'llanilish sohasi ya'ni professiografiya o'tkazish xususiyatlari uning maqsadlari bilan belgilanadi. Maqsadlari quyidagi faoliyat sohalari bilan bog'langan bo'lishi mumkin:

- 1) Ishchilar attestatsiyasi.
- 2) Yangi kasblar mutaxassisliklarni loyihalashtirish.
- 3) Kasbiy ta'lim malaka tayyorgarligi va malaka oshirishni takomillashtirish.
- 4) Shaxs kasbiy rivojlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar.

Professiografiya natijalari professiogrammada aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchi huquq va majburiyatlar, muhim kasbiy sifatlari shuningdek, sog'lig'iga qarshi ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi - psixogramma bo'lib, u mutaxassisning motivatsion, iroda va emotSIONAL sohasining tavsifi hisoblanadi. Psixogramma - kasbning psixologik portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bo'lgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo'ladi.

Psixografiyalarni kasbga yo'naltirish uchun ishlab chiqayotganda kasbning umumiy professiografik va ijtimoiy-psixologik ta'siriga katta e'tibor beriladi. Mehnat sharoitlaridan texnik, texnologik va ijtimoiy psixologik sharoitlari ancha chuqurroq o'rganiladi. Tadqiqotlarning muhim yo'nalishi bu shaxsning qobiliyatları, psixofiziologik xususiyatlarını baholashdir. Professiogrammalarning kasbga yo'naltirish va kasbiy tanlov maqsadida ishlab chiqishda psixodiagnostik tadqiqotlar juda muhim hisoblanadi. Qolgan tadqiqotlar o'quv - kasb muassasalarida talabalar, o'quvchilarni o'qishga qabul qilinadigan shaxslar ishlashi lozim bo'lgan sharoitlarni aniqlash uchun ahamiyatga ega. Ammo ular ham muhim hisoblanadi, chunki aniq

majburiyatlarni va mehnat sharoitlarini bilmasdan, kasbga yo'naltirish, kasbiy yo'nalgaligini tashkillashtirish va kasbga nisbatan layoqatini aniqlab bo'lmaydi.

- E.M.Ivanova professiografiyaning 4 ta guruhini taklif etadi: ma'lumotli, diagnostik, prognostik va metodik. Informasion (ma'lumotli) professiografiya oktantlar, ya'ni, kasb tanlash zaruriyati oldida turgan shaxslar bilan kasbiy maslahat ishlari uchun mo'ljallangan. Ular qatoriga o'quvchilar, kasb bilim yurtlari bitiruvchilari, ishsizlar va kasblarni almashtirmoqchi bo'lganlar kirishi mumkin. Informasion professiografiya ishlari maxsus kasbiy adabiyotlarni tahliliy va hujjatlarni o'rganish orqali amalgalash oshiriladi.
- Pragnostik professiografiyalash genetik usullarni, shuningdek modellashtiruvchi eksperimentlarni qo'llaydi. Metodik professiografiyalash psixologga mehnat sub'ektining holati va muhim kasbiy sifatlarni o'rganish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot maqsadi va vazifalariga ko'ra metodik professiografiyalash sxemasi ham o'zgaradi. Masalan, kasbiy mehnat va hordiq tartibi, kasbiy toliqish, befarqlik, passivlikka bo'lgan ta'sirini o'rganishda shunday sxema qo'llaniladi. Bo'lajak mutaxassis shaxsida yangi a'zolari orasida, turli yoshdagagi kishilar bo'lgan jamoaga kirish, kasbiy faoliyatga ko'nikish, yangi ijtimoiy rolni tushunib olish yana muammolarni keltirib chiqaradi. Moslashuv bosqichiga kasbiy ijtimoiy yetuklik va ijtimoiylashuv shakli kiritiladi. O'zgargan kasbiy vaziyat yangi psixologik xususiyatlar va sifatlarning shakllanishiga olib keladi. Shaxs psixologik tuzilishidagi keskin o'zgarishlar kishining hayotini ham o'zgartiradi.

O'z – o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Kasblarni o'rganish metodlarini tavsiflab bering.
2. Professiografiya deganda nimani tushunasiz?
3. O'qituvchining kasb maorifi, kasbiy bilimdonligini tavsiflab bering?
4. Kasbiy shakllanish jarayonida shaxs taraqqiyotini izohlab bering.
5. Kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan nima uchun o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish kerak?
6. Yoshlarni kasbga yo'naltirish anketasini tasvirlab bering
7. Kasbning shaxs oldiga qo'yadigan talablari va ularning xususiyatlarini tavsiflang.

III. AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

1. Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing.

- a) _____ deganda kasblar va ularning bir – biridan farqlanuvchi ixtisoslar tomonidan inson oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi.
b) _____ - kasbning psixologik portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bo'lgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo'ladi.

MAZUGA OID NAZORAT TESTLAR

1. Berilgan jadvalda keltirilgan ta'lim turlarini mos raqamlar qo'yib tartib bilan yozing?

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi	Ta'lim turlari	Raqamlar
	Umumiy o'rta ta'lim	
	Maktabdan tashqari ta'lim	
	Oliy ta'lim	
	Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim	
	Maktabgacha ta'lim	
	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi	
	Kadrlarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash	

2. Nazariya va amaliyot shakllarini ajrating va mos raqamlarni jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.

1)aksioma; 2)yaratish; 3)teorema; 4)tajriba; 5)qonun; 6)kuzatish; 7)formula; 8)o'zgartirish; 9)grafik; 10)raqam.

Bilish pallasি	Javob raqamlar
Nazariya shakllari	
Amaliyot shakllari	

BESHINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: Ilk o'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari(4 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. Shaxs psixologiyasi va xarakterining yoshga bog'liqligi. Ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari.
2. O'smirlilik va o'spirinlik psixologiyasi. Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish
3. O'spirinlik ijtimoiy psixologik hodisa sifatida. Ilk o'spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari.
4. O'spirin yoshlarning jamoat ishlaridagi faollik va dunyoqarashining shakllanishi.
5. O'spirinlardagi attraksiya va emotsional munosabatlar.
6. O'qish va mehnat faoliyati xususiyati.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
7. *A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p*
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O'qituvchi», 1990.
13. *Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.*
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G'oziyev E.G., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. Shonazarov J.U. Kasbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil
19. www.edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif

Mavzu:Ilk o'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari

Reja:

1. Shaxs psixologiyasi va xarakterining yoshga bog'liqligi. Ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari.
2. O'smirlik va o'spirinlik psixologiyasi. Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish
3. O'spirinlik ijtimoiy psixologik hodisa sifatida. Ilk o'spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari.
4. O'spirin yoshlarning jamoat ishlaridagi faollik va dunyoqarashining shakllanishi.
5. O'spirinlardagi attraksiya va emotsional munosabatlar.
6. O'qish va mehnat faoliyati xususiyati.

Tayanch iboralar: Shaxs taraqqiyoti, davrlarga bo'lismi, o'smirlik, o'spirinlik, jismoniy va aqliy rivojlanish, attraksiya, simpatiya, sevgi, do'stlik, o'qish va mehnat faoliyati;

1. Shaxs psixologiyasi va xarakterining yoshga bog'liqligi. Ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari.

Shaxs individual taraqqiyotining muhim omillaridan biri uning yoshiga bog'liq bo'lgan xususiyatlaridir. Chunki, taraqqiyotning har bir yosh bosqichi o'zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga va o'zgarishlariga ega bo'lib, ular Shaxsning xarakteri, temperamenti, iqtidori va bilish jarayonlariga bevosita ta'sirini o'tkazadi.

Psixologiyaning maxsus tarmog'i - yosh davrlari psixologiyasining eng asosiy muammolaridan biri, aynan inson psixik taraqqiyotida qanday omillar - genetik, tug'ma yoki orttirilgan, ijtimoiy omillar roli yetakchi ekanligi masalasidir. Bolaning o'sishi o'zicha sodir bo'lmaydi - bola tug'ilish paytidan boshlaboq tashqi dunyo bilan, odamlar bilan, o'z atrofidagi hodisalar va avvalgi avlodlar yaratgan buyumlar bilan munosabat bog'laydi.

Psixologiyada shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lib o'rganishda turli xil qarashlar, bir qancha davriy sxemalar ham taklif etilgan. Bolaning kamolga yetishida har qaysi yoshga qarab o'sish davrida muayyan bir faoliyat hukmron mavqeni egallaydi, bu shunday yetakchi bir faoliyat bo'ladiki, buning rivojlanib borishi shu o'sish bosqichida bola shaxsining psixologik xususiyatlarida eng asosiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Davrlarga bo'lishga qaratilgan klassifikatsiyalarning o'zi ham ikki turda bo'ladi: juz'iy (alohida davrlarni yana qo'shimcha davrlarga bo'lish - «davrlar ichidagi davrlar») va umumiy (inson umrining barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan). Masalan, juz'iy klassifikatsiyaga J. Piajening intellektning rivojlanishini bosqichlarga bo'lishini kiritish mumkin.

Inson hayotining barcha davrini yaxlit tarzda qamrab olgan klassifikatsiyalardan biri butun jahon olimlarining qaroriga ko'ra, 1965 yili Xalqaro Fanlar Akademiyasining maxsus simpoziumida qabul qilingan sxema hisoblanadi.

Taraqqiyotni yosh davrlarga bo'lishda yana boshqa o'ziga xos klassifikatsiyalar ham bor. Masalan, bolaning yetakchi faoliyatiga, uning jamiyatdagi mavqeiga qarab, uning voqellikka munosabatiga, psixik va jismoniy o'sish xususiyatlariga qarab bolalar o'shining asosiy davrlari bir-biridan farq qilinadi:

1. Bola hayotining birinchi yilini o'z ichiga oladigan davri (tug'ilishdan boshlab 1-yoshgacha).
2. Maktabgacha tarbiya yoshi- 1 yoshdan 7- yoshgacha.
3. Maktab yoshidagi kichik bolalar- a)7- yoshdan 9- yoshgacha; b) 9- yoshdan 11- yoshgacha.
4. O'smirlik yoshi 11- yoshdan 15- yoshgacha.
5. Maktab yoshidagi katta bolalar, ya'ni dastlabki yigitlik (o'spirinlik) davri - 15 yoshdan 18 yoshgacha.

Har bir taraqqiyot davrini shaxs rivojlanishidagi muhim omil sifatida bilib, ularda bo'ladigan tabiiy o'zgarishlarni bilish va o'rganish kerak, chunki busiz Shaxs tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yib bo'lmaydi.

2. O'smirlik va o'spirinlik psixologiyasi. Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish

O'smirlik va o'spirinlik davrlari maktab va boshqa ta'lim maskanlarida o'qish davrlariga to'g'ri keladi. Bu davrdagi yetakchi faoliyat o'quv faoliyati bo'lib, unda bola bilim olishi bilan bog'liq malaka va ko'nikmalarni orttirishdan tashqari, shaxs sifatida ham muhim o'zgarishlarni boshidan kechiradi.

O'smirlik jismoniy yetuklik davri hisoblanadi. O'smirlik davri eng murakkab va muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o'smirlik 11-13 yoshni, katta o'smirlik 14-15 yoshlarni o'z ichiga oladi. Bu davrlarning eng muhim hislati shuki, u bolalikdan o'spirinlik, kattalikka, yoshlikdan yetuklikka o'tish davridir. O'smir jismoniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil jinsiy balog'at bo'lib, u nafaqat psixik balki ichki organlar faoliyatini ham belgilaydi.

O'smirlik davri qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Psixologlar bu davrni «tanazzullar - krezislar» davri ham deb ataydilar. Sababi - bola ruhiyatida shunday inqirozli holatlar ko'p bo'ladiki, buni bir tomondan o'zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan uni hal qilishga kuchi va aqli yetishmaydi. Masalan, «kattalik hissiga» to'sqinlik qiladigan omillardan biri - ularning o'z ota-onalaridan moddiy jihatdan qaramligi. Ruhan qanchalik o'zlarini katta deb his qilmasin, o'smir mакtabga ketayotib, onasi yoki otasidan pul so'raydi, ular esa bolaga bolalarcha munosabatda bo'lib, ozgina pul beradilar. Ko'pincha o'smir o'z imkoniyatlarini yuqori baholaydi, boshqalar esa uning kuchi, irodasi va salohiyatiga ishonchsizlik bilan qaraydi.

Maktab yoshidagi katta bolalar, ya'ni 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davr o'spirinlik davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'spirin kelajakka, istiqbolga nazar soladi, turli kasblarga qiziqa boshlaydi, ya'ni o'zining kelajakda kim bo'lishini tasavvur qila boshlaydi.

O'spirinlikning 16-17 yoshlarida qiziqishlarning shunday integratsiyasi ruy beradiki, ular avvalo jinsiy xususiyatlar va shaxsdagi individual xususiyatlar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Masalan, qizlar va o'g'il bolalar o'zlariga mos va yarashadigan kasb-hunarni tanlay boshlaydilar. O'spirinlik davrida yoshlarda gavda, qomatlar to'lishib, go'zallashib boradi. Muskullarning kuchi va ish qobiliyati ortadi.

Jinsiy yetilish asosan tugaydi. Umuman o'spirinlik jismoniy o'sishning tinch davri bo'lib, kishi a'zolarining o'sishi, takomillashishi nihoyasiga yetadi.

O'spirinlik faoliyatining asosiy turi - o'qish bo'lib qolaveradi. Bilimlarining hajmi kengayadi, bu esa hayot voqealarini, borliqdagi hodisalarni asoslashda tadbiq etish imkoniyatini yaratadi. O'spirin o'zining madaniy-ma'naviy saviyasini oshirishiga intiladi. U o'z ustida qunt bilan ishlaydi, radio, televideniya, barcha ommaviy axborot vositalaridan unumli foydalanadi. Ular hayot haqida (Shaxsiy turmush, sevgi, axloq-odob, hayotiy go'zallik kabi masalalar yuzasidan) fikr almashishga ishtiyoqmand bo'lishadi.

Xarakterli xususiyatlaridan yana biri - o'spirin o'ziga-o'zi baho berishga intiladi, unda xushmuomalalik, odoblilik va vazminlik kabi axloqiy sifatlar qaror topadi. Ayniqsa bo' davrda yoshlar Vatanga, xalqiga, jamiyatiga, insoniyatga xizmat qilish va foydali inson bo'lishni hayotining oliy maqsadi deb biladilar.

3. O'spirinlik ijtimoiy psixologik hodisa sifatida. Ilk o'spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari.

Har bir davrning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bu xususiyat shu davrda bolaga beriladigan ta'lim-tarbiyaning ham mazmuni, maqsad va vazifalarini belgilab olish imkonini beradi. Har bir davr uchun ham sog'lom turmush tarzini shakllantirish muammosi insoniyat va qolaversa, ota-onas, tarbiyachi va o'qituvchilar oldida turgan eng muhim muammolardan biri bo'lib qolaveradi. U o'zida jismonan sog'lom, aqlan barkamol yangi avlodni voyaga yetkazish, kishilarning mehnat qilishi, dam olishni va ijtimoiy faoliyat ko'rsatishni to'g'ri tashkil etishni, oqilona hayot kechirishni mujassamlashtiradi.

Ma'lumki, katta maktab yoshi yoki ilk o'spirinlik yoshi bolalarning 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi. Bu davr bolalik bilan yetuklik davri o'rtasidagi yoshning ikkinchi yarmi bo'lib, buni ikkiga:

1. Ilk yoshlik davri (15 – 17 – 18 yosh)
2. Keyingi yoshlik davri (18 – 25 yoshgacha) deb ajratiladi.

Ilk yoshlik davrida jinsiy balog'atga yetish tugallanadi, bo'yga o'sish sekinlashadi, eniga o'sish, og'irlik ortadi. O'quvchilarning tashqi qiyofalari o'zgarib, ularga kattalar xusni uradi. Kasb – hunar kolleji yoki akademik litseylarga kirib o'qishni boshlagan qizlar yetilib, ularda xarakterli psixologik sifatlar shakllanadi. Yigitlar esa voyaga yetgan erkaklardan hali farq qiladi. Qizlar yigitlardan ko'ra bir muncha ertaroq yoshlik davrini tez o'tkazadilar va ular voyaga yetadilar.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilar mustaqil hayot kechirish, ishlab chiqarishda mehnat qilish va oliy o'quv yurtida o'qish uchun yetarli bo'lgan g'oyaviy va ma'naviy yetuklik darajasiga erishadilar.

O'spirinlik ijtimoiy psixologik hodisaga aylanadi. O'spirin 16 yoshda mamlakat fuqorosi va 18 yoshda saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi va to'la huquqli fuqoro bo'lib qoladi. O'qishni bitirganlik haqidagi guvohnomani olish, mehnat qilish, dam olish, saylash va saylanish huquqiga ega bo'ladilar. Bular esa o'spiringa fuqoro sifatida ijtimoiy jihatdan voyaga yetishi, hayotda o'z o'rnini topishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi va yetuk shaxs sifatida ma'naviy o'sishi uchun shart – sharoitini yaratadi.

O'z – o'zini anglashning o'sishi:

Ilk o'spirinlik yoshidagi o'zgarishlar maktab, oila, shaxslararo munosabatlardagi mavqeyini yanada mustahkamlashining muhim omili hisoblanadi. Lekin yetakchi omil yuqori sinf o'quvchisi faoliyatining xususiyatini, mohiyati va mazmunidagi tub burilishdir.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning eng muhim xususiyatlardan biri bu ularni o'z-o'zini anglashidir. Bu yoshlarni o'z shaxsiyatining ma'naviy psixologik fazilatlarini faol ijtimoiy turmush tarzinining maqsad va vazifalarini anglashni, ularni oqilona baholashni aks ettiradi. O'spirinlar o'z shaxsiy fazilatlarini, hulq atvorlarini, aqliy va mehnat faoliyatini tahlil qilishda qiyosiy baholash kuchayadi. O'z – o'zini anglash hayot va faoliyat talablaridan kelib chiqadi. Chunki yoshining ortishi bilan o'z shaxsini o'z xatti - harakatlari va faoliyatlarini mustaqil tahlil qilish va baho berish esa xamisha tashqaridan berilgan bahoni anglashdan ko'ra qiyinroqdir.

O'spirinlar o'zlaridagi nomoyon bo'ladigan sifatlarnigina (mehnatsevarlik, serhafsalalik) emas, balki shaxsning sifatlarini, munosabatlarni xarakterlovchi ancha murakkab sifatlarini (burch hissi vijdon hissi.....) anglashga qodirlar. Ilk o'spirinlik davri emotSIONAL hayotga boy davrdir. Bu yoshda balog'atga yetganlik tuyg'usi o'ziga xos xusuiyatga ega. Bu tuyg'u chuqurroq va jiddiyroq bo'lib qoladi. O'spirinlar hayotida ma'naviy hislar ayniqsa katta o'rIN egallaydi. Yoshlarning aloqa doirasini kengayishi va ularda ijtimoiy masalalarga qiziqishning o'sishi tufayli ahloqiy hislar ularning hayotida katta o'rIN oladigan bo'lib qoladi.

4. O'spirin yoshlarning jamoat ishlaridagi faollik va dunyoqarashining shakllanishi.

O'spirinlarning kamol topishida asosiy rol o'ynaydigan vositalaridan biri jamoatchilikdir. Bola jamoat ishida o'sadi va binobarin jamoada tarbiyalanadi.

Jamoat va jamoatchilik (maktab, mahalla va.....) bolada qiyinchiliklarni engishga, dangasalik va maqtanchoqlikni, qo'r quoqlik va ikki yuzlamachilikni bartaraf etishga o'rgatadi. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning o'z jamoasi biror kamchiliklarni ochib tashlab, unga qarshi yakdillik bilan kurashsa, o'sha kamchilikni albatta tugatadi, bu jamoaning har bir a'zosida zo'r tarbiyaviy ta'sir qoldiradi, jamoa fikri bu jamoaning biror o'quvchisining kamchiligi ustidan bahosi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. O'spirinlar o'z jamoasining fikrini yaqindan e'tiborga oladi. Shuning uchun jamoatchilik ichidagi o'zaro to'g'ri munosabatlar, jamoatchilikning o'quvchi oldiga to'g'ri talablar qo'ya bilishi shaxsning kamolga yetishidagi asosiy faktorlardan biri hisoblanadi.

Jamoatchilik va atrofdagi kishilarning xatti – harakatiga taaluqli ahloqiy masalalarni muxokama qilish, oilada mактабда, mahallada ko'rsatiladigan doimiy ahloqiy ta'lim – tarbiyaviy ta'sir, siyosiy bilimlarni egallah ahloqiy tushunchalarni shakllantiradi. Jamoatchilikni faolligi o'spirin hayotini mazmunan boyitadi va u yoshlarda e'tiqod va dunyoqarashni shakllantiradi.

Hayot rejalari va kasb tanlash

O'smirlarda "kattalik" tuyg'usining vujudga kelishi ularni kelgusi mustaqil hayotga taylorlanish lozimligini talab qiladi. Ularning hayot rejalari va kasb tanlashi yoshlar oldida asosiy muammoga aylanadi. Kelgusi hayotni qanday rejalahtirish, qanday kasb tanlashga aniq bir fikr bildirishga qiynalib qoladilar va kasb tanlash

davrda to'g'ri yo'l tutishni bilmay dovdirab qoladilar yoki tavakkaliga ish ko'radilar. O'zlarining imkoniyatlarini hisobga olib harakat qilishga ojiz bo'ladilar. Natijada noxush kechinmalar umidsizliklar, ijtimoiy sustlik faoliyatları vujudga keladi.

Kasb tanlashga ta'sir qiluvchi omillardan biri oilaning moddiy shart – sharoiti, o'qish joyining uyidan uzoqligi, o'quv tayyorgarlikni saviyasi, emotsiyal yetuklik, sog'liqning turlicha bo'lishidan iborat. Bular ham yoshlarni kasb tanlashiga hayotiy yo'lini belgilab olishiga ta'sir qiladi. Ammo shunga qaramay, o'quvchilarning qiziqishlari, mayllari intilishlari, qobiliyatları, ist'edodlari asosida tanlanilgan kasblariga to'g'ri yo'nalish o'spirinlar uchun hayotiy masalalardir.

Kasb tanlash jarayonida o'spirinlarga o'qituvchilar, ota – onalar, jamoatchilik, o'z kasbining ustalari katta e'tibor berishlari lozim. Har bir tanlangan kasbning o'ziga xos motivlari bo'lishi va uni o'quvchi tomonidan asoslanishi maqsadga muvofiqdir. Hammadan muhimi shundaki, o'quvchi kasbining yaxshi – yomoni bo'lmasligini tushunishi, har bir kasb ham Vatanimiz ravnaqi uchun zarurligini bilishi lozim.

5. O'spirinlardagi attraksiya va emotsiyal munosabatlar.

O'smirlik va o'spirinlik davri kasb tanlash davri bilan birga, yoshlarning o'zligini anglash, o'z qadr-qimmatini bilish va boshqalarga munosabatda bo'lish tajribasini egallash davri hamdir Boshdan kechirayotgan his-tuyg'ularini anglab yetishi mahorati ham rivojlanadi.

O'spirinlar uchun o'rtoqlik hissining rivoj topishi xarakterlidir. Ancha keng xarakterga ega bo'lgan o'rtoqlik hissi bilan birga shaxsan do'stona munosabatda bo'lish hissi ham rivojlanadi. O'rtoqlarga munosabat o'zgaradi. Dilkashlik qilish ehtiyoji seziladi. O'spirin qancha ichki ruhiy iztirob, qarama-qarshilik, ma'suliyat onlarini boshidan kechirmasin, uning emosional olami, atrof – muhitda ro'y berayotgan hodisalarini ongida aks ettirishi katta o'rin tutadi. Bu davr bola qalbida kim bilandir sirlashish, kimlarni o'ziga eng yaqin kishi sifatida tan olish, uni ruhiyatida kechayotgan barcha o'zgarishlardan voqif bo'lish istagi va ehtiyojini uyg'otadi. Birinchi marta "**do'stlik**", "**muhabbat**", "**sevgi**", tushunchalari shu davrda paydo bo'ladi. Bu taraqqiyot davri "attraksiya" deb atalmish hissiyotning paydo bo'lishi uchun eng maqbul davrdir. (Attraksiya lotincha so'z bo'lib – yoqtirish, o'ziga jalb etish). **Attraksiya** – bir insonning boshqa bir insonga ijobiy munosabati asosida yoqish va yoqtirish, o'zaro moyillikni tushuntiruvchi emotsiyal hisdir. Bu har bir odamda boshqa bir odamga nisbatan shakllanadigan ijtimoiy ustanovkaniig bir ko'rinishi bo'lib, "simpatiya – yoqtirishdan" tortib to sevgi muhabbat kabi chuqr emotsiyal bog'liqlik ham shu his asosida paydo bo'ladi.

O'smir va o'spirinlik yoshi davrida do'stlik quyidagi xususiyatlar bilan farqlanadi:

1. O'spirinlarda do'stlik motivlari ancha barqaror bo'ladi.

2. Bu his ancha sermazmun bo'lib, qiziqishlari va faoliyatining juda keng doirasini qamrab oladi.

3 Do'stlik ancha emotsiyal yaqinligi ma'nosidagina emas, balki bir- biriga dilkash bo'lish qobiliyati ma'nosida ham, ya'ni do'sti kechirayotgan hislarga javob bera olish qobiliyati ma'nosida ham emotsiyal bo'ladi.

Katta maktab yoshida birinchi marta alohida bir his sevgi paydo bo'ladi. Bu o'spirin hayotining yangi bir holati bo'lib, u chuqr kuchli, haqiqiy his sifatida

nomoyon bo'ladi. **Sevgi**- bu nafaqat hissiyot, balki boshqalarni seva olishi qobiliyati hamda sevimli bo'la olishdir. Aynan ilk o'spirinlikdagi sevgi beg'ubor, tiniq, samimiylib, yoshi o'tgani sari uning mazmuni boyib, boshqa qadriyatlar ham o'rin egallay boshlaydi. Haqiqiy sevgi esa o'spirinlik yillarida paydo bo'ladi. Uning asosiy mazmuni endi tashqi belgi va afzalliklari emas, balki insoniy fazilatlar bo'lib hizmat qiladi.

Sevgi shunday tuyg'uki, u bir shaxsning ikkinchi shaxs ustidan mutlaq ustunligini inkor etadi. Bunday hissiyot sevgi bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'spirinlik yoshidagi yigit va qizlar guruhda muloqatda bo'lishni va bunda teng huquqli munosabatlar bo'lishini xohlaydilar. Bu talab sevishganlar uchun qonun hisoblanadi. Ayniqsa yoshlardan o'zining sevgi haqidagi fikrlariga kattalarning aralashuvini yoqtirmaydilar. Shuning uchun yoshlarning sevgisiga aralashish lozim bo'lgan kishilar odobli va mulohazali bo'lishlari lozim. Chunki yoshlarga sevgilisining kamchiligi ko'rsatilganida ularni ko'pchiligi ozor topadilar, ularni yomon ko'radilar. **Xatto ularni dushman deb biladilar.**

Sevgi yoshlardan hayotida katta rol uynaydi. Chunki yoshlardan sevgisi shaxsiy sifatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Bu esa kattalarda juda katta ehtiyyotkorlikni va sezgirlikni talab qiladi.

O'spirinlik yillaridagi sevgi va muhabbat hissi nafaqat qarama - qarshi jinslarga qaratilgan bo'ladi, balki ota-onani qadirlash va ularga nisbatan segi-muhabbat, yaqinlar aka-uka, opa-singil, hayotda iborat bo'ladigan kishilarni yaxshi ko'rish, Vatanni sevish kabi oliy hislar ham tarbiyalanadi.

6. O'qish va mehnat faoliyati xususiyati.

O'spirinlik davrida bilishga qiziqish amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Bu qiziqish ijtimoiy-siyosiy masalaga, texnikaga, tabiatga, jamiyatshunoslikka, huquq muammolariga yo'nalgan bo'ladi. Katta talabalarda sezgirlik, kuzatuvchanlik takomillashib boradi, mantiqiy xotira, eslab qolishning yo'l va vositalari esa ta'lim jarayonida yetakchi rol o'ynay boshlaydi. O'spirinlar topshiriqlarni bajarishda, ularning ma'nosini hamda mohiyatini to'la anglab ish tutadilar, eslab qolish, esga tushirish jarayonining samarali usullaridan unumli foydalanadilar. Tafakkurlari esa mustaqil, ijodiy va faol xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin ularning fikr yuritishlarida birmuncha ob'ektiv va sub'ektiv kamchiliklar uchraydi. Bu jarayon muvoffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlovchi diqqatning sifati va miqdorini o'zgartiradi.

O'quvchilarning aqliy qobiliyatlari shakllanishida mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish, munozara qilishga moyillik katta ahamiyatga ega. Unda asta – sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarashlari shakllanadi.

Ilk yoshdagi o'quvchilarida o'qish faoliyati mehnat faoliyati bilan birga olib borilishi lozim. Agar o'smir faqat o'qish faoliyati bilan, maktab doirasidagi faoliyat bilan shug'ullansa, katta maktab yoshidagi o'quvchilarning faoliyati maktab doirasidan chiqa boshlaydi. U endi oilada, maktabdan tashqarida mustaqil mehnat qila boshlaydi. O'quv maskanlarida esa jamoa ishini bajaradi. Lekin bola qayerda bo'lishidan qat'iy nazar u oiladami, maktabdamini albatta qandaydir mehnat bilan band bo'lishi maqsadga muvofiq.

O'quvchi "mustaqil mehnat qilish " jarayonida yangi tuyg'ular, mehnatdan quvonish, yaratilgan narsa bilan faxrlanish, erishilgan g'alabadan qanoat hosil qilish

tuyg'usi vujudga keladi. Bu esa yanada faolroq mehnat qilishga ehtiyojni paydo qiladi. Katta o'quvchilar Respublika miqyosida bo'ladigan shanbaliklarda, maktab maydonchalarida, xiyobonlarni obodonlashtirishda bajonu-dil ishtirok etadilar, ularga jiddiy yordam ko'rsatadilar, maktab huzuridagi tajriba uchastkalarida ishlaydilar. Bunda maktab rahbarlari, o'qituvchilari ularning ishlariga ijobiy boho berishlari lozim bo'ladi.

O'quvchilar mehnatini tarbiyalovchi mehnatga aylantirishning zaruriy sharti uni tashkil etishni "jamoa shaklidir". Jamoa bo'lib mehnat qilish o'quvchi shaxsini shakllanishida alohida ahamiyatga ega. Chunki jamoa mehnati o'quvchilarning mehnatda hamkorlik va o'zaro yordam ko'rsatish tajribasini, bir-birini nazorat qilish tajribasini hosil qilishlariga imkon beradi. Ayniqsa, o'quvchilarni "mustaqil mehnat" qilishga o'rgatishga alohida e'tibor berish lozim. Mustaqil mehnat bajarish va uni qilishga o'rganish mehnat hayotiga o'tish istiqbolining ta'siri ostida katta maktab yoshi uchun xarakterli bo'lgan, kelajak maqsadlari sari yo'nalishni tarkib topishga zamin bo'ladi.


O'z – o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lishning mazmun-mohiyatini izohlab bering?
2. Davrlarga bo'lishga qaratilgan klassifikatsilarning necha turi farqlanadi?
3. Inson taraqqiyotining eng murakkab davri qaysi yosh davri hisoblanadi?
4. Shaxs taraqqiyotining o'smirlik davri qachon uning o'ziga xos xususiyatlarini aytинг.
5. O'spirinlik davri bola yoshining qaysi yoshlarini o'z ichiga oladi?
6. Attraktsiya va emotsional munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
7. Simpatiya nima?
8. O'smirlik va o'spirinlik davri kasb tanlash davri bilan birga yana qanday xususiyatlarga ega?
9. Ilk o'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlarini tavsiflab bering?

III. AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISHDA INNOVATION TA'LIM TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

1. "Nima uchun" sxemasi

1-topshiriq:O`smirlik va o`sprinlik davrlari shaxs taraqqiyotida muhim o`rin egallaydi.



2 - topshiriq:Keys № 1 vaziyat.

Kech soat 23⁰⁰ bo'lishiga qaramay, qizi hali kelgani yo'q. Ona juda besaranjom bo'lmoqda, uning barcha sinfdoshlari, qarindosh-urug'lariga qo'ng'iroq qilib ko'rdi. Qizi hech qaerda yo'q. Ona o'zini qaerga qo'yishni bilmaydi.

Nigora yarim tunda uyga xursand holda kirib keldi.

— Qaerda daydib yuruvding? Uyga bunday kech kelishga kim ruxsat berdi? Kollejning 3-bosqichida bo'lsang, o'zingni bo'yи etgan deb hisoblaysanmi?... Qaerlardadir sang'ib yurgandan ko'ra, o'qisang bo'lar edi! — yurakdan gapirdi ona.

— Oyi, namuncha bezovta bo'lmasangiz, men Alisher bilan, uning kollejidagi diskotekada bo'ldim, — deb o'zini himoya qildi qizi.

— Qanday yana Alisher bilan? Mana bu bilanmi? — u Nigoraning kundaligidan bolaning rasmini oldi. — Bitiruv imtihonlari oldidan xursandchilik qilib yurishni men senga ko'rsatib qo'yaman! — qichqirdi ona va g'azab bilan Alisherning rasmini yirtib tashladi.

— Nima qilib qo'ydingiz? — o'z navbatida qichqirdi Nigora va xonadagi rasm bo'laklarini to'plashga otildi. Rasm bo'laklarini yig'ib olgan Nigora, ko'z yoshi bilan xonasiga kirib, eshikni yopib oldi.



Keys bo'yicha savol va vazifalar:

1. *Ona va qizning muloqotini tahlil qiling.*
2. *Ona va uni qizining xulq-atvori hamda harakatlariga baho bering.*
3. *Oiladagi keskinlikni yumshatish uchun nima qilish kerak?*
4. *Bolalar (o'g'il va qizlar)da dastlabki muhabbat tuyg'usi paydo bo'lganda ota-onalar ular bilan qanday munosabatda bo'lishlari kerak?*

OLTINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: Talabalar psixologiyasi va o'quv faoliyati (2 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. Ta'lim jarayoni mohiyati va uning ikki tomonlama xususiyati.
2. Talabalarning psixologik xususiyatlari.
3. Talaba shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini. Talabalar tafakkurining xususiyatlari
4. Ta'lim jarayonida talabalarning aqliy rivojlanishi

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
7. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O'qituvchi», 1990.
13. Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G'oziyev E.G', Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. Shonazarov J.U. Kasbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil
19. www. edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif

Mavzu:Talabalar psixologiyasi va o'quv faoliyati

Reja:

1. Ta'lim jarayoni mohiyati va uning ikki tomonlama xususiyati.
2. Talabalarning psixologik xususiyatlari.
3. Talaba shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini. Talabalar tafakkurining xususiyatlari
4. Ta'lim jarayonida talabalarning aqliy rivojlanishi

Tayanch iboralar:ta'lim jarayoni, bilish, nazariya, amaliyat, o'qituvchi, o'quvchi-talaba psixologiyasi, talaba shaxsi, aqliy rivojlanish;


1. Ta'lim jarayoni mohiyati va uning ikki tomonlama xususiyati.

Mustaqil Respublikamizda **1997 yil 29 avgustda** Oliy Majlisning 9-sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilishi ta'lim-tarbiya soxasida muhim o'zgarishlar va tub islohatlarning o'tkazilishiga asosiy omil bo'ldi. Shu boisdan bugungi kunda ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatini yaxshilash, shakllantirish, o'qitish tizimini yaxshi yo'lga qo'yish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga erishilmoqda.

Bilish ikki pallaga – nazariya va amaliyatga bo'linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har xil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, qonun, formula, grafik, raqam va shu kabilar. Nazariyada g'oya shakllanadi. Amaliyat bilimlarning haqiqiyligini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba, o'zgartirish, yaratish, - bular amaliyat shakllariga kiradi.

Jarayon – bu lotinchadan olingan bo'lib, oldinga harakat qilish tushuniladi. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi.

Ta'lim jarayoni - o'quvchi (talaba)ning bilmaslikdan bilishga tomon, oddiydan murakkabga tomon, uncha to'liq bo'limgan bilimdan ancha to'liq, aniqroq va chuqurroq bo'lgan bilim tomon sodir bo'ladigan jarayondir. Bu o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi. O'qituvchi bilim egallash yo'llarini o'quvchi-talabalarga ko'rsatadi, ya'ni kishilik jamiyati tomonidan bor, hamda bunday bilimlarga ega bo'limgan bola ongida vositachilik qiladi. Ta'lim jarayoni ikki faoliyat - o'qituvchi va o'quvchi (talaba) larning birgalikdagi faoliyatini o'z ichiga oladi. Demak, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega, chunki unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi qatnashadi. Ta'lim jarayoni (o'quv jarayoni) quyidagi tuzilishga ega:



Ta'lim jarayonida fanning eng zaruriy, eng muhimlari asosi o'r ganiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchiga bilim berar ekan, uni soddadan murakkabga, umumiydan

xususiyga yetaklaydi, xulosalar chiqarishga, hayotda ishlab chiqarishda qullay bilishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida ana shu ikkala tomon yaxshi qatnashmasa ta'lim jarayoni yaxshi natijaga erishmaydi. Chunki o'qituvchi ham, o'quvchi ham ta'lim jarayonining asosiy tarkibi hisoblanadi. Shu boisdan ta'lim jarayonida bu ikki tomonidan bittasi, ya'ni o'qituvchi yoki o'quvchi qatnashmasa ham ta'lim jarayoni amalga oshmaydi.

2. Talabalarining psixologik xususiyatlari.

Tadqiqotlarda talabalar deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikkaoid rollarni muyyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlayotgan ijtimoiy guruhi tushuniladi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'zigaxos xususiyatlari talabalarining boshqa ijtimoiy guruhlari bilan (ular xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrinint asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy yetuklikning jadal surat bilan ro'yobga chiqishidir. Talabalik davri o'spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib, 17-22-25 yoshni o'z ichigaoladi va o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Shu boisdan o'o'spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasb mavqeini anglashidan boshlanadi. Mazkur pallada o'spirinlik o'zigaxos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, jumladan, kattalarning har xil ko'rinishdagi (unga yoqish yoki yoqmasligidan qat'iy nazar) rollarini te'z sur'atlar bilan bajarib ko'rishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlariga ko'nika boshlaydi. Kattaodamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog'lik ichki qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Pedagogik psixologiya fanida ma'lumki, o'rta maktab o'quvchilarni har (biologik, fiziologik, pedagogik; psixologik) jihatdan oliy maktab ta'limiga tayyorlaydi va ularda umumlashtirish, mavhumlashtirish, sistemalashtirish kabi qobiliyatlarda ko'rindigan fazilatlar namoyon bo'ladi. Shu bilan birga o'spirindaqiliy, axloqiy, estetik va g'oyaviy-siyosiy jihatdan muayan darajada o'sish ro'y beradi. Shunga qaramay, ular oldidaoliy o'quv yurtida mutaxassislikni egallashga bog'liq yangi vazifalar paydobo'ladi.

Talabalarga mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarpsh, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va hokazolarni o'rgatiladi. Bu vazifalarni amalgaoshirishnint asosiy omili - monologik ma'ruzadan dialogik (talaba va o'qituvchining muloqotigaasoslangan) ma'ruzaga o'tishdir.

Psixologlardan B. G. Anan'ev, N. V. Kuz'mina, N. F. Talizina, I. S. Kon, A. A. Bodalev, A. V. Petrovskiy, M. G. Davletshin, A. V. Dmitrieva, Z. F. Esareva va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish talabalar uchun judaog'ir kechadi, chunki bu davrda shaxsinig murakkab fazilatlari, xislatlari, sifatlari takomillashish bosqichida bo'ladi. Mazkur yosh davridagi ijtimoiy-psixologik o'sishning xususiyatlaridan biri o'qish faoliyatining ongli motivlari kuchayishidir. Talabalardaaxloqiy jarayonlarning o'sishi sust amalgaoshsada, lekin xulqining eng muhim sifatlari - mustaqbillik, tashabbuskorlik, topqirlilik, farosatlilik va hokazolar takomillashib boradi. Shuningdek ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalgaoshirishga intilish tobora kuchayadi.

O'spirinlikning ikkinchi davri hulqqa, voqelikka baho bo'qishda imkoniyatidan tashqari talab qo'yish va qat'iylik xususiyati bilan farqlanadi. Shuning uchun talabalar har doim prinsipial bo'laolmaydilar.

3. Talaba shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini. Talabalar tafakkurining xususiyatlari

Yoshlarning kamol topishida har xil ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'zigaxos qarama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Ularning moddiy jihatdan ota-onaga, oliy

o'quv yurti ma'muriyatiga bogliqligi iqtisodiy ziddiyatni keltirib chiqaradi. Bu hol talabalarning xohishlari bilan mavjud imkoniyatning nomutanosibligi tufayli sodir bo'ladi. Odatda talabalar II va III kurslardaoliy o'quv yurti va mutaxassislikni nima uchun tanlagani haqida yana jiddiy o'ylaydilar. Mazkur yosh davrida o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari, ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajriba o'lashtirilgan bilimlarni tartibga solish asosida his tuyg'ular, qarashlar, axloqiy qadriyatlar, o'zligini anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi. Talaba hukm vaxulosa chiqargach, o'z xatti-harakatida qat'iy turib ularni himoya qiladi, u hayotning turli sohalari bo'yichahar xil darajadagi ko'nikma va malakalarga nazariy bilimlar ijtimoiy-psixologik tushunchalarini amaliy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozir psixologiyada talaba shaxsini o'rghanishning qator uslublari ishlab chiqilgan. Quyida ana shularnang ayimlariga to'xtalamiz.

Talabalik yillarida yoshlar biologik jihatdan barkamollik, ijtimoiy nuqtai nazardan yetuklik, jismoniy baquvvatlik bosqichiga ko'tariladi. Ammo ilk o'spirinlik (16—17 yoshli)ning ayrim bolalargaxos xulq-atvorning tashqi ifodalar, romantikasi ma'lum davrgacha o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Oliy maktabdag'i dastlabki sinov (birinchi sessiya) davridagidek talaba turmush faqat romantikadan iborat emasligiga, balki izlanish, irodaviy zo'r bo'qish, aqliy mehnat zahmati orqali O'zgu niyatga yetishish mumkinligiga iqror bo'ladi. Favquloddagi taassurotdan, ijtimoiy sinovdan keyin o'qishga, turmushga, insonlarga nisbatan munosabatni jiddiy ravishda o'zgaradi, narsa va hhodisalarga, ijtimoiy hholatlarga voyaga yetgan katta kishilardek muomala qilishga, voqelikni to'g'ri, oqilona (adekvat) aks ettirishga, tushunib yetishga harakat qiladi.

Talabalarda tafakkurning rivojlanishida, ilmiy dunyoqarashning shakllanishida umumta'lim va ijtimoiy fanlar, jumladan, tarix, falsafa, mantiq, iqtisodiy nazariya asoslari, madaniyatshunoslik, adabiyot, etika, estetika, psixologiya, pedagogika kabi o'quv predmetlari muhim rol o'ynaydi. Talabalar tafakkuri, asosan, o'qish, amaliy mashg'ulot va mustaqil bilim olish faoliyatlarida jadal va uzlusiz ravishda rivojlanadi.

Ta'lim jarayonida fikr yuritish operatsiyalaridan unumli foydalanish evaziga har qanday murakkab bilimlarni egallash imkoniyati vujudga keladi. Talabalar tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish)ning funksional va operatsional jiqatlari bilan yaqindan tanishadilar, shuningdek ulardan mustaqil foydalanish uchun barcha intellektual re'zervlarni (aqliy zaxiralarini) ishga solishga harakat qiladilar. Hukm chiqarishning barcha (yakka, xususiy, umumiy, ziddiyatli, faraziy, inkor) ko'rinishlardan o'quv va mustaqil bilim olish faoliyatlarida foydalanish shart-sharoitlari tugiladi. Xulosa chiqarishning induktiv (xususiydan umumiya fikrning yo'nalganligi) va deduktiv (umumiyan xususiy hollarga fikrning qaratilganligi) yo'llardan muayyan tarzda bilish faoliyatida qo'llashga intaladilar. Tushunchalar (yakka, xususiy, umumiy, yaqqol, mavhum) mohiyatini anglagan holda ma'lumotlarni egallash bilimlarning barqarorligini ta'minlaydi. Bu narsalarnang barchasi tafakkurni rivojlantirishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Hozirgi zamон talabalarining ijodiy tafakkur orqali vujudga keltirgan badiiy asarlari, maqolalari, ilmiy chiqishlari, ishlab chiqarishga taqdim qilingan ratsionalizatorlik takliflari xalq xo'jaligini yuksaltirish, mustaqil respublika fan va texnikasini ravojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish uchun xizmat qilmoqda. Eng yuksak saviyada tayyorlangan diplom ishlari va loyihalari talabalar ijodiy tafakkurini namunalari hisoblanadi, shu boisdan ularning ilmiylik darajasi yuqori bo'lganlari nomzodlik dissertasiyasiga taqdim qilinmoqda.

4. Ta'lim jarayonida talabalarining aqliy rivojlanishi

Aqliy rivojlanish – bu ta'limning mazmunini faol idrok qilish orqali uqib olish; ularni tezlik bilan mnemik yo'llar asosida xotirada qoldirish, fikr yuritish jarayonlari orqali

uni qayta ishlab chiqishning rivojlanishidir. Ya'ni bu – umumiyl intellektni rivojlanishidir. Bu shunday faoliyatdirki o'qishdagi muvaffaqiyat ana shunga bog'liqdir.

Aqliy rivojlanish avvalo ta'lif jarayonida aql sifatlarini (mustaqillik, izchilllik, pishiqlik, tanqidiylik va h.z.) o'z ichiga oluvchi umumiyl aqliy qobiliyatlar o'quvchining nazariy bilim va amaliy faoliyat imkoniyatlarini xarakterlab beradi (N. S. Leytes).

Aqliy taraqqiyot tafakkurning mustaqilligi, o'quv materialini o'zlashtirish tezligi, murakkab materiallarni hal qilishda aqliy chamlashning tezligi, o'rganib chiqiladigan materialning mohiyatiga chuqur kirib borish, aqlning tanqidiyligi aqliy taraqqiyot mezoni hisoblanadi. Aqliy taraqqiyotda mavzu mazmunini idrok qilish tezligi bilan umumlashtirishning tezligi muhimdir. Bu esa ta'lif jarayonida o'quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini belgilaydi.

O'quv holatlarining turlari.

Pedagogik psixologiya o'quv holatlarining asosiy shakllarini o'yin, taqlid qilish, mehnat, takrorlash va yod olish, sinab ko'rish va xatolarni aniqlash, mashqlanish va o'quv vazifalarini hal qilish, mustaqil fikrlash, shuningdek, hissiy aloqa qilish, narsalarni qo'l bilan harakatga keltirish, rolli o'yinlar, o'quv – professional faoliyat kabilalar bilan belgilaydi. Bularning hammasi ta'lifni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga, o'rganish faoliyatini yengillashtirishga, yangi bilimlar haqida chuqur tasavvurlar qoldirishga, ularni xotirada uzoq vaqt saqlab turish va kerak vaqtida esga tushirishga yordam berishda asosiy faktorlardan hisoblanadi. Jumladan, o'yin bolalarning ijodiy faoliyati bo'lib, u atrof hayotdagi voqelikni aynan o'zidagidek emas, balki uni o'zicha aks ettirish, ba'zi narsalarni o'zgartirish, o'zicha o'ylab chiqarish jarayonidir. Bolalar o'yinlarda xayol qiladi, ijod etish elementlari ko'rindi, fikr yuritadi, ularni o'z nutqida bayon etish orqali rivojlanadi.

O'qish faoliyati jarayonida o'qish, o'rganish motivi o'zgaradi va tarkib topadi. O'qish faoliyatining dastlabki yillarida o'quvchi, uyda uni urishmasliklari uchun yaxshi baho olish maqsadida o'qishi mumkin. Lekin o'rta maktab yoshlarida o'quv predmetlariga differensial qiziqish yuzaga keladi va natijada o'smirlarda bilishga bo'lgan qiziqishlarni qondirishga qaratilgan bilimlarni egallash motivlari paydo bo'ladi va u ijtimoiy motivlarga aylanadi.

O'quv faoliyati motivlarini mazmun jihatidan takomillashib borishi o'quvchini fan asoslarini chuqurroq, mukammalroq o'zlashtirishiga sabab bo'ladi. O'qishga qiziqishni barqarorroq bo'lishiga va hatto kelgusi hayot rejalarini tuzishga, kasb tanlashga undaydi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:


1. Ta'lif jarayonining ikki yoqlama xususiyati (xarakteri) deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida»gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilingan?
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturing maqsadi nimalardan iborat?
4. Hozirgi zamon ta'limi qanday talablarga javob berishi kerak?
5. Ta'lifni ijodiy o'zgartirish qanday faktorlarga asoslanadi?
6. Talabalarni ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tavsiflab bering?
7. Aqliy rivojlanish deganda nimani tushunasiz?
8. Aqliy rivojlanish qanday faoliyat hisoblanadi?
9. Aqliq qobiliyatlar haqida qaysi pedagog olimlar o'z asarlarida fikr bildirgan?
10. Asosan aqliy rivojlanish nimag bog'liq, u qanday shakllanadi?

III. AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. NAZORAT TESTLARI

1. Darsning asosiy maqsadlari jadvalning qaysi qatorida to'g'ri keltirilgan bo'lsa «+», noto'g'risiga «--» belgisi bilan belgilang?

№	Darsning maqsadi	Qatorlar
1.	o'quvchilarni o'ziga ishontira olish muloqatiga tez kirishish;	
2.	bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;	
3.	Ta'limiylar, tarbiyaviy	
4.	Rivojlantiruvchi	
5.	Yo'naltiruvchi, aqlni shakllantiruvchi, ilmiylar	

2. “Qanday” texnikasi asosida darsning maqsadlarini izohlab bering?



YETTINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: Rivojlantiruvchi o'qitish (2 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. O'qitish (pedagogik) texnologiyasi va uning psixologik xususiyati
2. Ta'lif mazmuni va uni ifodalovchi hujjatlar
3. Ta'lif metodlari va ularning tasnifi
4. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning tashkiliy shakllari

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
7. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O'qituvchi», 1990.
13. Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G'oziyev E.G', Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. Shonazarov J.U. Kasbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil
19. www.edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif

Mavzu:Rivojlantiruvchi o'qitish

Reja:

- 1.O'qitish (pedagogik) texnologiyasi va uning psixologik xususiyati
 2. Ta'lif mazmuni va uni ifodalovchi hujjatlar
 3. Ta'lif metodlari va ularning tasnifi
 4. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning tashkiliy shakllari

Tayanch iboralar: o'qitish, o'qish, talaba psixologiyasi, ta'lif mazmuni, o'quv rejasi, dastur, darslik, ma'ruba, amaliyot, metod, dars, oliv ta'lif va h.k.

1.O'qitish (pedagogik) texnologiyasi va uning psixologik xususiyati

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'ldi va 1940-1950 yillarda "ta'lif texnologiyasi" tarzida qo'llanilib, mazmunan o'quv jarayonida audio-vizual texnika vositalaridan foydalanishni anglatgan. Atama dastlab AQSh, Angliyada qo'llana boshladi. O'tgan asrning 80-yillarida pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi.

Dastlab «Texnologiya» tushunchasi fanga 1872 yilda kirib keldi va grekcha ikki so'zdan - «texnos» -hunar va «logos»-fan, so'zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi. Qator yillardan beri, pedagogik texnologiyaga o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlandi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchitalabalar bilan muloqoti.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didaktik olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofig'i YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir. Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning ***maqsadi*** – ommaviy ta'lif sharoitida ta'lif jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.

Pedagogik texnologiyaning **bosh vazifasi** – ommaviy ta'lif sharoitida «oddiy» pedagoglarga o'qitishning yetarli samarasiga erishishni ta'minlovchi, o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning **predmeti** – o'quv jarayonining o'zi hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning **ob'ekti** – o'quv jarayonining tarkibiy qismlari hisoblanadi. O'quv-tarbiya jarayonida **pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi** o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat

yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba yoki o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li bo'lib hisoblanadi.

2. Ta'lismazmuni va uni ifodalovchi hujjatlar

Ta'limganing mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limganing mazmuni deganda, o'quvchilarning bilish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasini tushuniladi.

Hozirgi zamon maktablarida ta'limganing mazmuni umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lgan iymonli, e'tiqodli, bilimli yoshlarni tarbiyalab berishdan iboratdir.

Davlat ta'lism standartlari - umumiyoq o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lismazmuniha hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lism standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lismuassasalari uchun majburiyidir.

Ta'lismazmuni o'quv rejasi, dasturi va darsliklarda ifodalangan.

O'quv rejasi – davlat hujjatidir. O'quv rejalarini xalq ta'limgazirligi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi hamda respublikadagi barcha maktablar uchun majburiy hisoblanadi. O'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytildi. O'quv rejalarini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. Shuningdek, o'quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asosan tuziladi.

Har bir o'quv fani uchun o'quv dasturi tuziladi. O'quv dasturi o'quv rejasi assosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir. Dasturning asosiy vazifasi - o'quv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda kursning sinflarga, qismlarga, mavzularga bo'linish, ularni o'rganish tartibi, soatlar turi ko'rsatiladi. Ma'lum mavzu yuzasidan o'quvchi o'zlashtirish lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: ta'limganing mazmuni o'quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, u darslikka o'tishni tayyorlaydi va uning mualliflari faoliyatini uchun yo'llanma hisoblanadi.

Darsliko'quv jarayonining zarur qismidir. Darslik - o'quvchilarning ikkinchi «muallimi», chunki u, avvalo o'quvchi uchun zarur qo'llanmadir.

Darslik - o'quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim assoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir. Darsliklar bilan bir qatorda, ayrim o'quv fanlari yuzasidan o'quv qullanmalari ham tuziladi. Masalalar va mashqlar to'plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug'at kitoblari va hokazolar shular jumlasidandir. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

3. Ta'lismetodlari va ularning tasnifi

Ta'lismetodlari usuli deganda, ta'limganing mazmuni o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarini tushuniladi. O'qitish usullari ta'limganing mazmuni o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab

beradi. Dars jarayonida o'tiladigan mavzuning xarakteri, mazmuniga qarab, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati turlicha yo'nalişda bo'lishi mumkin.

Ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berishning eng qulay imkoniyatlarga asoslangan holda o'qitish usullarini quyidagi turlarga bo'lib o'rGANAMIZ.

1. Ta'limning og'zaki usullari.
2. Ta'limning ko'rgazmali usullari.
3. Ta'limning amaliy usullari.
4. Ta'limning muammoli-izlanish va reproduktiv usuli.
5. Ta'limning induktiv va deduktiv usuli.
6. O'quvchilarning o'quv faoliyatlarini rag'batlantirish va tanbeh berish usullari.
7. O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usuli.
8. Ta'limning interfaol usullari.
9. Kitob bilan ishslash usuli.

Ta'limning og'zaki usullari. O'qitishning og'zaki usullari ta'limda doimo eng ko'p qo'llanib kelinmoqda. Og'zaki usullari uch turga: o'qituvchining hikoyasi, suhbat va maktab ma'ruzasiga ajratiladi.

O'quv ma'ruzasi. Agar hikoya darsning bir qisminigina egallasa, ma'ruza odatda, ularni to'la qamrab oladi. Ma'ruza asosan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va akademik litsey hamda oliy o'quv yurtlarida o'qiladi.

Suhbat. Suhbat ta'limning keng tarqalgan usuli bo'lib, darsning istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Ko'pincha, bu usul savol-javob usuli deb ham yuritiladi. **Ta'limning ko'rgazmali usullari.** O'qitish jarayonida ko'rgazmalilik usulidan foydalanishning muhimligi o'qituvchining o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgata bilishi bilan izohlanadi.

Ta'limning amaliy usullari. O'qitishning amaliy usullariga yozma mashqlar (masalalar yechish, chizmalar tayyorlash), tajriba – laboratoriya tipidagi mashqlar (frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, amaliyot, o'qitishning texnik vositalari va boshqalar); mehnat topshiriqlarini bajarish usullari kiradi. **Ta'limning muammoli-izlanish va reproduktiv usuli.**

O'qitishning reproduktiv muammoli-izlanish usullari o'quvchilarning yangitushuncha, hodisavaqonun larnib ilishdagijodiy faoliyklarida rajasini baholash sozida qism larga ajratiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish va tanbeh berish usullari.

O'quv faoliyatini rag'batlantirish deb kishining aktiv faoliyatga bo'lган tashqi mayliga aytildi. Rag'batlantirish o'quvchi-talabaning ko'nglini ko'taradi, unga quvonch keltiradi va uni yanada yaxshiroq o'qishga undaydi.

4. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning tashkiliy shakllari

Oliy maktabdagi o'qitish jarayoni o'qitishning shakl va metodlarini tashkil etishning ko'p qirrali yagona tizimiga asosan amalga oshiriladi. Oliy o'quv

yurtlaridagi o'qitishning shakl va usullari tasnifi o'zaro bog'langan va o'zaro shartlangan ikki faoliyatga tayanadi:

- o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarning faoliyati;

- talabalarning o'quv va bilish faoliyati.

Oliy o'quv yurtlarida o'quv ishlari va bilim berishning tashkiliy shakllari «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ga asosan olib boriladi.

Oliy maktabdagi o'quv jarayoni shakllariga ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv anjumanlar, maslahatlar, ekskursiya, ekspeditsiya, o'quv ishlab chiqarish pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil ta'limi kabilalar kiradi.

Ma'ruza – bilim berishning shunday shakli, unda pedagog (o'qituvchi) tomonidan berilayotgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar talabalarga yoppasiga bayon etiladi. Ma'ruza - o'quv jarayonining ilg'or usullaridan biri bo'lib, dastlab u o'rta asrlarda biron bir kitobni o'qish yoki uni izohlash yo'li bilan namoyon bo'lган.

Amaliy mashg'ulot - o'quv ishlarining mantiqiy davomi bo'lib, bu termin talabalarning mustaqil auditoriya ishlarining umumiy tushunchasi hisoblanadi. Agar ma'ruzada ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadigan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi. Eng muhimi, amaliy mashg'ulotlar talabalarning bilimini sinashga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulot shakllaridan biri seminaridir.

Seminar – talabalarning ma'ruzadan olgan ilmiy-nazariy bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish maqsadida tashkil etilgan ta'lim shakllaridan biridir. Seminar jarayonida o'qituvchining o'rni juda yuksak, ya'ni o'qituvchi talabaning o'rniga javobni aytib bermaydi, balki muhokamalarni tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi. **Laboratoriya mashg'ulotlari**- Bunda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar. Laboratoriya mashg'ulotlari talabada tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi, eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi.

Ekskursiya – ta'lim va tarbiya ishlarining shunday turidirki, bu usul bilan o'rganilayotgan narsa va hodisalarini tabiiy sharoitda (zavod, fabrika, dala, tabiatni kuzatishga) yoki maxsus muassasalarga (muzey, ko'rgazma va h.k.larga) tashkiliy ravishda olib boriladi. **Amaliyot** – ta'lim shakllaridan yana biri bo'lib, unda talaba oliy o'quv yurtida olgan nazariy bilimlarini bevosita amaliyotga tadbiq etadi. Bu jarayonda amaliyotchiga amaliyot davomida oliy o'quv yurtidan ilmiy rahbarlar tayyorlanadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Maktab ta'limida sinf-dars tizimi qachon va kim tomonidan yaratildi?
2. Pedagogik texnologiya deganda nimani tushunasiz?
3. Aytingchi, pedagogik texnologiyaning predmeti nima?
4. Darsning mohiyatini tushuntirib bering?
5. Pedagogik texnologiyaning ob'ekti nima?
6. Darsning tashkiliy daqiqalari deganda nimani tushunasiz?
8. Oliy maktabdagi o'quv jarayoni shakllariga nimalar kiradi?

**III. AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISHDA
INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

NAZORAT TESTLARI

1. Oliy maktabdagi o'quv jarayoni shakllarini ularga berilgan ta'riflari bilan juftlang.

№	Tashkiliy shakllari ta'rifi	№	O'quv jarayoni shakllari nomi
1	O'quv ishlarining mantiqiy davomi bo'lib, bu termin talabalarning mustaqil auditoriya ishlarining umumiy tushunchasi hisoblanadi, bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi.	A	ma'ruza
2	Bilim berishning shunday shakliki, unda pedagog (o'qituvchi) tomonidan berilayotgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar talabalarga yoppasiga bayon etiladi	B	amaliy mashg'ulot
3	Bunda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar. Bu mashg'ulotlar talabada tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi, eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi.	C	ekskursiya
4	Ta'lrim va tarbiya ishlarining shunday turidirki, bu usul bilan o'rganilayotgan narsa va hodisalarni tabiiy sharoitda (zavod, fabrika, dala, tabiatni kuzatishga) yoki maxsus muassasalarga (muzey, ko'rgazma va h.k.larga) tashkiliy ravishda olib boriladi	D	amaliyot
5	Ta'lrim shakllaridan yana biri bo'lib, unda talaba oliy o'quv yurtida olgan nazariy bilimlarini bevosita amaliyotga tadbiq etadi. Bu jarayonda amaliyotchiga amaliyot davomida oliy o'quv yurtidan ilmiy rahbarlar tayyorlanadi.	E	laboratoriya mashg'uloti
Javob:	1 -	2 -	3 -
			4 -
			5 -

SAKKIZINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: Tarbiya psixologiyasi (4 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. Tarbiyaviy ish va tarbiya psixologiyasi.
2. Shaxs (shakllanishiga) rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Tarbiya qoidalari va tarbiya usullari
4. Tarbiyada individual yondoshishning o`ziga xos xususiyatlari.
5. Tarbiyasi “qiyin” bolalar psixologiyasi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O‘zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O‘zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to’g’risida» gi Qonuni. -T.: 1997.
7. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O‘qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O‘qituvchi», 1990.
13. Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G’oziyev E.G’., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. Shonazarov J.U. Kasbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil
19. www.edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif **Mavzu: Tarbiya psixologiyasi** **Reja:**

- 1. Tarbiyaviy ish va tarbiya psixologiyasi.**
- 2. Shaxs (shakllanishiga) rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.**
- 3. Tarbiya qoidalari va tarbiya usullari**
- 4. Tarbiyada individual yondoshishning o'ziga xos xususiyatlari.**
- 5. Tarbiyasi "qiyin" bolalar psixologiyasi.**

Tayanch iboralar: tarbiya jarayoni, tarbiya vositasi, tarbiya usuli, tarbiya qoidasi, tarbiyasi qiyin bolalar psixologiyasi, muhit, irsiyat va ta'lif-tarbiya.

1. Tarbiyaviy ish va tarbiya psixologiyasi.

Tarbiya ota – onalar, tarbiyachi va o'qituvchilar tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror ahloqiy hislat va xulqiy fazilatlarni tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga tarbiyaviy ta'sir ko'satish jarayonining o'zidir.

Tarbiya ta'lif berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ega. Ta'lif-tarbiya yaxlit pedagogik jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Bir butun pedagogik jarayonda ta'lif doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi.

Tarbiya jarayoni murakkab jarayon bo'lib, u uzoq davom etadi hamda uning natijasini ko'rish qiyinroq kechadi. Bolalarni tarbiyalash ular tug'ilgan vaqtidan boshlanadi va muntazam ravishda ta'lif berish bilan birga olib boriladi. Bolaning o'sishi va tarbiyasi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya tarbiyalanuvchining ruhiyatiga tarbiyachiga ma'qul bo'lgan sifatlarni singdirish uchun, maqsadga muvofiq tarzda va muntazam ravishda ta'sir etishdir.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatları rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Bola kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradi: bu o'zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilimni o'zlashtira olmaydilar.

Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan mustahkam bog'langan. O'z-o'zini tarbiyalash kishining o'z Shaxsini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatidir. O'z-o'zini tarbiyalash to'g'ri tarbiya berish bilan birga sodir bo'ladi va ayni vaqtida to'g'ri tarbiya natijasi hisoblanadi. O'z-o'zini tarbiyalashning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun har bir kishi o'z-o'zini to'g'ri baholay bilishga o'rganishi, hayotda o'zi intilishi lozim bo'lgan idealni aniq tushungan holda o'zidagi ijobjiy sifatlarni va mavjud kamchiliklarni ko'ra olishi muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini tarbiyalash bolaning doimiy ishi bo'lmog'i va uzlusiz davom etmog'i zarur.

2. Shaxs (shakllanishiga) rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Pedagogika-psixologiya Shaxsning kamolotga yetishini murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxsning shaklanishi, kamolga yetishida nasl-irsiyat (biologik),

ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq amalgan oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyatni ham muhim ahamiyatga ega.

Shaxs qaysi jamiyatda yashasa o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asosan kamol topadi. Shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligidan bahramand bo'ladi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda ishtirok etadi. Odam atrofni, ob'ektiv borliqni ko'proq bilgani sari onglilik darajasi o'sadi, fikrlash doirasi kengayadi, yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydi, yangi qiziqish va ehtiyojlar vujudga keladi.

Irsiyat deganda, bolaga ota-onada umuman yaqin ajdodlardan, ya'ni nasldan-naslga o'tadigan biologik xususiyat va o'xshashliklar tushuniladi. Muhit deganda kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealarning yig'indisini tushunamiz. Bunga tabiiy muhit (geografik), ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalar kiradi va ular bolalarning rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatadi.

Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinishi rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa, yo'q bo'lib ketishi ham mumkin. Kishilarning o'zaro muloqotlari natijasida bolada nutq paydo bo'ladi, shakllanadi. Boladagi irsiy belgilarning o'sishi, kamol topishi insonlar muhiti, yashash sharoiti va tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitga emas, boshqa muhit, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanar, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat bo'lmaydi.

Jamiyatning bolalar ongiga ta'sir o'tkazishi asosan ta'lim-tarbiya orqali amalgan oshiriladi. U dastlab oila sharoitida va maktabgacha tarbiya muassasalarida, keyinchalik mifik, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy maktabda ta'lim-tarbiya oladi. Ta'lim-tarbiya yordamida kishining ba'zi tug'ma kamchiliklarni ham kerakli tomonga o'zgartirish, shuningdek, muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergen kamchiliklarni ham tugatish mumkin (bolalarning karta o'ynashi, qo'pollik, so'kish, papiros chekishlari va h.k.).

Xullas, bizning asosiy va eng muhim vazifamiz, bolalarning qobiliyat va iste'dodlarini o'z vaqtida payqab olish va ularning kamol topishlari uchun qulay sharoit, ta'lim-tarbiya berishdir.

3. Tarbiya qoidalari va tarbiya usullari

Tarbiya qoidasi-pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi, tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi, tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog'liqligi qoidasi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi, tarbiyada o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish qoidasi, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi va boshqalar.

1. Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi qoidasi. Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol Shaxsni shakllantirishdan iborat. **2. Tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi.** Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va qizlarning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi

va erkinligini hisobga olish lozim. ***Tarbiyani demokratiyalash*** – bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir.

3. *Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi qoidasi.* Ma'naviy qadriyatlar va g'oyalar har xil millat o'quvchilarini birlashtiradi, o'quv va mehnat faoliyatlarini uyushtirishga yordam beradi.

4. *Tarbiyada o'quvchilarning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.* Bolalar mакtabda rivojlanishning turli davrlarini: bolalik, o'smirlik, o'spirinlik pallalarini bosib o'tadilar. Bolalarning yoshi rivojlanish darajasiga ko'ra ularga beriladigan tarbiyaning mazmuni o'zgarib boradi, yoshi ulg'aygan sari ularga talab ham ortadi. **5. *Tarbiyaviy ishlarning izchilligi, tizimliligi hamda birligi.***

Tarbiya ishidagi izchillik va tizimlilik shundan iboratki, har bir tarbiya ishi maktabning umumiylar tarbiyaviy rejasiga asosan ma'lum izchillikda amalga oshiriladi, oldingi ishlarning mantiqiy davomi sifatida tarbiya sohasida qilinayotgan ishlarni rivojlantiradi, mustahkamlaydi va yanada yuqori darajaga ko'taradi. Ma'lumki, tarbiya-tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayondir. Tarbiya usuli deb tarbiyachining bolalarda axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularning ongi va irodasiga ta'sir etish yo'llariga aytildi. Tarbiya usullari tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgan.

Xalq pedagogikasida qo'llanib kelayotgan xilma-xil tarbiya usullarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).
3. Nasihat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullah, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).
4. Qoralash va jazo (ta'qiqlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayplash, uyaltirish, qo'rqtish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar). Ushbu usullar tizimga solinsa, birlashib umumiylar yaxlitlikni ifodalaydi.

4. *Tarbiyada individual yondoshishning o'ziga xos xususiyatlari.*

Tarbiyachi qator individual – psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, taraqqiy etib borayotgan konkret shaxs bilan shug'llanadi. Bir o'quvchiga nisbatan muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan tarbiyaviy tadbirlarni boshqa o'quvchiga nisbatan qo'llagan vaqtida kutilgan samarani bermasligi ham xuddi ana shu bilan izohlanadi. Shuning uchun umumiylar tarbiyaviy tadbirlar individual yondoshish bilan tuldirilishi lozim. Individual yondoshish va jamoada jamoa orqali tarbiyalash bir-biriga zid bo'lmaydi.

Individual yondoshishda tarbiyachining o'quvchilarga nisbatan g'amxo'rligi va nazokati, o'z xatti-harakatlarining psixologik oqibatlarini oldindan ko'ra olishi nazarda tutilgan. Individual yondoshish o'quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan vaqtdagi psixik holatiga ko'proq mos keladigan tarbiyaviy tadbirlarning tanlashni va amalga oshirishni talab etadi. Ana shunda bu tadbirlar maksimal darajada samara beradi.

Individual yondoshish jazo choralari va shakllarini qo'llanishda ham ifodalanadi. Bir xil o'quvchilarga oddiygina qoralash ta'sir etsa (bazan istexzo bilan qarab qo'yishning o'zi kifoya qiladi), boshqa xil o'quvchilarga qoralashning bunga uxshashi formalari ta'sir qilmaydi va buni ular tarbiyachining muruvvati yoki bushangligi deb tushunadilar. Bunday o'quvchilarga nisbatan qattiqroq jazo choralari qo'llanishi kerak. Oxirida hammaga ma'um bo'lga (lekin hamma vaqt ham hisobga olinavermaydigan) quyidagi fikrni ta'kidlab utamiz: individual yondoshishda tarbiyaviy ishda har bir o'quvchi shaxsidagi mavjud ijobiy fazilatlarga, chunonchi uning qiziqish havaslariga (sport, mo'zika, rasm chizish, tabiat hamda boshqa narsalarni sevishiga), sog'lom axloqiy intilishlariga (garcha ular xatto qo'llanib bo`lmaydigan formalarda bo'lsa ham), o'rtoqlariga nisbatan xatto hazil tariqasidagi do'stona munosabatlarga tayana olish nazarda tutiladi.

Yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim – tarbiya ishlarining muvaffaqiyatlari ularning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish yoshi hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib u ko'proq shu davrga taalluqlidir. O'smirlik davrini o'tish, murakkab va qiyin davri deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. U psixik jarayonlarning, o'quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda kattalar tomonidan rahbarlik qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi.

5. Tarbiyasi "qiyin" bolalar psixologiyasi.

O'smirlarga ta'lim – tarbiya berish ishlarida uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdag'i bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlarini va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor qilish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki bolaning katta odamga aylanishi jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lga munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Balog'atga yetish o'smirlarda o'ziga xos psixologik holatni vujudga keltiradi, ya'ni kishilarning ichki dunyosiga, ularning o'zaro munosabatlariga qiziqish, ularni his qilish va hali aniq tasavvur qilinmagan sevgiga ehtiyoj paydo bo'la boshlaydi. Bu esa shu davrga xos bo'lga "qiyinchilik"larni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu qiyinchiliklar ayniqsa o'sha yoshdag'i bolalarga g'oyaviy - siyosiy tarbiya berish va ularga to'g'ri pedagogik muomala bo'lmanan taqdirda keskinlashib ketishi mumkin. Bizda o'smirning hayot sharoiti, unga beriladigan ta'lim – tarbiya va uning faoliyatini to'g'ri tashkil qilish orqali ijtimoiy foydali mehnat qilishga jalb qilish orqali qiyinchiliklar bartaraf qilinadi. Lekin, afsuski, ba'zan yoshlarimiz orasida tarbiyasi "qiyin" bo'lga, "qiyin tarbiyalanuvchi" yoshlar ham uchrab turadi. Tarbiyasi "qiyin" bo'lishiga sabab nima?

Tarbiyasi qiyin, injiq, hulqi salbiy bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. Yoshlarda nojo'ya hatti – harakatlar paydo bo'lishining sabablari va turtkilari har xildir. Qonunni buzishi yoki qoidaga xi洛f ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy qonunbuzar va oddiy qoidabuzar guruhlarga ajratiladi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasiga quyidagilar kiradi.

Shaxsnинг biologik nuqsonlari: tarbiyasi qiyin yoshlarni, o'smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar turli – tumandir. Ularga: bolani ota – onasidan irsiy yo'l bilan o'tuvchi sezgi organlaridagi (ko'rish, eshitish va hokazo) kamchiliklar, asab tizimidagi kamchiliklar; bolaning psixik tomondan rivojlanishidagi kamchiliklar; ya'ni aqliy zaiflik, bilish, iroda, hissiyotdagi zaifliklar; qiziqish, Intilish bilan bola rivojlanishidagi imkoniyatlarining nomunosibligi sabab bo'lishi mumkin.

Tarbiyasi qiyin bo'lishiga yana bir sabab: bu – bolaning oilaviy, jamoatchilik tarbiyasining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidir. Oilada bola tarbiyasini yaxshi yo'lga qo'ymaslik, oilani maktab bilan bola tarbiyasidagi hamkorligining yo'qligi, mehnat tarbiyasining yaxshi yo'lga qo'ymaslik, ta'lim – tarbiya jarayonini bolaning yoshlik, individual xususiyatlarga qarab tashkil etmaslik, ta'lim jarayoniga bolani qiziqtirmaslik, ularda fikr yuritish jarayonlarini faollashtirishga e'tibor bermaslik kabilalar oqibatida kelib chiqadigan qiyinchiliklardir.

Tarbiyasi "qiyin" yoshlar bilan individual munosabatda bo'lish muhimdir. Bunda har bir individuallikning fiziologik asosini va uning shaxs haqida ma'lum darajada ma'lumot beruvchi oliv asab faoliyati tiplari haqidagi bilimlarini bilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yoshlarni tarbiyalash (jamoa orasida tarbiyalanganda ham) da faqat ularga yakkama – yakka yondoshish lozim.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Tarbiya - bu qanday jarayon, uning xususiyatlarini izohlab bering?
2. Shaxs rivojlanishiga qaysi omillar ta'sir etadi?
3. Tarbiya nima?
4. Tarbiyaning qanday qoidalari mavjud?
5. Tarbiyada izchillik, tizimlilik va uzlusizligi qoidasining ahamiyati nimadan iborat?
6. «Tarbiyasi qiyin bolalar klassifikatsiyasini keltiring.
7. Tarbiya jarayonning samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar nimalardan iborat?
8. Tarbiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?
10. Tarbiyasi qiyin bolalarni tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish kerak?

III. AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

1. T-sxemadan foydalanib «Erkak va ayolning vazifalari» ni to‘g‘ri to‘ldiring!

Erkakning vazifalari	Ayolning vazifalari
1.	1.
2.	2.
3.	4.

2. Uyga -o'quvtopshiriq.

“Oilada tarbiya asoslari” mavzusini mustahkamlash maqsadida
“Baxt nima” og'zaki jurnalini to'ldiring.

1 sahifa. – “Baxt muhabbatdir” sahifasi

2 sahifa. – “Baxt sog'lig'imdir” sahifasi

3 sahifa. – “Baxt ota – onamdir” sahifasi

4 sahifa. – “Baxt boylikdir” sahifasi

5 sahifa. – “Baxt hayotdagi muvaffaqiyatdir” sahifasi

TO'QQIIZINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: Shaxsning ma'naviy sohalarini shakllantirishning psixologik tomonlari (4 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. Shaxsni kamol toptirishda tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi.
2. Shaxsning ma'naviy rivojlanishida yoshlar o'ttasida o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar.
3. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar
4. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning roli. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash
5. Shaxsning ma'naviy sohalarini shakllantirishning psixologik ahamiyati.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
7. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O'qituvchi», 1990.
13. Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G'oziyev E.G., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. Shonazarov J.U. Kasbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil
19. www.edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif

Mavzu: Shaxsning ma'naviy sohalarini shakllantirishning psixologik tomonlari

Reja:

1. Shaxsni kamol toptirishda tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi.
2. Shaxsning ma'naviy rivojlanishida yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar.
3. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar
4. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning roli. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash
5. Shaxsning ma'naviy sohalarini shakllantirishning psixologik ahamiyati.

Tayanch iboralar: inson tarbiyasi, milliy tarbiya, ma'naviy tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash, oila tarbiyasi, shaxs ma'naviyati, dunyoqarashi, milliy va ma'naviy qadriyatlar;

1. Shaxsni kamol toptirishda tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi.

Inson hayot faoliyati davomida o'zgarib, shakllanib, rivojlanib boradi. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Jamiyatning bolalar ongiga ta'sir o'tkazishi asosan ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Bola yoshligidan atrofdagi kishilar bilan muloqotda bo'lib, bilimlar, ko'nikma va malakalarni egallaydi. U dastlab oila sharoitida va muktabgacha tarbiya muassasalarida, keyinchalik maktabda ta'lim-tarbiya oladi. O'quvchi va talabalarning rivojlanishida o'quv jarayonlarining ahamiyati va ta'siri beqiyos kattadir. Bilimlarni o'zlashtirish ularning tafakkurini o'stiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib qoladi.

Agar yoshlar masalasini umumjamiat miqyosidagi masala tarzida idrok etadigan bo'lsak, yoshlarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash – ularning ongi va ruhiyatini muayyan g'oyalar va qarashlarga qaratmoqdan iboratdir. Yoshlar qanday g'oyalar bilan qurollangan bo'lsa, ularning amaliyotdagi faoliyati hamda fe'l-atvori ham shunga yarasha bo'ladi. Ta'lim maskanlarida yoshlarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash jarayonida ularga axloqiy, aqliy, estetik, huquqiy tarbiya haqidagi bilimlar berib, ular ongiga ma'naviyat, ma'rifat tushunchalarini, tuyg'ularini singdirib, hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, diniy, estetik va kasbiy qarashlarini maqsadli va ijobjiy shakllantirish barcha o'qituvchi-murabbiylarning asosiy burchi va vazifasidir.

Tarbiya va rivojlanishning o'zaro bir-biriga ta'siri va munosabatlari mavjud, chunki qaerda tarbiya jarayoni muammolari to'g'ri hal etilsa, u shaxs kamolotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya shaxsning rivojlanishini ta'minlashi uchun boladagi rivojlanishning mohiyatini tushunish, bilish faoliyatining o'zgarish sabablarini aniqlash zarur.

2. Shaxsning ma'naviy rivojlanishida yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar.

Pedagogika fani shaxs rivojlanishida tarbiyaning yetakchi rolini e'tirof etish bilan birga ularning o'zaro bir-biriga ta'sirini tan oladi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichlarida bir xil bo'lmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini bilish va hisobga olish juda muhim. Ma'lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi-talabalarning har birining o'ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjud. Bu o'ziga xoslik rivojlanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Bolalarni o'qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyati o'qituvchining har xil yoshdagi bolalar o'rtasidagi tafovutlarni qay darajada hisobga olishiga bog'liqdir. Chunki, har bir shaxsning xulq-atvori, qiziqish, qobiliyati, bilimi, xarakteri turlicha bo'ladi. Shuning uchun ularga individual munosabatda bo'lish talab etiladi. Individual munosabat shaxslarga ta'sir etish yo'lining dastlabki bosqichidir. Shuning uchun shaxs tarbiyasida uning etnik, milliy, ijtimoiy va genetik jihatdan belgilangan xususiyatlarini hisobga olish shart. Shunday ekan, tarbiyachi, pedagog maktabgacha yoshdagi va mакtab hamda o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchi talabalarning yosh davrlari bilan xususiyatlarini hisobga olmoqlari lozim.

Demak, bizning asosiy va eng muhim vazifamiz, bolalarning qobiliyat va iste'dodlarini o'z vaqtida payqab olish va ularning kamol topishlari uchun qulay sharoit, ta'lim-tarbiya berishdir.

3. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar

Psixologiya fani dunyoqarashining shakllanish jarayonini tadqiqot qiladi, ijtimoiy-taraqqiyot hodisalarining to'g'ri baholanishini, evolyutsion yo'sinda tarkib topishini, axloqiy tamoyillar, didlar yuz berishini, tabiat hodisalariga va jamiyatning qonuniyatlariga nisbatan qarashlarning shakllanishi qay tariqa yuz berishini va boshqalarni aniqlaydi.

Ijtimoiylashuvning institutlaridan tashqari uning oqibati masalasi ham psixologiyada muhim amaliy ahamiyatga ega. Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli - bu uning hayotda o'z o'rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, shaxsning yo'nalganligi masalasiga ham fanda katta e'tibor beriladi. *Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yunaltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turgun, barqaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik shaxsning yo'nalganligi deb ataladi.*

Yo'nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagilar tashkil etadi:

Mas'uliyat. Bu ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning etukligini belgilovchi muhim ko'rsatgichlardan sanaladi. Oxirgi yillarda psixologiyada *nazorat lokusi nazariyasi* (*teoriya lokusa kontrolya*) keng tarqaldiki, unga ko'ra, har bir insonda ikki tipli mas'uliyat kuzatiladi.

Maqsadlar va ideallar. Ijtimoiylashuvning mas'uliyat hissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsadlar va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish, uzoq va yaqinga muljallangan rejalarini amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Maqsad va rejasiz inson - ma'naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsadlar doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o'rnashishida ma'lum ma'noda ideallar ham rol o'ynaydi. Ideallar - shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongda bor, lekin har doim ham amalga oshmaydi.

Qiziqishlar va dunyoqarash. Qiziqishlar ham anglangan motivlardan bo'lib, ular shaxsni atrofida ro'y berayotgan barcha hodisalar, olamlar, ularning o'zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to'plash, ularni o'rganishga imkon beruvchi omildir. **Dunyoqarash** - tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallahsha chorlaydi.

4. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning roli. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

Dunyoqarash - shaxsning shaxsligini (individ emas), uning ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir. Shuning uchun ham uning shakllanishi va o'zgarishi masalasi muhim masalalardan bo'lib, hamma vaqt va davrlarda ham o'ta dolzarb bo'lib kelgan. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, jamiyatda tub islohotlar boshlandi. Ana shu islohotlarning asosiy yo'nalihsidan biri - ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a'zolari dunyoqarashini istiqlol ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosini ham ularda yangicha xurfikrlilik bilan yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu o'rinda psixologiya o'zgarishlar sharoitida e'tiqod, dunyoqarash va ideallar o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillar xususida quyidagilar ajaratadi:

Ma'naviyat va ma'rifat. Avvalo ma'rifat xususida. Bu - odamning tabiat, jamiyat va insonlar to'g'risidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma'lumotlari majmui bo'lib, uning mazmuni bevosa shaxs dunyoqarashining mazmun-mohiyatini belgilaydi. Demak, yoshlarga qaratilgan va ular o'qib, o'rganishi uchun yo'naltirilgan barcha turdag'i ma'lumotlar (kitoblar, ommaviy - axborot vositalari orqali, muloqot jarayonida), ular asosida shakllanadigan yangicha tasavvurlar yangicha dunyoqarash uchun zamindir.

Oila. Yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i bo'lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e'tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir. **Mafkura.** Har bir davrning o'z mafkurasi bo'ladi va u shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning ongiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Kommunistiq mafkuradan batamom voz kechgan jamiyatimizda yangi mustaqillik mafkurasi shakllanmoqda. Zero, mafkura jamiyat a'zolarining tabiat, jamiyat va ijtimoiy jarayonlar xususidagi g'oyalari, bilimlari majmui bo'lib, har bir ijtimoiy guruh o'ze'tiqodiga mos mafkurani tanlaydi.

Ijtimoiy ustakovkalar. Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustakovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarini, ob'ektlarni, ijtimoiy guruahlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar urnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdag'i dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Ijtimoiy ustnovkalarni o'zgartirishning eng sodda va qulay yo'li - bu ayni vaziyatlar va ulardag'i ta'sirlarni qaytarishdir. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo'lganda, ob'ektivlashadi, ya'ni o'z kuchini va mavjudligini ko'rsatadi.

5. Shaxsning ma'naviy sohalarini shakllantirishning psixologik ahamiyati

Inson ma'naviyati o'zi yashab turgan jamiyatni ijtimoiy va ruhiy muhitiga bog'liq. Ma'naviyat bu – kishining egallagan bilimlari, uning hayotida sinovlardan o'tib, ruhiga singib, butun hayot tarzida aks etadigan ijobiy ijtimoiy sifatlaridir.

Jamiyat a'zolari ma'naviyatining darajasi va ruhiy holatlarining ta'sir doirasi uning shu jamiyatda tutgan o'rni, ya'ni uning mansabi, mavqeiga qarab belgilanadi. Masalan: Oila boshlig'ining ma'naviyati yuqori yoki past bo'lса, uning ijobiy yoki salbiy ta'siri faqat shu oila a'zolariga ta'sir etishi mumkin. Rahbarlaning insoniy sifatlari o'z faoliyati bilan tarkib topgan ijtimoiy va ruhiy muhitlar orqali shu hududlardagi butun aholining insoniy sifatlariga ta'sir kursatadi.

Umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo'lishning muhim tamoyillaridan biri – adolatdir. Xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi uning adolatliligi va adolatparvarligidir. Chunki «xalqimiz adolat, tinchlik, ahil qo'shnichilikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab asrab kelmoqda. O'zbekiston yangilanishining oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga o'z 64 mazmun bag'ishlash, zamonamizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol topishiga erishish uchun zarur shart - sharoitni yaratishdir». (I.Karimov. «Istiqlol va ma'naviyat». 6-bet)

Adolatparvarlik g'oyasini iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy yo'nalishlarda keng o'ren olishi uchun har bir fuqaro sidqidildan xizmat qilishi kerak. O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaro jinsi, yoshi, va boshqalardan qat'iy nazar, adolat tamoyiliga asoslangan holda umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan sadoqati mustaqil O'zbekistonning istiqlolini mustahkamlashdagi faoliyati bilan namoyon bo'ladi. Bularning hammasi yoshlarda **shaxsning ma'naviy sohalarini** shakllantirishning hozirgi zamon talabidir. Demak, ma'naviyat, inson ruhiy olamining fazilati va sifatini bildiradi. Bu esa kishi tabiatidagi vatanparvarlik, xalollik, odamiylik, ma'naviy boyliklardan bahramandlik, ularni qadrlay bilish, til va dil birligi, shaxs sifatida muttasil izlanish, mukammallikka intilish, burchga sadoqat, ya'ni iymon butunligi kabi ko'plab fazilatlarni qamrab oladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Shaxs ma'naviyati, ma'naviyatli inson deganda kimni tushunasiz?
2. „Shaxs” – tushunchasiga ta'rif bering.
3. Kishida o'z-o'zini tarbiyalash uchun qanday zaruriy xislatlar mavjud bo'lishi kerak?
4. Ijtimoiylashuv qanday jarayon?
5. Shaxs dunyoqqrashi va e'tiqodini o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillarga nimalar kiradi?
6. Tarbiya va rivojlanishning o'zaro bir-biriga ta'siri deganda nimani tushunasiz?
7. Yoshlarni tarbiyalashda maktab va oilaviy tarbiyada qanday ziddiyatlar yuzaga keladi?

III. AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISHDA INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

NAZORAT TESTLARI

1. «Tarbiya turlari» mazmunini to'g'ri javoblari bilan juftlang.

1	<i>Jismoniy tarbiya -</i>	A	muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va riosa qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir	
2	<i>Axloqiy tarbiya -</i>	B	o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.	
3	<i>Estetik tarbiya -</i>	C	shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi.	
4	<i>Mehnat tarbiyasi –</i>	D	o'z munosabati, fikriga didiga ega bo'lish, atrofdagi voqeа hodisalarga, kishilarga baho bera olish, go'zallikdan zavqlana olish, go'zallik yaratishga intilish tuyg'usini tarbiyalashdan iboratdir.	
Javob:	1-	2 -	3 -	4 -

2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing.

- a) Yosh avlodni ma'lum maqsadga qarata tizimli va rejali ta'sir etishga «_____» deyiladi.
- b) _____ – bu tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. U o'quvchi-bola tarbiyasida qo'llanadigan oxirgi tarbiya usulidir.

O'NINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: Pedagog faoliyatining psixologik muammolari (4 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, o'qituvchining axloqiy fazilatlari.
2. Pedagogik faoliyat va uning psixologik tomonlari.
3. Pedagogik ixlos va uni kasbga yo'naltirishdagi ahamiyati.
4. Pedagogik mahorat va uning asosiy tarkibiy qismlari
5. Pedagogik munosabat usullari, pedagogning nutqsiz munosabati.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
7. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O'qituvchi», 1990.
13. Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G'oziyev E.G., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. Shonazarov J.U. Kasbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil
19. www.edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif

Mavzu: Pedagog faoliyatining psixologik muammolari Reja:

1. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, o'qituvchining axloqiy fazilatlari.
2. Pedagogik faoliyat va uning psixologik tomonlari.
3. Pedagogik ixlos va uni kasbga yo'naltirishdagi ahamiyati.
4. Pedagogik mahorat va uning asosiy tarkibiy qismlari
5. Pedagogik munosabat usullari, pedagogning nutqsiz munosabati.

Tayanch iboralar: pedagogik faoliyat, pedagogik ixlos, pedagogik mahorat, o'qish, o'rghanish, izlanish; pedagogik qobiliyat, pedagog munosabati.

1. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, o'qituvchining axloqiy fazilatlari.

Pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lif-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Pedagogik faoliyat, u bilan kimlar shug'ullanishlari xususida O'zbekiston Respublikasi Ta'lif to'g'risidagi qonunining 5-moddasida quyidagicha izoh berilgan:

«Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egadir. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lif muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi».

O'qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oliyjanob, yuksak va eng murakkab vazifadir. Har bir bola o'z hulq-atvoriga, xarakteriga ega. Yoshlarni tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o'rghanish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligiga mos keladigan maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim.

O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy (fazilat) sifatlarda ifodalanadi. Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining hulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur,adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi obro'sini oshiradi va pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmati, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchan vaadolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi, halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning samaradorligi ham bevosita o'qituvchining muomala odobiga bog'liqdir. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobida muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Xullas, muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar

– yoshlarga ta’lim-tarbiya beradi, shu boisdan u axloqiy fazilatli mukammal inson bo‘lishi lozim.

2. Pedagogik faoliyat va uning psixologik tomonlari.

Kasbga o’qitishda pedagog faoliyatining muhim tomonlaridan biri bu uning, ya’ni o’qituvchi shaxsi bilan nomi bilan bog’liqligi hisoblanadi. Uning u yoki bu xususiyatlari o’qitish davomida ko’tarilishi yoki pasayishi mumkin. Eng avvalo bu “maxsus o’qituvchilik xususiyati” hisoblanib, bunga o’qituvchining ilmiy tayyorgarligi va “o’qituvchining shaxsiy talanti” kiradi.

Kasbga o’qitishda pedagog faoliyatining ob’ektiv xarakteri bu pedagogning o’zi o’qiyotgan fanini yaxshi bilishi, unga yaqin fanlarni ham yaxshi bilishi, fanlararo aloqalarni angalagan holda keng ma’lumot egasi bo’lishi, fanning metodologiyasini bilishi, o’qitishda ta’lim qoidalariga amal qilishi va nihoyat o’qitayotgan o’quvchibolalarni yaxshi bilishi kerak.

O’qitish jarayonida pedagog faoliyatining uchta komponentini ajratish mumkin. Bular konstruktiv (tuzilishi), kommunikativ (aloqa yo’li) va tashkil qilish faoliyati. Pedagog faoliyatining konstruktiv komponenti – bu o’qituvchi faoliyatida darsni tuzilishini shakllantirish, konstruktivlash hisoblanadi. Bunda o’qituvchi darsni tuzilishini tashkil etishi, o’quvchilarni darsdan tashqari tadbirilarini shakllantirishi, maktab dasturi asosida o’quv materiallarini tanlab olish, bularni darsliklardan va har xil metodik ishlanmalardan olgan holda o’quvchilarga yetkazib berishi kabilar ko’rinadi. Bularning hammasi bir butun dars jarayonini tuzilishini, darsdan keyingi qilinayotgan ish faoliyatlarini ham tuzilishini konstruktivlab berishda ko’zga tashlanadi. Demak bu komponent o’qituvchi faoliyatida muhim hisoblanadi.

O’qituvchi faoliyatining ikkinchi muhim qismi bu kommunikativ (aloqa yo’li) bo’lib, pedagog faoliyatidagi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bu pedagog faoliyatida ko’plab psixologik muammolar kelib chiqadi. O’qituvchi bu jarayonda o’quvchi bilan, uning ota-onasi, maktab rahbariyati va o’qituvchilar bilan o’zaro aloqada bo’ladi. Aynan o’qituvchining o’quvchiga bo’lgan munosabati va ular o’rtasidagi o’zaro munosabat konstruktivlik va tashkilotchilik munosabatida ko’plab psixologik muammolar yuzaga chiqadi.

O’qituvchi faoliyatida **tashkilotchilik faoliyati** muhim jarayonlardan biridir. Uni konstruktivlikdan ajratib bo’lmaydi, ular bir butun jarayon hisoblanadi. Tashkiliy komponent o’zida uchta yo’nalishni qamrab oladi: o’zini aytmoqchi bo’lgan fikrlarini tashkil etishda; darsda o’zini tutishni tashkil etishda; bolalar faoliyatini tashkil etishda, ya’ni ularni bilish jarayonlarini har doim faollashtirib turishda ko’rinadi.

3. Pedagogik ixlos va uni kasbga yo’naltirishdagi ahamiyati.

Pedagogik ixlos – bu pedagogning o’z kasbiga bo’lgan sodiqligi, uni ta’lim-tarbiya berish jarayonidagi jonkuyarligi, o’z ishiga berilganligi, faolligi, mas’uliyati, ishiga vafodorligi, undagi qobiliyatlar va bag’rikenglikning cheksizligi kabilar hisoblanadi. Pedagogik ixlos keng qamrovli tushuncha bo’lib, u pedagog shaxsini, pedagog axloqini, pedagogik qobiliyatlarini, pedagog nutqini, pedagog psixologiyasi kabi qator tomonlarini o’zida qamrab olgandir. Pedagogik ixlos o’qituvchining uzoq yillar davomida pedagogik faoliyatga chin qalbidan xizmat qilish bilan bog’liqdir.

Pedagogik ixlos bu pedagogning sabr toqati, chidam bilan yosh avlodni tarbiyalash jarayoni bo’lib, pedagogni oldiga qo'yilgan barcha talablarni o’z vaqtida

bajarib borib obro'ga ega bo'lish jarayonidir. Pedagogning bu faoliyati juda qiyin, ko'plab mehnatni talab qiladigan faoliyat turi hisoblanadi.

Pedagogik ixlos eng avvalo pedagogni o'z kasbini sevishdan boshlanadi. Pedagog o'z kasbiga sadoqatli bo'lish bilan birga u jamiyat oldidagi mas'uliyatni ham sezib turadi. Demak pedagogni o'z kasbiga bo'lgan ixlosi orqali, jamiyatga yaxshi insonlar yetishib chiqadi va ular jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladilar. O'z kasbiga ixlos qilgan pedagoglar tanlagan kasblaridan nolimaydilar, o'zlarini har doim shu kasbga loyiq tutishga intiladilar.

Pedagogik ixlos – bu o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan sodiqligi va shu yo'ljadi doimiy izlanish hisoblanadi. Ixlos bu psixologik tushuncha bo'lib insonni biron bir kasbga, hodisaga bo'lgan sodiqligi, bu kasbni o'zgartirmasligi, har doim shu kasbni ulug'lashi bilan bog'liq jarayondir. Pedagogik ixlos – bu pedagogni o'z kasbiga bo'lgan irodaviy tomonlarini mujassamlashtirgan jarayon sifatida yoshlarni kasbga tayyorlashda juda katta kuchni sarf qilishni talab qiladi. Pedagog o'z qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirib turadi, ularga bilimlar berib, malakalarni tarbiyalaydi, kasbga xos bo'lgan layoqatni shakllantirishga ko'maklashadi. Albatta pedagogdagi qat'iylik va chidam, mehnatkashlik va bolalarni o'zining ketidan ergashtira olishlik kabi qobiliyatlar pedagogning mehnatini ruyobga chiqaradi.

Ko'rinish turibdiki, pedagogik ixlosni yoshlarni kasbga yo'naltirishdagi ahamiyati nihoyatda katta va bu ixlos pedagog faoliyatining yuzaga chiqishi uchun zarurdir. Pedagogni ixlosini taqdirlab turilishi, ya'ni uni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish pedagogdagi ixlosni yanada oshiradi.

4. Pedagogik mahorat va uning asosiy tarkibiy qismlari.

Pedagogik mahoratga erishish uchun aynan pedagogika faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarni egallashgina emas, balki psixologiya fanini ham chuqur o'rgangan kishidagina pedagogik faoliyati davomida pedagogik mahoratga erishish mumkin. O'z ishining mohir ustasi bo'lgan pedagog-bu yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san'atning tegishli sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyotini mukammal egallagan mutaxassisdir».

Muvaffaqiyatli ishslash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

O'qituvchi mahorati uning faoliyatida ko'rindi.

Pedagogik mahorat - pedagogik faoliyatni va vaziyatni mohirlik bilan boshqarishdir.

Pedagogik mahoratning asosi – pedagogik bilimdonlikdir.

Pedagogik mahorat egasi kam kuch (mehnat) sarf qilib katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkor bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Mahorat – bu alohida qudrat. Pedagogik mahoratga erishish o'qituvchining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi.

Pedagogik mahoratning mazmunida quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan asosiy qismlarini ajratish mumkin:

1. Pedagogik insonparvarlik yo'nalishi.

2. Ixtisos-mutaxassislikka doir bilimlar. (kasbiy bilimlar)
3. Pedagogik qobiliyat.
4. Pedagogik texnika (ko'nikma-iqtidor).

O'qituvchi pedagogik mahoratga erishish uchun: pedagogik takt va hodisalarni umumlashtira olishi, o'zining va o'quvchilarning faoliyatini boshqara olish qobiliyati, yuqori bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab qilinadi. Demak, o'qituvchi – o'quvchining shaxsiy faolligini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltira olishi zarur.

5. Pedagogik munosabat usullari, pedagogning nutqsiz munosabati.

Pedagog munosabati – pedagogning o'quvchi-talabalar bilan tarbiya maqsadida aloqa o'rnatishidir. Uni ma'lum pedagog vazifalariga ega va o'quv-tarbiya faoliyatining optimallashga yo'naltirilgan pedagogning o'quvchiga kasbiy ta'siri deb ta'riflasa bo'ladi. Pedagogik munosabat – uchun gaphish madaniyatiga (jonli nutq, talaffuz tarzi, nutq ohangi, orfoepiya) to'g'ri nafas olishga, ovozni qo'ya bilishga o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Pedagog o'z ovozini, yuzini boshqarishga, pauza tutishga, gavdani, mimikani, ishorani tutishga o'rganishi kerak.

Pedagogik munosabat muammolariga amerikalik pedagoglar katta e'tibor beradi. Yaqinda chiqqan Dj. Brofi va T. Guddning «O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari» nomli kitoblarida o'qituvchining o'quvchilarni ajratib munosabat qilishga asoslangan «sub'ektiv» munosabatlar xususiyatlari tahlil qilinadi. Masalan, shu narsa aniqlanganki, pedagoglar ko'proq yoqimtoy o'quvchilarga munosabat qilar ekan. Ular uchun beparvo o'quvchilar e'tibordan chetda qolar ekanlar. O'qituvchilar aqilli, zakovatli, intizomli va bilimli o'quvchilarga yaxshiroq munosabat qilar ekanlar. Sust – erksiz, lapashang o'quvchilar ikkinchi o'rinda turar ekan.

Pedagogning asosiy qudrati – so'zdan tashqari uning qurolxonasida – munosabat uchun nutqsiz vositalarning bir qatori mavjud. His-xayajonni ifodalaydigan harakatlar – ko'zga ko'rindigan o'qituvchining harakatlari. Bu yerda axborot yetkazuvchi bo'lib gavdani tutish, mimka, ishora, nigoh katta rol o'ynaydilar. Masalan, kuzatuv tadqiqotlariga ko'ra o'qituvchining yuzi qimirlamasa, yoki ko'zga ko'rinxmasa 10-15% axborot yetkazib berilmaydi. O'quvchilar o'qituvchi nigohiga juda ta'sirchan bo'ladilar.

O'qituvchining g'azablangan, noxush kayfiyati uning ko'z qorachig'ini toraytiradi. Uning yuzi iltifotsiz bo'lib qoladi va o'quvchilar shinamsizlik xis qiladilar va ishini samaradorligi pasayadi. Pedagogik faoliyatda ayrim o'qituvchilarning xirildoq ovozlari o'quvchilarga yoqmaydi, g'azablantirishi ham mumkin, hamda fanga nisbatan qiziqishni ham yo'qotadi va darsni zerikarli bo'lishiga olib keladi. Bu esa ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishishni ruyobga chiqarmaydi. Shu boisdan avvalo pedagog bolalar bilan muloqat qilish san'atiga ega bo'lishi lozim, kerakli muomala ohangi va munosabat usulini tanlashni bilishi kerak.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:


1. Pedagogik faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik faoliyatda yosh xususiyatlarni hisobga olish qanday amalga oshiriladi?
3. Kasbiy talablarga nimalar kiradi?
4. Pedagogik ixlos deganda nimani tushunasiz?

- O'qituvchining axloqiy fazilatlari nima, uni qanday izohlaysiz?
 - Pedagogik mahorat deganda nimani tushunasiz?
 - Mimika va pantomimika nima?

III. AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

1. “*Nima uchun*” sxemasi

Pedagog uchun nutq madaniyati qobiliyati ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishida muhim ahamiyat kasb etadi.



2. Uyga -o'quv topshiriq

**PEDAGOGIK MAHORAT –
MUVAFFAQIYATLI ISHLASH OMILIDIR!**

- **F – Fikringizni bayon
eting**
- **S – Fikringizni bayoniga
sabab ko'rsating**
- **M – Fikringizga misol
keltiring**
- **U – Fikrlaringizni
umumlashtiring,
xulosalang**

O'N BIRINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: O'qituvchi psixologiyasi (2 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va vazifalari.
2. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari.
3. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. O'qituvchi nutqining xususiyatlari
4. O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlar.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida o'qituvchi shaxsiga quyilgan talablar.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
7. *A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p*
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O'qituvchi», 1990.
13. *Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.*
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G'oziyev E.G'., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. Shonazarov J.U. Kasbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil
19. www.edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif

Mavzu:O'qituvchi psixologiyasi

Reja:

1. Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va vazifalari.
2. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari.
3. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. O'qituvchi nutqining xususiyatlari
4. O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlar.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida o'qituvchi shaxsiga quyilgan talablar.

Tayanch iboralar: o'qituvchi shaxsi, shaxsiy va kasbiy sifatlar, pedagogik qobiliyat, axloqiy fazilatlar, ijodkorlik, kuzatuvchanlik, pedagogik odob.

1. Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va vazifalari.

O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o'qituvchi sog'lom, asablari joyida, mustaqil tafakkur va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, shuningdek, o'z ustida tinmay ishlamog'i lozim.

O'qituvchining mas'uliyatli va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi vazifalar yotadi. Ha, o'qituvchi, ustoz mening nazarimda butun dunyoni qo'lida ko'tarib turadigan ulug' insondir. O'qituvchi dunyoni titratib turgan allomalarni, Prezident va akademiklarni, fan doktorlari va daholarni ham tarbiyalaydi. Bu kasbning boshqa kasblardan ham farqi shunda. Chunki uni jamiyatda tutgan o'rni beqiyosdir.

O'qituvchilik kasbi eng mas'uliyatli, eng olivjanob va eng faxrli, lekin eng mashaqqatli kasblardan biridir. Davlat, xalq va jamiyat kelajagimiz bo'lgan yoshlarni o'qituvchiga ishonib topshiradi. Chunki o'qituvchi qo'lida bizning bolalarimizni kelajak hayot mazmuni, baxt – saodati turadi. Baxtli kelajak ham, komil insonlik ham, baxtsizlik va badbaxtlik ham o'qituvchilarimiz, tarbiyachilarimiz, ota – onalarimiz qo'lida.

Pedagogik faoliyatning mazmuni o'qituvchi faoliyatining motivlari bilan belgilanadi. Agar bu motivlar ta'lim – tarbiya jarayonida uzoqni ko'zlagan, ma'lum ijobiy maqsadlarga qaratilgan bo'lsa – bu olivjanob ideallarning paydo bo'lishiga, o'quvchini qalbiga chuqurroq kirishiga, izlanishiga, yangi bilimlar tizimini bolalarimizga singdirishga, ularda o'qishga, mehnatga nisbatan ijobiy, ongli munosabatlarni tarbiyalashga olib keladi.

Ma'lumki, ta'lim – tarbiya jarayonini takomillashtirish va uni qayta qurish o'qituvchi shaxsi oldiga katta vazifalar va talablar qo'yadi. Bular quyidagilardan iborat:

1. o'qituvchi o'zining sog'lom dunyoqarashi, aniq insoniy yo'nalishi, g'oyaviy – siyosiy e'tiqodining yuksak darajada ekanligi, o'z vazifasini vijdonan bajarishi;
2. o'quvchilarga, pedagogik mehnatga mehr qo'yishi;

3. tarbiyaviy ishlarning sifatiga ahamiyat berish va o'quvchilarni hayotga e'tiqodli qilib tarbiyalash;
4. o'quvchilar, ota – onalar va turli millatlar orasida ijobiy va samimiy munosabatlarni o'rnatish;
5. ta'lif jarayonini takomillashtirish, unda o'quvchilarni bilish va fikr yuritish jarayonini faollashtirish, mustaqil faol va ijodiy tafakkurni shakllantirish;
6. ta'lif jarayonida o'quvchilarni maxsus va umumiy qobiliyatlarini shakllantirish;
7. yoshlarni mehnatga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish malakasiga ega bo'lish;
8. ta'limning mazmunini takomillashtirish va intensivlashtirishda uni yangi – yangi, samarali usullarini topish va undan foydalanish;
9. ta'lif – tarbiyaning effektiv yo'llarini topa bilish, o'quvchilarning psixologik holatlarini tushunish va unga qarab individual munosabatda bo'lish;
10. o'quvchilarni hozirgi zamon talabiga binoan tarbiyalash, o'z millatining urf – odatlari, axloqlari ruhida shakllantirish kabi qator vazifalar turadi. Bu vazifa va talablar qanday murakkab ish bo'lishiga qaramay, o'qituvchi bularni uddasidan chiqmog'i lozim.

2. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari.

O'qituvchining ma'naviy fazilatidan biri – bu uning talabchanligidir. O'qituvchi o'ziga nisbatan va o'quvchilarga nisbatan qancha talabchan bo'lsa o'sha yerda intizom, axloqiy poklik, chuqur bilim bo'lishi mumkin. Ammo fanga qo'yilgan talabni tarbiyaga qo'yib bo'lmaydi. O'qituvchi bilim berish orqali shaxsni tarbiyalashi lozim, buning uchun u o'quvchilarga nisbatan talabchan bo'lishi lozim. Lekin talabchanlik albatta samimiat bilan bog'liq bo'lishi kerak. Agar o'qituvchi bolaga nisbatan talabchan bo'lsa-yu, lekin bolaning ichki dunyosini, o'ziga xos xususiyatini bilmasa uni qalbiga yo'l ham topa olmaydi. O'qituvchi bolaning yuziga, ko'ziga qarab uni hozir kechirayotgan psixologik holatini anglashi, lozim. Agar bola g'amgin ko'rinsa unga ehtiyyotkorlik bilan muomala qilishi zarur.

O'qituvchining asosiy maqsadi hamma o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'qishiga erishishdir. Mana shu asosiy vazifani bajarish yo'lida o'qituvchi qator qiyinchiliklarni yengadi. Bunday qiyinchiliklardan biri, masalan, darsda intizom masalasidir. Dars vaqtida yaxshi intizom bo'lishining asosiy shartlaridan biri o'qituvchining talabchanligidir. O'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga qanchalik intilsa, bolalarga shunchalik ko'p ta'sir ko'rsatadi. Darsda intizom yomonlashsa, uning sabablaridan biri o'qituvchining dangasaligi, auditoriyadagi tarbiyaga beparvo qarashidir.

O'qituvchining irodaviy sifatiga sabotlilik xosdir. Bu boshlagan ishni muvaffaqiyat bilan oxiriga yetkaza olishda namoyon bo'ladi. O'qituvchi degan sharafli kasb egasi - o'zining ilmiy, ma'naviy e'tiqodi, odobi, vijdoniy burchi va uni anglash kabi asosiy sifatlarga ega bo'lishi lozim. Shuning uchun ham bo'lg'usi o'qituvchilarda bu sifatlarni tarbiyalashga e'tibor kuchli bo'lishi lozim.

Pedagogik ta'sir etishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglik odobini egallashga bog'liqdir. Pedagoglik odobi - o'qituvchining o'quvchilar bilan to'g'ri munosabatda, yaxshi muomalada bo'lishi, ularga g'amxo'rlik qilishi, ularning oldiga oqilona talablar qo'yishi, o'quvchilarda inson qadr – qimmatini hurmatlashi demakdir.

O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning **iltimos**, **maslahat**, **ishontirish**, **talab qilish**, **buyruq va tanbeh berish**, **jazolash**, **rag'batlantirish** kabi ko'p usullari bor. Ammo bulardan me'yor bilan foydalanilmasa, yaxshi natijaga erishish mumkin emas. Shunday qilib, o'zining psixologik mazmuni jihatidan pedagogik odob o'qituvchi shaxsining murakkab, olijanob sifati hisoblanadi.

O'qituvchining odobi, madaniyati yuksak bo'lsagina, odamlarga nisbatan mehribon, sahovatli bo'la oladi, uni hamma hurmat qiladi. Buning uchun ochiq ko'ngil, qat'iy bo'lishi, o'zini tuta bilishi, bardoshli bo'lishi kerak. O'qituvchi pedagogik etika (axloq)ning qoidalarini o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Demak, o'qituvchi o'quvchi bilan o'zaro munosabatlarga kirishuvda va uni baholashda axloq me'yordan chetga chiqmasligi talab qilinadi.

3. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. O'qituvchi nutqining xususiyatlari

Pedagoglik qobiliyat o'qituvchi shaxsiga xos bo'lib, bir qancha sifatlarni – uning aql – zakovati, irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos va boshqa xususiyatlardan tarkib topadi. Bu xususiyatlar tufayli qobiliyatli o'qituvchi muvaffaqiyatli ishlaydi va oz mehnat sarflab, katta natijaga erishadi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmos'h'i va tarbiyalanmog'i lozim:

1. Bilish qobiliyati - fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, iqtisod, adabiyot va hokazolarga doir) qobiliyatlardir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini bajara oladi.

2. Tushuntira olish qobiliyati - o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, yoshlarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir. 3. Kuzatuvchanlik qobiliyati - o'quvchining ichki dunyosiga kira olish, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik va boshqalar.

O'qituvchi dars berayotganda hamma o'quvchilarni ko'rib turishi va ayrim o'quvchilar diqqatining boshqa narsalarga chalg'ib ketishining oldini olishi, masalan, o'quvchiga jiddiy bir qarab qo'yishi, imo – ishora, pauza, intonasiyani o'zgartirishi lozim. Ko'z o'quvchilarga qaragan bo'lishi kerak, polga, shipga, tashqariga qaramasligi kerak. Hamma o'quvchilarni nazardan qochirmaslik kerak.

Ko'ruv diqqati: Birinchi marta sinfga kirganda, biron ta o'quvchini tanlab butun diqqatini o'shangan qaratiladi (tor ob'ekt), keyin asta-sekinlik bilan bir nechta o'quvchiga diqqat qaratiladi (o'rtacha torlikdagi ob'ekt), yana asta sekin butun sinfni nazar ostiga olish mumkin (keng maydonagi ob'ekt) va shu maydonni nazardan qochirmaslik kerak.

4. Nutq madaniyati – nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikr hamda his-tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatidan yorqin, ifodali bo'lib, unda gramatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – birinchidan, o'quvchi-talabalar jamoasini uyushtirishni,

jipslashtirishni, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni; ikkinchidan, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi.

6. Obro' orttira olish qobiliyati - o'quvchilarning hissiyoti va irodasiga bevosita ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, xushmuomalaligi, mehribonligi asosida ham qozoniladi.

7. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati – yoshlarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnata bilishi, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Oldindan ko'ra bilish qobiliyati - o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishda, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati - o'qituvchida diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, kuchi, kuchuvchanligi, idora qilinishi, safarbarligi kabilar taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir. Xullas, o'qituvchida bu kabi xususiyatlarning mavjud bo'lishi uning pedagogik mahoratini oshiradi va tajribasini boyitadi.

4. O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlar.

Talim jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi munosabatlarga bog'liqdir. Eng yaxshi o'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan o'quvchilarning ichki dunyosini, fikr va tuyg'ularini, hozir kechirayotgan psixologik holatini darrov sezib oladi. O'quvchilarni hozir kechirayotgan tuyg'u - hislariga qarab, uning yuragiga yo'l topa oladi. O'quvchilar bilan o'qituvchilar orasidagi munosabatda ularning o'z ishiga, faoliyatiga vijdonan kirishishi va o'z mas'uliyatini his qilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Agar o'qituvchi o'z faoliyatiga ijobiy munosabatda bo'lsa u o'quvchilarda mehr – muhabbat hissini paydo qiladi.

O'qituvchining o'qitishga bo'lган ijobiy munosabati o'quvchilarning bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishi uchun imkoniyat tug'diradi. O'quvchilar bilan bo'lган munosabatda va istalgan pedagogik ta'sirni qo'llashda me'yorni bilish, arzimagan ish uchun keskin, qo'pol va o'quvchini xafa qiladigan darajada tanbeh berish, o'quvchilarda norozilik, xafagarchilik paydo qilish ham haqiqiy pedagogning ishi emas.

O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro samimiyl munosabat, bir-birini tushungan holda ish ko'rish, o'quvchining psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib uni baholash, pedagogik bahoga nisbatan odillik, bola shaxsiyatini xaqoratlamay ish ko'rish pedagogik odob va munosabatlarning asosini tashkil qiladi. O'qituvchi o'zaro munosabatlarni boshqarish uchun, avvalo, mana shu munosabatning sababi va harakterini bilishi shart. Yaxshi o'qituvchi hamma bolalarni birday sevadi, ayrimlarini juda yaxshi ko'rib, uni bahosini ham oshirmaydi. U intizomsiz o'quvchilarni tartibga, ulgurmaydigan o'quvchilarlarni esa darsdan keyin olib qolib ular bilan shug'ullanadi.

O'qituvchi va o'quvchilar jamoasi manfaatlarining birligi o'zaro munosabatlarda muhimdir. Chunki muallim va o'quvchi maqsadining birligi ta'lif va tarbiya samarasi uchun kurashning birligidir. Yaxshilik fazilati ikkala tomonning ham yaxshi niyatli, hayrixoh, mehribon bo'lishini talab qiladi.

5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar. Eng yaxshi, ilg'or o'qituvchi o'z fanini chuqr bilishi va unga

bog'liq bo'lган fanlar tizimini ham yaxshi, chuqur o'zlashtirishdan tashqari ta'lrim - tarbiya ishiga ilmiy - uslubiy jihatdan yaxshi tayyorlangan bo'lishi lozim.

Hozirgi zamon o'qituvchisining shaxsi uchun eng muhim asos-bu insonparvarlik yo'nalishidir. O'qituvchi juda yuksak darajada umumiyligi, madaniyatga ega odam. U juda ko'p narsani bilishi kerak, hozirgi zamonda o'zi o'qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo'lishi, o'z o'quvchilarini har kuni o'qishga o'rgatib borish uchun o'zi muntazam o'qib o'rganishi, o'z bilimini to'ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon, o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, nazariy bilimlarni mukammal egallagan diniy va dunyoviy bilimlardan xabardor, ma'naviy barkamol inson bo'lishi kerak.

O'qituvchi mahorati, unga qo'yilgan talablar va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish haqida «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham keltirilgan. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi mehnatining nufuzini oshirish va yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashning mas'uliyatliligini e'tirof etgan holda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o'qituvchi shaxsiga ham katta talablar quymoqda:

1. O'qituvchi hozirgi zamon talablariga javob beradigan yuksak axloqiy-ma'naviy sifatlarga ega bo'lgan, chuqur bilim va mahorat egasi bo'lishi lozim;
2. Vatan tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur biladigan, ma'naviy komil inson bo'lishi;
3. O'z fani doirasida chuqur bilimga ega bo'lgan, kompyuter savodxonligi bor fanlararo aloqalarni yaxshi bilish va uni o'quvchilarga o'rgatish;
4. Pedagogik texnologiyani yaxshi biladigan uning yangi-yangi yo'llarini yarata oladigan ijodiy ishlaydigan pedagogik mahorat egasi bo'lisch;
5. Pedagogik muomala madaniyatini yaxshi egallagan, pedagogik etika qoidalariga amal qiladigan bo'lishi;
6. Dunyo taraqqiyoti darajasidagi bilimlardan xabardor, ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan inson bo'lishi;
7. Bolalarni sevishi va ularning kelajagi uchun qayg'uradigan, istiqbolni uylab ish ko'ra biladigan mohir inson bo'lmog'i lozim.

Xullas, o'qituvchida bu kabi xususiyatlarning mavjud bo'lishi uning pedagogik mahoratini oshiradi va tajribasini boyitadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. O'qituvchi psixologiyasini tavsiflab bering?
2. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlariga nimalar kiradi?
3. O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlaridagi pedagogik vaziyatni izohlab bering ?
4. Pedagogik odob deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogik qobiliyat pedagogik faoliyatda qanday ahamiyatga ega?
6. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlarini ayting?
7. «Pedagogik texnika» tushunchasiga ta'rif bering.
8. Yosh o'qituvchilar qanday xatolarga yo'l qo'yadilar?

III. AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH

Mavzuga oid nostandard testlar

1. «Pedagogik qobiliyat turlari mazmunini to'g'ri javoblari bilan juftlang.

1	<i>Bilish qobiliyati -</i>	A	O'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, yoshlarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati		
2	<i>Tushuntira olish qobiliyati -</i>	B	Fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, iqtisod, adabiyot va hakozolarga doir) qobiliyatлardir.		
3	<i>Kuzatuvchanlik qobiliyati -</i>	C	Birinchidan, o'quvchi-talabalar jamoasini uyushtirishni, jipslashtirishni, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni; ikkinchidan, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi		
4	<i>Tashkilotchilik qobiliyati –</i>	Д	O'quvchining ichki dunyosiga kira olish, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik va boshqalar		
Javob:	1-	2 -	3 -	4 -	

2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing.

- 1) _____ bu gavda, qo'l va oyoqlarning harakatlaridir.
- 2) _____ – bu his-tuyg'ularni, fikrlarni, kayfiyatni yuz muskullari yordamida bera olish tushuniladi.

3. Quyidagi beriladigan fikrlarning qaysilari to'g'ri bo'lsa “ha”, noto'g'ri bo'lsa “yo'q” so'zlarini qo'ying.

- A. Darsni tashkil etish va olib borishdagi bosh maqsad – ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashdir.
- B. Tashkiliy daqiqada sinfning tayyorlarligini kuzatish emas, mavzuga oid taqdimotni tayyorlash kerak.
- C. Dars - o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshiradi.
- D. O'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondoshishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi shart emas.
- E. Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq.
- F. Darsda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish shart emas.

Javob:

A	B	C	D	E	F

O'NIKKINCHI MASHG'ULOT

Mavzu: Ta'lif jarayonini boshqarish nazariyalari (4 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. Boshqaruv psixologiyasining ijtimoiy psixologik jihatlari
2. Ta'lif tizimini boshqarish masalalari va vazifalari
3. Boshqaruv mahorati – ilm, san'at va texnologiya sifatida.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risidagi» Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lif tizimini boshqarish masalalari.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lif sohasidagi vakolatlari va ta'lifni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
7. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p
8. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
9. Abduraxmanov F., Abduraxmanova Z. Kasb psixologiyasi. Darslik. T.: 2016 yil
10. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
11. Jo'rayeva S., Yunusxodjayev S. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014 y.
12. Ignatev Ye.I, Lukin N.S Psixologiya –T.: «O'qituvchi», 1990.
13. Ivanov R.I. Umumiy psixologiya. Darslik -T.: 2008.280 b.
14. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
15. Klimov Ye. A. Osnov psixologii. –M.: 1997.
16. G'oziyev E.G., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
17. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010 y.
18. Shonazarov J.U. Kasbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil
19. www.edu.uz.
20. www.referat.ru.

II. Mavzu bo'yicha qisqacha tavsif

Mavzu: Ta'lim jarayonini boshqarish nazariyalari

Reja:

1. Boshqaruv psixologiyasining ijtimoiy psixologik jihatlari
2. Ta'lim tizimini boshqarish masalalari va vazifalari
3. Boshqaruv mahorati – ilm, san'at va texnologiya sifatida.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim tizimini boshqarish masalalari.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari va ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi

Tayanch tushunchalar: ta'lim tizimi, oliv ta'lim, boshqaruv psixologiyasi, boshqarish organlari, boshqarish mahorati, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy boshqaruv.

1. Boshqaruv psixologiyasining ijtimoiy psixologik jihatlari.

Ma'lumki, boshqarish deganda mavjud vosita va imkoniyatlardan foydalanib ko'zlangan (rejalashtirilgan) maqsadga erishish jarayoni tushuniladi va shuning bilan birga har bir insonni o'z ko'zlagan maqsadiga erishishning tez va qulay varianti qiziqtiradi. Boshqarish muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o'r ganiladi, jumladan, falsafa, tarix, iqtisod, huquqshunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tomonlarini ochish bilan shug'ullanadi. Psixologiya boshqarishning ham ob'ekti, ham sub'ektini o'r ganadi. Psixologik tadqiqotlarda o'r ganiladigan olimlar jamoasi, alohida shaxs, ularning psixologik holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boshqaruv ob'ekti deb aytildi. Boshqaruvning sub'ekti o'r ganilganda esa odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi.

Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko'ra u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo`lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil: kimdir unga berilajak huquqlarni afzal ko'radi, kimgadir yo'qsak mas'uliyatlarni bo'yinga olish ma'qul keladi. Shaxslarning boshliq funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma xil bo'lmasin, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo`lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obruga ega bo`lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o`z buyniga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo`lishi talab qilinadi.

Eng qulay ya'ni optimal boshqarish deganda minimal imkoniyatlar asosida, maksimal natijaga erishish jarayoni tushiniladi. **Boshqa insonlarni boshqarish mahorati** – bu doimiy ravishda o'zgarib turadigan va uzluksiz rivojlanishda bo'ladigan dinamik jarayondir. **«Insonlarni boshqarish mahorati»** – xodimlarga munosabatda, ijodkor shaxslardan tarkib topgan samarali komandani tashkil etish uchun, sog'lom shaxslararo o'zaro munosabatlar yordamida uyushgan va to'la ishonch muhitini yaratish lozimligini ko'rasatadi.

2. Ta'lim tizimini boshqarish masalalari va vazifalari.

Boshqaruv taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga hos bo'lgan ichki xususiyatdir. Mehnatning har qanday shakli-ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat – idora qiluvchiga ma'lum darajada muhtojdir. Demak to'g'ri boshqaruvning muhim sharti-boshqaruvchining ya'ni rahbarning faoliyatidir. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarni o'z ichiga qamrab oladi. Shunga muvofiq boshqaruvning 3 ta asosiy yo'nalishi bor:

1. Iqtisodiy boshqaruv
2. Ijtimoiy-siyosiy boshqaruv
3. Ma'naviy boshqaruv.

Hozirgi davrda ma'naviy boshqaruv g'oyat katta ahamiyatga ega. Bu shakldagi boshqarish umumiyligi ta'lim maktablari, maktabgacha, mактабдан ташқари болалар muassasalari, xalq ta'lim organlari, o'rta maxsus kasb hunar kollejlari va akademik litseylari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, pedagogik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tarmoq markazlarini boshqarishni, fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sog'liqni saqlash kabi sohalarni boshqarish o'z ichiga oladi.

Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariга muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

Ta'lim tizimini boshqarish pedagogika fanining muhim tarmog'i bo'lib, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi organlari va ularning vazifalari, ish faoliyatining mazmuni va metodlarini belgilab beradi, shuningdek, ta'lim muassasalariga rahbarlik qilish tizimini asoslaydi. Ta'lim tizimini boshqarish sohasida ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish ishlarini tashkil etishga ham alohida e'tibor beriladi. Ta'lim muassasasi uning rahbari (direktor yoki rektor) tomonidan boshqariladi.

Ta'lim muassasalarida ish yuritish hujjatlari quyidagi tartibda joylashtiriladi:

1. Rahbar organlarining ko'rsatmalari;
2. Tashkiliy masalalarga oid hujjatlar;
3. O'quv masalalariga oid hujjatlar;
4. Tarbiyaviy masalalarga oid hujjatlar;
5. Kadrlarga oid hujjatlar;
6. Jamoatchilik bilan olib boriladigan hamkorlik, ta'lim muassasalarining ommaviy ishlariga oid hujjatlar;
7. Moliya, xo'jalik ishlariga moddiy ta'minot va ta'mirlash ishlariga oid hujjatlar;
8. Ta'lim muassasasidan yuborilgan va unga kelgan hujjatlar qayd etiladigan daftari va boshqalar.

3.Boshqaruv mahorati – ilm, san'at va texnologiya sifatida.

«Insonlarni boshqarish mahorati» – bir qator diagnostika usullarini, xodimlarni baholash va turli tipdagи odamlar bilan aloqaga kirish, hamda turli xarakterdagи insonlar guruhlari bilan munosabatda bo'lish, axborot va ma'lumotlar bilan ishslash, tahlil qilish, modellashtirish, shaxs va jamoaga ta'sir o'tkazish, ishchan munosabatlarni shakllantirish, so'rovlar o'tkazish, suhbatdoshni tinglash san'ati, «qaytma aloqalar» ko'nikmasi va pirovard holatda to'g'ri qarorlar qabul qilish

malakasini egallahash va olingen bilimlarni amaliyotda va muammolarni hal etishda qo'llashni o'rganashdan iboratdir.

Boshqaruv mahorati, kadrlar salohiyati va davlat idoralari va mahalliy boshqaruv organlari tizimi o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirdadir. Zero, jamiyatning kadrlari salohiyati, insoniy resurslari davlat boshqaruvi organlaridagi kadrlar salohiyatini shakllantirishda poydevor vazifasini o'taydi.

Boshqaruvchilik holatlarida rahbarga ko'proq quyidagi oltita asosiy omillar ta'sir qiladi. Ularga: boshqaruvchilik aloqalariga doimiy ravishda jalb etilganligi omili; kutilmagan, tasodifiylik omili; noma'lumlik omili; yangilik va nostandartlik omili; ekstremal harakat omili; professional mehnatning yaxlitlik omili.

Eng maqbul boshqaruv mohiyati sub'ektning aniq shart-sharoit va muayyan boshqaruv vaziyatida kuch va vositalarni ko'proq tarzda ratsional foydalanish orqali boshqaruv ob'ektiga samarali boshqaruvchilik ta'sir o'tkazishini ta'minlash hisoblanadi. Boshqaruvchilik holatlarida omillarni ajratib olish, ularning rahbar ruhiyatiga aniq ta'sirini belgilab olish imkoniyatini beradi. Rahbar oddiy shaxs bo'lmasligi, ayniqsa muloqot, ishontirish, suhbatlashish san'atini mohirona egallashi, o'tkir o'ziga xos aqlga va hayot va bilimning barcha sohalarida salmoqli tajribaga ega bo'lishi zarur. Har qanday rahbar birinchi navbatda kishilar bilan ishlaydi va u inson tafakkurining barcha nozik jihatlarini bilishi hamda keng ijtimoiy insonni o'rganishga oid bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Boshqaruv jarayonida rahbarlar tomonidan olib borilgan ish faoliyati tahlili va turli tadqiqotlar davomida olingen ma'lumotlarga ko'ra, rahbar faoliyatining muvaffaqiyati uning shaxsiy sifatlari, odamlar bilan muloqot olib borish ko'nikmasi va o'zaro munosabatlar tizimini yaratish, rahbarlikning optimal usulini ishlab chiqish bilan belgilanadi. Bular asosida rahbar, na faqat o'zining boshqaruvchilik uslublarini egallashga, balki ularda o'zining **strategiyasi, taktikasi, texnikasi** (texnologiya) va **mahoratini** belgilaydi hamda ularning o'zaro uyg'unligini ta'minlashi mumkin.

Avvalo, **Strategiya** (grekcha- jang olib borish san'ati) tushunchasi harbiy fandagi boshqaruvdan olingen bo'lib, u oliy harbiy san'at sifatida, "general san'ati" tushunchasini bildiradi. **Taktika** (grekcha-tartibga keltirish) – strategiyaning bir qismi, unga qaram va unga xizmat qiladi. Hozirgi zamonaviy tushunchada **strategiya** - har qanday faoliyat sohasida maqsadga erishishga yo'naltirilgan bosh, asosiy dasturdir. **Strategiya** o'zida bir qator jamlamalarni ifoda etib, ular bilan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni tashkil etishda amal qilinadi. Shu bilan birgalikda **strategiyaga** faoliyatni amalga oshirish va tashkilotning maqsadiga erishiga mo'ljallangan umumiyligiga kompleks reja sifatida ham qarash mumkin.

Boshqaruv nazariyasi boshqaruv jarayonini tashkil etish qonuniyatlarini hamda ushbu jarayon davrida kishilar orasida vujudga keladigan munosabatlarni o'rganadi, tadqiqot ob'ekti xususiyatlariga muvofiq keluvchi metodologik usullarni belgilaydi.

4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim tizimini boshqarish masalalari.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, ta'lim tizimini boshqarish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ko'rsatib berilgan. Ular quyidagilardir:

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining ta'lif sohasidagi vakolatlari;

26-modda. Ta'lifni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi;

27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lif sohasidagi vakolatlari;

28-modda. Ta'lif muassasasini boshqarish;

29-modda. Ta'lif sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lif muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar;

Davlat ta'lif muassasalarini moliyalash Respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Maktabga ta'lif vazirligi maktabga ta'lif muassasalariga, Xalq ta'limi vazirligi esa O'zbekiston Respublikasida maorifga bevosita rahbarlik qiladi. U barcha tipdagi maktablarga rahbarlik qiladi. Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi barcha universitetlarga, kasb-hunar kollejlariga, litseylariga, bilim yurtlariga rahbarlik qiladi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv rejalarini va dasturlar ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Xalq ta'limi vazirligi "Ta'lif to'g'risida"gi qonunning bajarilishi, maktablarda o'quv-tarbiya jarayonining yo'lga qo'yilishi, uning moddiy bazasi, o'qituvchilarining malakasi va kattalar talimining tashkil etilishi uchun javob beradilar. Xalq ta'limi vazirligida turli xil o'quv-metodika bo'limlari tashkil etiladi. Ular pedagogika jamoatchilagini xalq talimi bo'limlari va maktablarga yordam berishga jalgan etadilar.

O'zbekiston Respublikasi maktab va boshqa o'quv-tarbiya muassasalari barcha ishlab chiqirishning asosida boshqariladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lif sohasidagi vakolatlari va ta'lifni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida" gi Qonunning 4 bo'limi "**Ta'lif tizimini boshqarish**" deb nomlanadi. Ushbu bo'lim 25, 26, 27, 28 va 29-modlarni o'z ichiga oladi. Qonunning 25 – moddasida **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lif sohasidagi vakolatlari keltirilgan.**

O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimini boshqarishga umumiyoq rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini ta'lif tizimini boshqarish bo'yicha quyidagi vakolatlarga egadir:

1. Ta'lif sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

2. Ta'lif sohasida davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;

3. Ta'lifni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishni amalga oshirish;

4. Ta'lif muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;

5. Ta'lif muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagogik, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;

6. Boshqa davlatlarning ta'lif muassasalariga O'zbekiston Respublikasi hududida ta'lif faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

7. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lif to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;

8. Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;
9. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
10. Davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
11. Oliy ta'lim muassasalarining rektorini tayinlash;
12. Ta'lim oluvchilarning akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasalaridan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Respublika ta'lim tizimini boshqarishda mahalliy davlat hokimiyyati organlari ham ishtirok etadi. Ularning Respublika ta'lim tizimini boshqarishdagi o'rni va roli quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno) ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;
2. O'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarini belgilaydi;
3. Ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar. Shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq bosh vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Boshqarish, boshqarish tizimini qanday tushunasiz?
2. Jamiyatda boshqaruvning qanday asosiy yo'nalishlari mavjud?
3. Ta'lim muassasalarini kim boshqaradi?
4. Eng qulay ya'ni optimal boshqarish deganda qanday jarayon tushiniladi?
5. Boshqa insonlarni boshqarish mahorati – bu qanday jarayon?
6. Ta'limni boshqarish qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi?
7. Strategiya va taktika deganda nimani tushunasiz, unga izoh bering?
8. Oliy ta'lim qayerlarda amalga oshiriladi?
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim tizimini boshqarish bo'yicha qanday vakolatlarga egadir?
10. Oliy ta'lim muassasalarining rektori kim tomonidan tayinlanadi?
11. Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasiga nimalar kiradi?

III. AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH

1. Mustaqil ishlash uchun test savollari

1. Ta'lismuassasini kim boshqaradi?

- A) o'qituvchi;
- B) Vazirlik;
- S) uning rahbari;
- D) uning bo'lim mudiri.

2. Boshqa insonlarni boshqarish mahorati bu qanday jarayon?

- A) bu doimiy ravishda o'zgarib turadigan va uzlusiz rivojlanishda bo'ladigan dinamik jarayondir;
- B) ta'lismi va tarbiya jarayonidagi samimiy munosabatda bo'lish va o'quvchining qalbidan joy ola biling qobiliyatidir.
- S) bu sog'lom shaxslararo o'zaro munosabatlar yordamida uyushgan va to'la ishonch muhitini yaratish mahoratidir;
- D) o'quv jarayonini mohirlik bilan boshqarish san'atidir.

3. Eng qulay ya'ni optimal boshqarish deganda nimani tushunasiz?

- A) o'z xodimlari bilan oson va tezda murosaga kela olish hamda faoliyatni mohirlik bilan boshqara olish qobiliyatidir;
- B) Rahbar bilan ishchi-xodimlar o'rtasidagi muomala madaniyati tizimi;
- S) Inson bilan inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini ijobiy hal etish ko'nikmasidir;
- D) boshqaruv faoliyatida minimal imkoniyatlar asosida, maksimal natijaga erishish jarayoni tushiniladi.

4. Jamiyatda boshqaruvning nechta asosiy yo'nalishi bor?

- A) 3 ta: Iqtisodiy boshqaruv, ijtimoiy-siyosiy boshqaruv, ma'naviy boshqaruv.
- B) 3 ta: ma'naviy boshqaruv, ijtimoiy boshqaruv, davlat boshqaruvi;
- S) 4 ta: jamiyat boshqarushi, siyosiy boshqaruv, kollegial boshqaruv, maxsus boshqaruv;
- D) 2 ta: ma'naviy boshqaruv, iqtisodiy boshqaruv.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining ta'lismohorasi vakolatlari qaysi qonun hujjatlarida keltirilgan?

- A) oliy ta'larning huquqiy-me'yoriy hujjatlari majmuasida;
- B) Oliy ta'lismohorasi konsepsiyasida;
- S) Ta'lismohorasi O'zbekiston Respublikasi Qonunida;
- D) O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida.

2. Uyga -o'quv topshiriq T-sxema jadvali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lismohorasi vakolatlari	Ta'lismi boshqarish bo'yicha vakolatlari davlat organlarining huquqlari doirasi
1. Ta'lismohorasi yagona davlat siyosatini amalga oshirish; 2. 3.	1. Ta'lismohorasi yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish; 2. 3.

O'QUV JARAYONIDA TALABALARING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH

Mustaqil ish – ta'limdi tashkil etish shakllaridan biri bo'lib, bunda talabalar o'z oldilariga u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yib, faoliyatni rejalahtiradi va uni amalga oshiradi hamda o'z-o'zini baholaydi.

Mustaqil ish – o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limdi tashkil etish shakli. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabalarning mustaqil ishlari ularning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatlaridir.

Mustaqil ta'lim (MT) – talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim shakli. Mustaqil ta'limning **maqsadi** – talabalarda pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv va mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash va boyitish, ular tomonidan yangi bilim, ko'nikma, malakalarni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, shuningdek, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashdan iborat.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari

Professor-o'qituvchining roli talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovation faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi ko'nikma va malakalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil ishni tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Mustaqil ish quyidagi vazifalarni muvafaqqiyatli hal etishga imkon berishi lozim:

- 1) talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivasiyani hosil qilish;
- 2) ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;
- 3) talabalarda umumiylar va kasbiy layoqatlarni rivojlantirishga imkon berish;
- 4) ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Auditoriyada amalga oshiriladigan mustaqil ishlar

- 1) ma'ruza mashg'ulotlarida ba-jariladigan mustaqil ishlar;
- 2) amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan mustaqil ishlar.

Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlar

1. Konspektlashtirish.
2. Adabiyotlardan referat tuzish.
3. Kitob va maqolalarga anno-tasiya yozish.
4. Doklad, referat va nazorat ishi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda yangi axborotlardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- 1) tarmoqdan axborot izlash – web-brauzer, ma'lumotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv, axborot-ma'lumotnomalar tizimlari, avtomatlashgan kutubxona tizimlari, elektron jurnallardan foydalanish;

2) tarmoqda dialogni amalga oshirish – elektron pochta, sinxron telekonferensiyalardan foydalanish;

3) tematik web-sahifa, web-kvest(topshiriq)lar yaratish – html-muharriri, web-brauzer, grafik muharrirlardan foydalanish.

Axborot izlash va unga ishlov berishga doir mustaqil ishlar

- referat-sharhlari yozish;
- mavzu bilan bog'liq saytlarga taqriz yozish;
- ma'lum mavzuga doir tarmoqdagi mavjud referatlarni tahlil etish, ularni baholash;
- ma'ruza rejasiga doir o'z variantini yoki uning ma'lum bir qismini yozish;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish;
- amaliy mashg'ulotlardan lavha tayyorlash;
- mavzuga doir doklad tayyorlash;
- mavzuga doir munozara o'tkazish;
- professor-o'qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki tarmoqdan topilgan web-kvestda ishlash

Mustaqil ishi mavzusini tanlash

Mustaqil ishi mavzulari kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Mavzular soni talabalar sonidan ko'p bo'lishi kerak, ularning yo'nalishi o'quv dasturi doirasida va talabaning qobiliyati hamda imkoniyatlari darajasida bo'lishi kerak. Mustaqil ishi mavzusi talabalarni nazariy bilimlarini mustahkamlashga va ijodiy fikrlashga qaratilgan bo'lishi bilan bir qatorda bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqib belgilanishi kerak.

Mustaqil ishi rahbari talabaga tanlangan mavzu bo'yicha Mustaqil ishi topshirig'ini rasmiylashtiradi va kafedra mudiri tasdiqlagandan so'ng topshiriqni talabaga beradi.

Mustaqil ishi topshirig'ida talabaning ismi sharifi, mutaxassisligi, kurs, guruxi, fan nomi, mustaqil ish mavzusi, topshirish muddati bilan bir qatorda namunaviy reja (kirish, asosiy qism, xulosa va boshqalar) hamda adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar va shu kabilar aks etishi lozim. Mustaqil ishini bajarish jarayonida mustaqil ishi mavzusini o'zgartirish yoki boshqa mavzu tanlanishiga ruxsat etilmaydi.

Mustaqil ishi mavzusini tanlash tartibi guruh jurnalidagi ismi, sha'rifi raqami bo'yicha taqsimlanadi. Guruh talabasi tartib raqami asosida uchta mavzudan ya'ni 1, 2, 3, lardan ixtiyoriy birini tanlashi mumkin. Agar kursda guruhlar soni ikkitani tashkil etsa ushbu guruhlarga alohida mavzular beriladi. Bir mavzuni ikkita talaba yozishi mumkin emas.

Mustaqil ishi matnini yozish

Mustaqil ishini bajarishda uni yozish va rasmiylashtirish muhim va ma'suliyatlari bosqich hisoblanadi.

Kirish qismida talaba tanlagan mavzuning dolzarbliji, maqsadi, vazifalari, ahamiyati, uni o'rganish darajasi, metodlari, yangiligi, muammoni o'rganishga qaratilganligi, va Mustaqil ishi bo'yicha o'z oldiga qo'ygan masalalar mazmunining qisqa (2-3 bet) bayon etadi.

Asosiy qismda belgilangan savollarni yoritishda masalaga uzviy bog'liq bo'lgan nazariy bilimlar bilan bir qatorda talaba to'monidan to'plangan materiallar, statistik ma'lumotlar, pedagogik tushunchalar mohiyati yoritiladi va tahlil qilinadi. Olingen natijalar, yangiliklar, g'oya va fikrlar ilmiy jihatdan asoslanadi va o'rganilgan adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar va boshqa manbalardan to'plangan ma'lumotlar to'la tahlil qilinadi. Ushbu yo'naliшda bajarilgan ishlarning mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tajribasi ham bayon etilishi maqsadga muvofiq keladi. Agar talaba mavzu bo'yicha olgan natijalarni tanqidiy baxolay olsa Mustaqil ishining qiymati yanada oshadi. Asosiy qismda mavzu moxiyati yanada kengroq ochishda mavzuga doir chizmalar va jadvallarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Nazariy tomonidan o'rganilayotgan masala chuqur yoritilgandan so'ng mustaqil ishini bajaruvchi nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan o'zaro bog'lay olishi kerak. Ish bo'yicha berilayotgan takliflar asosli bo'lishi va takliflar aniq, lo'nda va tushunarli qilib bayon qilinishi kerak.

Talaba mustaqil ishi matnnini yozishda adabiyotlar va manbalardan olingen sitatalar va mualliflarning qarashlari qo'shtirnoq ichida berilishiga e'tibor berilishi lozim.

Xulosa qismida mustaqil ishining barcha qismlari doirasida bajarilgan ishlarga umumiyl yakun yasaladi. Ushbu mustaqil ishi doirasida erishilgan asosiy natijalar xulosa va takliflar, tavsiyalar ko'rsatib o'tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzishda ishning xulosa qismidan keyin keltiriladi, ro'yxatga faqat ishni yozish jarayonida muallif tomonidan foydalanilgan adabiyotlar, qonunlar, qarorlar, maqolalar, tezislar, avtoreferetlar, jurnallar, gazetalar va x.k.lar kiritiladi.

Amaldagi «Hujjatlarni bibliografik ro'yxatga olish» davlat standartiga muvofiq kurs ishlarida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida quyidagilar keltiriladi:

- kitob, monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar uchun muallif (lar) ning familiyasi, ismi, va otasining ismi bosh xarflari, kitobning nomi, nashr joyi (shaxar), nashriyot nomi, nashr yili, betlar ;
- to'plamdag'i maqolalar va tezislar uchun muallif (lar) ning familiyasi, ismi va otasining ismi bosh xarflari, maqola nomi, to'plamning nomi, nashr joyi (shaxar) nashr yili, betlar to'plamdag'i maqola nomi to'plam nomidan // belgisi bilan ajratiladi.
- jurnaldaғi maqolalar uchun muallifning familiyasi, maqola nomi, jurnal nomi yili, betlari, maqola nomi ham jurnal nomidan // belgisi bilan ajratiladi.

Mustaqil ishida foydalanilgan manbaalar adabiyotlar ro'yxatidan alfavit bo'yicha joylashtiriladi. Agar talaba ayrim ma'lumotlarni internetdan olgan bo'lsa, muallif va ishning nomi keyin WEB sayti ko'rsatiladi.

Mustaqil ishini yozish jarayonida talaba adabiyotlarida keltirilgan boshqa olim va mutaxassislarning fikrlarini keltirish mumkin. Bunday xollarda matnda ushbu adabiyotlardan foydalanilganlik belgisi qo'llaniladi. Satr osti izohlari sahifa so'ngida berilib, matnda har bir sahifa uchun ketma – ketlik asosida raqamlanadi yoki yulduzchalar bilan belgilanadi.

Ilvalar qismida Mustaqil ishi mavzusiga oid chizmalar, jadvallar, klaster texnologiyasi asosidagi kategoriylar va turli tushuncharni keltirib o'tishi yoki matn

tarzida atamalar asosida izohlarni keltirib o'tishi lozim. Ilovalar qismida mustaqil ishi mavzusiga tegishli boshqa chizmalardan ham foydalanish mumkin.

Mustaqil ishini yozishda talaba avallo rahbarning ko'rsatma va maslahatlariga rioya etishi zarurdir.

Mustaqil ishini rasmiylashtirish

Mustaqil ishini rasmiylashtirish belgilangan talab va standartlarga javob berishi kerak. Mustaqil ishi matni sahifaning ma'lum chegaralarida joylanishi chizma va jadvallarni rasmiylashtirilishi, bir xil formatdagi oq qog'ozlardan foydalанилиши ishni sifatlari va umumiyl talablar bo'yicha yoritilishiga olib keladi.

Mustaqil ishi asosan A4 (210x297 mm) farmatidagi oq qog'ozlarga ko'k tushda (ruchkada) tushunarli tarzda, qisqartirishlarsiz, aniq va ravon tilda o'z qo'li bilan davlat tilida (rus guruxlarda rus tilida) yoziladi. Mustaqil ishi xajmi 15 -20 betni tashkil etishi lozim. Xar bir sahifani chap tomonda 30 mm, o'ng tomondan 15 mm tepa va pastki tomondan 20 mm qoldirilgan holda yoziladi. Mustaqil ishi matnlari qog'ozning bir tomoniga xar sahifaga 25- 30 qator yoziladi. Har qatorda 7-8 ta so'z joylashishi mumkin. Barcha satr osti izohlari qaysi sahifaga tegishli bo'lsa, o'sha sahifada keltiriladi.

Har bir qism, kirish asosiy va hulosa qismlari, ilovalar yangi sahifalardan boshlanadi. qismning nomi va matn orasi yaqqol ajralib turishi kerak. qismdagi sarlovhalar qismning tartib raqami bilan boshlanib, unda so'zlarning bo'g'in ko'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Sahifa tartib raqami sahifaning pastda o'rta-qismida keltiriladi. Mustaqil ishida keltirilgan qismlar, shuningdek ilovalar ham sahifalanadi. Jild varag'i 1-bet sanaladi, unga tartib raqami qo'yilmaydi.

Mustaqil ishi qismlari quyidagicha joylashtiriladi: jild varag'i, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar.

Mustaqil ishi yuzasiga taqriz uchun oq qog'oz qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jild (titul) varag'i mustaqil ishining 1- beti bo'lib, unda Vazirlik, oliy o'quv yurtining nomi fakultet va kafedra, Mustaqil ishi mavzusi, ta'lim yo'nalishi, kursi, guruxi, muallifning familiyasi, ismi va sharfi, ilmiy raxbarning ilmiy unvoni va darajasi, familiyasi, ismi va sharifi keltiriladi.

Talabalarning mustaqil ishlariga rahbarlik qilish

Talabalarning mustaqil ishlariga rahbarlik qilish kafedrada tuzilgan va fakultet dekanati tomonidan tasdiqlanadigan maslahatlar jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi. Maslahat uchun ajratilgan soatlari guruhrular jurnallarida qayd etib boriladi. Talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Mustaqil ishlarning bajarilishi tegishli fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos ravishda reyting tizimi (ballar) asosida baholanadi.

Har bir talabaning mustaqil ish bo'yicha olgan ballari uning tegishli fan bo'yicha to'plangan umumiyl reyting ko'rsatkichlari qo'shiladi. Mustaqil ish uchun talaba tomonidan olgan ball ko'rsatkichi guruh "Reyting oynasi"da, shuningdek, OTMning maxsus elektron tarmog'ida yoritib borilishi zarur. Tegishli fandan mustaqil ish bo'yicha belgilangan maksimal reyting ballining 55 % dan kam ball to'plagan talaba shu fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.(1-ilova).

Mustaqil ish va topshiriqlarning MAVZULARI

№	Mavzuning nomi	soat
1	Psixologiyaning tadbiqiy va amaliy sohalari.	2
2	Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar	2
3	Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiyada yosh davrlarini tabaqlash muammolari	4
4	Ijtimoiy hulq motivlari va shaxs motivasiyasi	2
5	Motivlarning turlari	2
6	Kasbiy faoliyatni baholashning shakllari va ularning psixologik tasnifi.	4
7	Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari	2
8	Temperament va faoliyatning samaradorligi masalasi	4
9	Xarakterning psixologik strukturasi	2
10	Temperamentni o'rghanish usullari	2
11	Xarakterning shakllanishida tarixiy, ijtimoiy–iqtisodiy vaziyatlarning roli	4
12	Muloqotda namoyon bo'ladigan xarakter xislatlari	4
13	Ma'naviy–ahloqiy xarakter fazilatlari va ularning shallanishi	2
14	Reoriyentasiya psixologik muammo sifatida	2
15	Rivojlanishda shaxsning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarining roli	2
16	Fikr tarbiyasi, mustaqil ijodiy fikrlashni tarbiyalash	2
17	Kasbiy fikrlashning afzalliklari	4
18	Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining xususiyatlari	2
19	Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari	4
20	Rahbar faoliyatining ijtimoiy psixologik tavsifi.	4
21	Ta'lim jarayonini boshqarish nazariyalari	2
	Jami:	58

Fan bo'yicha talabalar talabalar bilimini nazorat qilish mezonlari

Talabalar bilimini nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom (*O'z.R. OO'MTVning 2017 yil 14 avgustdagи 87-02-2642-sonli xati bilan tavsiya etilgan*) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida ikki turdagи, ya'ni oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

**Maksimal ball – 5 baho
Saralash ball – 3 baho**

Nº	Nazorat turi	Nazorat soni	Bir nazorat uchun ajratilgan ball	Maksimal ball
1	(JN sifatida amaliy, seminar mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi va faolligi uchun) Oraliq nazorat	muntazam 1 yoki 2 marta	5	5
2	Yakuniy nazorat	1	5	5
	Jami:	2	-	5

1. Oraliq nazoratni bajargani uchun maksimal - 5 ball, saralash – 3 ball

Oraliq baholash (OB) – semestr davomida talabaning fan o'quv dasturini tegishli tugallangan bo'lim(lar)ini o'zlashtirishini baholash usuli. OB soni (bir semestrda 2 tadan oshmasligi lozim) va shakli (suhbat, yozma ish, og'zaki so'rov, test o'tkazish, kolokvium, hisob-grafika ishi, nazorat ishi, kurs ishi, kurs loyihasi, mustaqil ish, ijodiy topshiriq va hokazo) fan xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.	
- mustaqil xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; fanning (mavzuning) mohiyatini tushunish; bilish, ifodalay olish, aytib berish hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.	5
- mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; fanning (mavzuning) mohiyatini tushunish; bilish, ifodalay olish, aytib berish va fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.	4
- talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yichatasavvurga ega bo'lish;	3
- fan dasturnii o'zlashtirmaganlik; fan (mavzu)ning mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emaslik;	2

2.Yakuniy nazorat uchun maksimal- 5 ball, saralash-3 ball

Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishi shart, oraliq nazoratni topshirmagan yoki ushbu nazorat turi bo'yicha 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba YaN ga kiritilmaydi.	
Yakuniy nazorat og'zaki yoki yozma ish shaklida bo'lsa, variyantlar tuziladi va har bir variyantda 5 ta savol bo'lib, javoblar uchun jami maksimal "5" baho qo'yiladi.	
- mustaqil xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; fanning (mavzuning) mohiyatini tushunish; bilish,	5

ifodalay olish, aytib berish hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.	
- mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; fanning (mavzuning) mohiyatini tushunish; bilish, ifodalay olish, aytib berish va fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.	4
- talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yichatasavvurga ega bo'lish;	3
- fan dasturnii o'zlashtirmaganlik; fan (mavzu)ning mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emaslik;	2

Izoh: Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talabalar uchun «Kasbiy faoliyat psixologiyasi» fanidan oraliq va yakuniy nazorat bo'yicha TEST SAVOLLARI

1. Psixologiya nimani o'rghanadi?

- A) Insonning bilish jarayonlarini o'rghanadi.
- B) Inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha xilma-xil individual xususiyatlarni hamda ularga xos bo'lgan umumiy psixik sifat, jarayonlarni o'rghanadi.
- C) Odam shaxsini shakllanish jarayoni, o'sishi, taraqqiyoti va rivojlanish omillari va ularning individual xususiyatlari mohiyati, mazmunini o'rghanadi.
- D) Jon va ruh haqidagi g'oyalar tizimidir.

2. Inson psixologiyasida «instinkt» so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A) lotincha so'z bo'lib, «harakat» demakdir;
- V) grekcha so'z bo'lib, «ko'nikmalar» demakdir;
- S) lotincha so'z bo'lib, «to'g'ma his» demakdir;
- D) lotincha so'z bo'lib, «xususiyat» demakdir.

3. Shaxs tushunchasini ta'riflab bering?

- A) Shaxs-ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, tirik mavjudot sifatida boshqalardan ajralib turadigan sifatlarning mukammal shakllanish jarayoni natijasidir;
- B) Shaxs- olamni o'zgartuvchi ongli sub'ekt.

S) Shaxs- individning odam sifatida shakllanishi.

D) Shaxs- muayyan jamiyatning a'zosi, olamni aktiv o'zgartuvchi va biluvchi, o'ziga xos individual-psixologik xislatlarga ega bo'lgan ongli sub'ekt sifatida shakllangan insondir.

4. Shaxsma'naviyati, uningdunyoqarashi, barchatasavvurvae'tiqodiga aloqador bilimlarimajmuisasosanqaerdashakllanadi?

- A) maktabda;
- B) muhit ta'sirida;

S) o‘quv yurtida

D) oilada

5. Faoliyat deb nimaga aytildi?

A) faoliyat – bu insonning mehnat qilishi va o‘z maqsadini amalga oshirish jarayonidir.

B)faoliyat- shaxsning faolligi, barcha hayotiy funktsiyalarni mustaqil bajara olish usuli.

S) faoliyat –inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir.

D) faoliyat – insonning oldiga quygan maqsadini ruyobga chiqarishga bo’lgan intilish va izlanishidir.

6. Faoliyatning qanday turlari mavjud?

A) mehnat, tarbiya, o‘qish, tashqi, ichki, ijodiy mehnat;

B)o‘yin, ta‘lim (o‘qish), muloqat, mehnat faoliyati;

S) o‘yin va tarbiya;

D) mehnat, tarbiya;

7. Shaxsning bilish jarayonlariga kaysi psixik jarayonlar kiradi?

A) diqqat, xis-tuygu, iroda, sezgi, idrok, tafakkur;

B)diqqat, tafakkur, xotira, iroda, qobiliyat, motivasiya;

S) diqqat, temperament, xotira, xarakter, iroda;

D) diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq.

8. Diqqat deb nimaga aytildi ?

A) diqqat deb psixik faoliyatning yo‘naltirilishiga aytildi;

B) diqqat deb ongimizni o‘zimiz uchun ahamiyatlil bo‘lgan ob‘ektga yo‘naltirishga va shu ob‘ekt ustida to‘plashga aytildi;

S) diqqat deb psixik faoliyatni tanlash, yo‘naltirish, qo’llab-quvvatlash va yigishga aytildi;

D) diqqat deb kishining butun e‘tiborini bir joyga to’plab, xotira sezgilarini ishga tushirgan holda e’tiborli, diqqatli bo‘lishga aytildi.

9. E’tiqod bu....

A) Bilimlarni amalda bir necha bor qo’llanilishi orqali sodir bo‘ladigan, fikrlarning teran ma’noda asoslanishiga aytildi;

B) Mehnat qilish jarayonida hosil bo‘lgan ko’nikmalar natijasi hisoblanadi;

S) e’tiqod - shaxsni o‘z qarashlariga, prinsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda qarorga kelishga undaydigan muhim motivlar tizimidir.

D) Insonni uzoq yillar davomida o‘zlashtira olgan bilimlar majmuasiga asoslangan holda shaxsiy fikrlarga yondoshish jarayoni - e’tiqod deyiladi.

10. Dunyoqarash nima?

A) dunyoqarash - pedagogik faoliyat jarayonidagi maqsadga intilish yo‘li, irodaviy sifatlarni shakllantirish omillarini angalatadi;

B) dunyoqarash - tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g‘oyalar majmui bo‘lib, u shaxsni ma’lum bir qolipda, o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o‘rin egallahsga chorlaydi;

S) dunyoqarash - narsa va hodisalarning bevosita idrok qilish mumkin bo'lмаган xususiyatlari, o'zaro munosabatlari, qonuniyatlar haqidagi mavhum tushunchalar asosida fikrlash turi. Bunda mavhum tushunchalar hosil qilinadi;

D) dunyoqarash - pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobida muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etishidir.

11. Pedagog munosabati deganda nimani tushunasiz ?

A) pedagog munosabati - o'qituvchining o'quvchi-talabalar bilan tarbiyalash maqsadida aloqa o'rnatishi;

B) pedagog munosabati – barqaror faoliyat jarayonida o'quvchilarning salbiy munosabatiga javob qaytarishi;

S) pedagog munosabati – o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi ijobiy xususiyatidir;

D) pedagog munosabati – pedagogning talabaning xatti harakatiga salbiy baho berishidir.

12. Qobiliyat nima?

A) Qobiliyat –insonning mehnatga bo'lgan qiziqishi va intilishidir;

B)Qobiliyat- shaxsning o'qish va mehnatga nisbatan xoxish-irodasi.

S) Qobiliyat – kishining muayyan faoliyatga bo'lgan layoqatidir;

D) Qobiliyat –insonning aqliy va jismoniy kamolotga erishishi uchun intilishidir;

13. Qanaqa holatlar yoshlar orasida tarbiyasi qiyin bolalarni keltirib chiqaradi?

A) Shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy asab faoliyati va tempramentdagi qusurlar tarbiyasi qiyinlarni keltirib chiqaradi;

B) Odamning emotsiya natijasida hayratlanish jarayonida salbiy munosabatlarga tez-tez tushib qolish oqibatida ota-onada munosabatidagi aggressivlik ta'siriga tushib qolishi bilan bog'liq holatda;

S) bolaning katta odamga aylanishi jarayonida psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining yaxshi bo'lmasligi tarbiyasi qiyinlarni keltirib chiqaradi;

D) Organizmning, sezgi a'zolarimizning atrof-muhit sharoitlariga nomutanosibligi va oilaviy nizolar oqibatida yuzaga keladi.

14. Psixologianing asosiy prinsiplari keltirilgan qatorni ko'rsating.

A) determinizm, ong va faoliyat birligi, psixikaning faoliyatda rivojlanish prinsipi;

B) xotira va xayol birligi, psixikaning taraqqiyot mahsuli, ong va faoliyat birligi, shaxs va taraqqiyot mahsuli;

S) emotsiya va shaxs xarakterining ustuvorligi, determinizm, adabtasiya va moslashuvchanlik;

D) Organizmning, sezgi a'zolarimizning atrof-muhit sharoitlariga moslashishi, ko'nikishi prinsipi.

15. Axloqiy hislarning yetishmasligi, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot, ishyoqmaslik, bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlamaslik, o'qishdagi nuqsonlar va boshqa salbiy holatlar kimlarda ko'proq uchraydi?

A) inson shaxsining akmeologik taraqqiyot bosqichida;

B) tarbiyasi qiyin bolalar psixologiyasida;

S) o'spirin bolalar psixologiyasi va tarbiyasida;

D) bolalik davriga xos tushunchadir.

16. Nima sababdan tarbiyasi qiyin o'smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsizlar deyiladi?

A) bu guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror yuksak his – tuyg'uga ega emasliklari bilan ajralib turadi;

B) Bular o'z xatolarini bilib turib qonun va qoidalarni buzadilar, noma'qul ishlarni qiladilar.

O'zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar. Ular betga chopar, o'jar bo'ladilar;

S) Ular shaxsiy talablari va ehtiyojlarni qondirish uchun har qanday nojo'ya xatti – harakatdan qaytmaydilar, hamisha odamlarga yaxshilik qilishni orzulaydilar;

